


E.I. NASIROV, SH.SH. ASAMXODJAYEVA, M.S. ALIQULOV

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHITIRISH

I-QISM



UO‘K: 330.322(075.8)
KBK: 65.9(50‘)-56ya73

Taqrizchilar: *i.f.n.,dots.* O.Sh.Sobirov;
i.f.n.,dots. M.A.Raimjonova

I-53 Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish: Darslik. 1-qism /
E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeve, M.S.Aliqulov; – T.: «Iqtisod-
Moliya», 2020. – 168 b.

Ushbu darslikda “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining 1-qismidan, ya’ni “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulidan muhim masalalar bayon etilgan. Darslik Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi va mazkur o‘quv kursining barcha bo‘limlarini qamrab oladi.

Darslikda fanning predmeti va vazifalari, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga umumiy tavsif, investitsiya faoliyatini tashkil etilishi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o‘rni va ahamiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va nobank moliya-kredit muassasalarining o‘rni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni hamda O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar va shu kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtayi nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan.

Ushbu darslik oliy o‘quv yurtining 5232700 – “Investitsion loyihalarni moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan bakalavrlarga, mustaqil tadqiqotchilar, professor o‘qituvchilar va investitsiya sohasiga qiziquvchi hamda shug‘ullanuvchilarga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-13-909-1

UO‘K: 330.322(075.8)
KBK: 65.9(50‘)-56ya73

3552140

© E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeve,
M.S.Aliqulov, 2020
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2020

KIRISH

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta'mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslik "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanining 1-qismi "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" modulini o'rganuvchi talabalarga mo'ljallangan. Mualliflar jamoasi o'z oldiga "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanining tarkibiy tuzilishi va o'qitish metodlari, "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishiga umumiy tavsif, investitsiya faoliyatining tashkil etilishi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o'rni va ahamiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va nobank moliya-kredit muassasalarining o'rni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni hamda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar to'g'risidagi barcha masalalarni ixcham hajmda fanning mazmuniga ta'sir etmagan holda ko'rib chiqish vazifasini qo'ygan.

Darslik talabalar tomonidan "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishining mohiyatini tushunish, investitsiyalarning maqsadlarini investitsion faoliyatini tashkil etish sirlarini egallash, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyatini anglab olish, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish vazifalarini qamrab oladi.

Darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanining "Investitsiya

loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” moduli predmetining asoslarini, nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Tayyorlangan darslik kirish, bir-biri bilan mantiqiy bog‘liqlikdagi 9 bob, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslariga oid atama va iboralarning izohli lug‘ati hamda adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, o‘zining tarkibiy tuzilmasi va mazmun-mundariyasi hamda o‘quv-metodik yondashuvi bo‘yicha tegishli Davlat ta’lim standartlari va namunaviy o‘quv dastur talablariga to‘liq javob beradi. Undagi mavzular va materiallar turdosh umumiyqisodiy va ixtisoslik fanlari bilan bog‘liq holda bayon etilgan. Darslikda mavjud nazariy qarashlar va amaliyot tajribasi hamda mualliflarning ilmiy faoliyati natijalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular yuqori ilmiy-pedagogik mahorat bilan sodda va tushunarli tilda yetarli hajmda yozilgan.

Darslik fanning predmeti, vazifalari va maqsadi, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi, investitsiya faoliyatining tashkil etilishi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o‘rni va ahamiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va nobank moliya-kredit muassasalarining o‘rni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni hamda O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarga bag‘ishlangan.

Darslikda har bir mavzuning mazmuni va mohiyati bayon etilganidan so‘ng bahs-munozara va nazorat uchun savollarni ifodalashga ham jiddiy e’tibor qaratilgan. Bunda odatdagidek 4-5 ta savolni shakllantirish bilan cheklanilmagan. Aksincha, savollarning mavzu materiallarini to‘liq qamrab olishiga erishishga harakat qilingan. Bu esa o‘quvchining tegishli mavzularni chuqur, atroflicha va tez o‘zlashtirish, ularning bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

I BOB. “INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH” FANINING TARKIBIY TUZILISHI VA O‘QITISH METODLARI

1.1. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining tarkibiy tuzilishi


Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta’minlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani muhim ahamiyat kasb etadi. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanini chuqur o‘rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu fan iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiyalarning o‘mi, investitsiyalash maqsadlari, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari, rivojlanish davlat dasturlarining amalga oshirilishi, investitsiya loyihalarining mohiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tamoyillari, manbalari va usullari, investitsiya loyihasi strategiyasini shakllantirish, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, loyiha xarajatlarini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va o‘tkazish, investitsiyalarni loyihaviy tahlil qilish, qarz mablag‘lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish jarayonlari monitoringi, investitsiya faoliyatini me’yoriy tartibga solinishi hamda hozirgi kunda investitsiya faoliyatining rivojlanish an’analari, istiqboli hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

Talabalarning ushbu fanni chuqur o‘rganishi investitsiyalash nazariyasi, investitsiya risklarini boshqarish, investitsiyalarning iqtisodiy

samaradorligini baholash fanlari hamda xo‘jalik subyektlarida investitsiya faoliyatini tashkil etish va loyihalarni moliyalashtirishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani “Investitsiyon loyihalarni moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi tarkibida modulli tizim asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari, investitsiyalash asoslari, investitsion loyihalashtirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni kompleks ravishda o‘rganilishini nazarda tutadi.



1.1-rasm. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining modullari

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining “Investitsion loyihalarni moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi tarkibida modulli tizim asosida “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulida ko‘zda tutilgan to‘qqizta mavzu bo‘yicha, ya’ni “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining tarkibiy tuzilishi va o‘qitish metodlari, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulining predmeti va vazifalari, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga umumiy tavsif, investitsiya faoliyatini tashkil etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o‘rni va ahamiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va nobank moliya-kredit muassasalarining o‘rni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-

kommunikatsion texnologiyalarning oʻrni, Oʻzbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, Oʻzbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish mavzulari boʻyicha maʼruza va amaliy mashgʻulotlar oʻtilishi koʻzda tutilgan.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining “Investitsiyalash asoslari” moduli boʻyicha oʻn uchta mavzu “Investitsiyalash asoslari” moduliga kirish, investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli, iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida xorijiy investitsiyalarning oʻrni va ularning xalqaro harakatini tartibga solish, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy zonalarining oʻrni, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning oʻrni va ahamiyati, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining oʻrni, innovatsiya faoliyatini va nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish, inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish, investitsiya faoliyatida kapital qurilish, rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish mavzulari boʻyicha maʼruza va amaliy mashgʻulotlar oʻtilishi koʻzda tutilgan.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining “Investitsion loyihalashtirish” modulida oʻn toʻrtta mavzu, yaʼni loyihalarning mazmun-mohiyati va tasniflanishi, investitsion loyihalashtirish asoslari, investitsion jarayon va uning tarkibiy tuzilishi, Oʻzbekistonda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakllari, investitsiya loyihasi boʻyicha biznes-reja tuzish, investitsiya loyihasi strategiyasi, loyiha boʻyicha marketing tadqiqotlarini olib borish, investitsiya loyihalarida investitsion va ishlab chiqarish xarajatlari, investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish manbalari, investitsiya loyihalarning tashkiliy-huquqiy asoslari, qurilishning smeta qiymatini aniqlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va oʻtkazish, Oʻzbekistonda uy-joy qurilishini loyihalashtirish, investitsiyalarning loyihaviy tahlili mavzulari uzviy ketma-ketlikda maʼruza va amaliy mashgʻulotlar oʻtilishi moʻljallangan.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanining “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” modulida oʻn bitta mavzu, yaʼni

investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va ularni shakllantirish, qarz mablag‘lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish, aholi mablag‘larini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga yo‘naltirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing va forfeytingdan foydalanish, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishda sug‘urtaning o‘rni, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish jarayonlari monitoringi mavzulari bo‘yicha ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tilishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta‘lim yo‘nalishi talabalariga to‘rt kurs davomida to‘rtta modul asosida o‘tiladi. Birinchi modulda talaba “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta‘lim yo‘nalishining o‘ziga xos jihatlari, tanlangan kasbning umumiy tavsifi hamda sohaga doir respublikada olib borilayotgan islohotlar bilan tanishadi. Ikkinchi modulda investitsiyalarni tashkil etishning nazariy jihatlari, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarining mohiyati ko‘rib chiqiladi. Uchinchi modulda investitsiyalarni loyihalashtirish, biznes reja tuzish, loyiha xarajatlari, loyihaviy tahlil batafsil ko‘rib chiqiladi. To‘rtinchi modul, ya‘ni yakunlovchi modulda esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullari va manbalarining o‘ziga xos jihatlari doir ma‘lumotlar taqdim etiladi.

1.2. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanini o‘qitish metodlari va vositalari

Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, texnologiyalar majmuasi, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma‘ruza, amaliy darslarida mos ravishdagi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Ma'ruzalar o'qitishning texnikaviy vositalaridan va tarqatma materiallaridan foydalanilgan holda o'qitiladi. Ma'ruzalarda fanning asosiy mazmuni bayon etiladi, hodisalarning mohiyatlari va ularning amaliy qo'llanishi ochib beriladi. Fan bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar muammoli xarakterda bo'lib, talablarning qiziqishini rag'batlantirishga va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalardan olingan bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalar hamda ishlab chiqarishdagi tajribalarni olish maqsadida o'tkaziladi. Barcha amaliy va tajriba ishlari kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq bo'ladi.

Talabalarning bilimi fanni o'rganish jarayonida ma'ruzalar va amaliy ishlari vaqtida savol-javob tarzida nazorat qilinadi. Fanni o'rganish joriy, oraliq baholash va yakuniy nazorat o'tkazish bilan yakunlanadi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanini o'qitish metodlari:

Insert jadvali:

-mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;

-oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash):

Ma'lumot xaritasini tuzish va vositachi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Toifali jadval:

Toifa – mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

-ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;

-tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Konsepsual jadval:

O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xohlayman, Bildim

-matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

-tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

T-jadval:

Bitta konsepsiya (ma'lumot)ning jihatini o'zaro solishtirish (ha/yo'q, ha/qarshi). Tanqidiy mushohadani rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali:

Tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyiha bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

Fanning amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini, topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron-bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtayi nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi harakatlar algoritmgga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Keys stadi:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'quv materialini ta'lim oluvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi.

Muammoli ta'lim bu – o'qituvchi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar hosil qilib, ta'lim oluvchilarning faoliyatini mustaqil izlanish shaklida tashkil qilib, fanning tayyor xulosalariga olib kelish usulidir. Muammoli vaziyat yuzaga kelganda, talabalarning individual xususiyatlariga xos bo'lgan ixtiyoriy muhit yaratib beradilar. O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratib, uning hal qilinishiga yo'naltirar ekan, o'quvchilarni shu tafakkur jarayonlaridan biriga ongli ravishda jalb qilishi, ya'ni hodisalarni mexanik eslab qolmay, hodisalarni taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish, faktlarni sintezlash zarurligiga ro'baro' qilib qo'yishi mumkin. Bunda muammoli izlanish metodlari mantiqiy metodlar bilan qo'shib ketgandek bo'ladi. Obyektiv ravishda har qanday ta'lim o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham, jamiyat uchun ham muammodan iboratdir. Yosh avlod o'zidan avvalgi avlodlar tajribasini o'rganishi kerak – bu jamiyat taraqqiyotining har bir davridagi ta'lim o'qituvchi uchun sistemasida hal qilinadigan muammodir. Barkamol inson tarbiyasi murakkab muammo bo'lib, u ta'lim jarayoniga har tomonlama bog'liqdir. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish ta'lim sistemasining har bir bosqichida o'rganiladigan fanlarga xos bo'lib, muammoli vaziyatni fanning mazmuni, o'ziga xos xarakter xususiyatlari, uning o'rganish metodlarini hisobga olgan holda yaratiladi. Sir emaski, bir xil yoshdagi talabalarning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko'ra tushunish, fikrlash, ish bajarish qobiliyatlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Buni, ayniqsa, muammoli holatni yaratish uchun talabalarni psixologik jihatdan puxta tayyorgarligini hisobga

olmoq zarur. Talabalar olgan bilimlarini amalda yangi sharoitlarda qoʻllaganlarida muammoli holatga duch keladilar.

Muammoli oʻqitishda quyidagilarga eʼtibor qaratiladi:

- axborot tuzilmasi;
- oʻquvchining tayyorligi;
- intuitiv fikrlash;
- motivatsiya.

Muammoli taʼlimning asosiy tamoyillari:

- oʻquvchilarga tayyor bilimlarni bermaslik, ularni dalillarni umumlashtirishga va yaratuvchanlikka yoʻnaltirish;

- bilish usullari haqida oʻquvchilarga qisqa axborot berib oʻtish;
- ijodiy topshiriqlar orqali mustaqillikni oshirish;
- ilmiy izlanishlar orqali fan metodlarini oʻzlashtirish;
- maʼlumotlarni oʻquvchilar fikrining rivojlanishi tartibida berish;
- muammoni shakllantirish, oʻquvchilarni bunga oʻrgatish.

Muammoli taʼlimning oʻziga xos jihatlari:

- oʻquv muammolari yechiladi;
- bilimlar ishonchli dalillarga aylanadi;
- oʻquv jarayoni hayotiy voqea-hodisalar asosida tashkil etiladi;
- muntazam ravishda mustaqil ishlash;
- muammolar bilan yakka tartibda ishlash;
- qarama-qarshiliklardan iborat dinamizmning mavjudligi;
- oʻquvchilarning emotsional faolligi;
- induktiv va deduktiv fikrlash usullaridan foydalaniladi.

Ijodiy faoliyat turiga koʻra ilmiy, amaliy va badiiy turlarga boʻlinadi.

Faoliyat turiga koʻra reproduktiv, produktiv va ijodiy turlarga boʻlinadi.

Muammoli oʻqitish oʻzaro bogʻlangan ikki: muammoli oʻqitish va muammoli oʻrganishdan tuzilgan. Muammoli taʼlim – bu oʻqituvchining talabalarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan oʻylab qoʻyilgan yaratish yoʻli bilan muammoli oʻrgatish shartlarini taʼminlash va ularni talabalar tomonidan yechish jarayonini boshqarish boʻyicha faoliyatidir. Muammoli oʻrganish – oʻquvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash va ularni yechish, faoliyat usullarini – taxminlarni oʻrtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali oʻzlashtirishi boʻyicha ijodiy oʻquv faoliyatini maxsus

tuzilishidir. Muammoli o'qitish deganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni qo'yish va ularni yechish bo'yicha o'quvchilarni faol mustaqil faoliyatini ko'zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy (yoki predmet) bilim, ko'nikma va malakalari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi.

Muammoli o'qitish bir qator afzalliklarga ega ya'ni:

- o'quvchilarni aqliy kuchini rivojlantirish (qarama-qarshiliklar qiyinchilikdagi muammoli vaziyatdan chiqishni izlash yo'llarini o'ylashga majbur qiladi);

- o'quvchilar mustaqil faoliyat yuritishi (muammoni o'quvchilar tomonidan mustaqil ko'rish, muammoli masala va muammoli vaziyatni ifodalash, ularni yechish rejasini mustaqil tanlash va hokazo);

- o'quvchilar ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish (o'quvchilar tomonidan bilimlarni, harakat yo'llarini mustaqil qo'llash, nostandart yechimni mustaqil izlash)ga imkoniyat berish:

- o'quvchilarga bilimlarni mustahkamroq o'zlashtirishni ta'minlash (maxsus fandan olingan bilimlarni o'quvchilar mustaqil yaxshiroq o'zlashtiradilar va uzoq muddat mobaynida yodda saqlaydilar);

- o'quvchilarda tahliliy fikrlashni (shartlar tahlil qilinadi, yechimlarining turli variantlari baholanadi) va mantiqiy fikrlashni (tanlangan yechimni to'g'riligini isbotlash, dalillash talab etiladi) rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Muammoli o'qitish o'quvchilarni o'rab turgan borliqni bilish metodlari bilan qurollantiradi, maqsadga muvofiq kuzatish ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi, ularni asoslash orqali asosiy qonuniyatlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlarini tarbiyalaydi, ularda mumkin bo'lgan tadqiqot ishiga qiziqishni uyg'otadi. O'quvchilar maxsus fanlardan o'rganilgan holatlarning mohiyatini tezroq anglaydilar va asoslangan javoblar beradilar. Ularda maxsus fanga nisbatan bilish talablari va qiziqishlari rivojlanadi, maxsus fanlarga oid materiallarni egallashda ularning bilish faoliyati faollashadi, kasbiy faoliyatga zarur bo'lgan bilimlarni egallaydilar, bilimlarida ishonch va qat'iylik tarbiyalanadi, chunki farazlarni o'rta qat'iylik o'quvchilarning o'zlari tashlaydilar va o'zlari ularni isbotlaydilar. Muammoli o'qitishning afzalliklari, ijobiy va yaxshi tomonlari bilan bir qatorda, uning

kamchiliklari ham mavjud. Uning kamchiliklari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har qanday o'quv materiallarini (masalan, raqamli va miqdoriy ma'lumotlar, dalillar, sanalar) ham muammoli vaziyatni yuzaga keltiruvchi qilib bo'lmaydi;
- o'quv muammosini har doim ham ifodalash mumkin emas;
- muammoli o'qitish ko'nikmalarga ishlov berish va ularni malaka darajasiga o'tkazish imkoniyatiga ega emas;
- o'quvchilar bilishi juda oson bo'lgan va juda qiyin bo'lgan masalalar muammoli vaziyatni yaratmaydi;
- muammoli o'qitishda iqtisod qilish ham katta vaqt sarf qilishni talab etadi.

1.3. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanini o'zlashtirishda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish yuzasidan tavsiyalar

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismini mustaqil o'zlashtirilishidir.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani bo'yicha bakalavriyat yo'nalishlarida namunaviy o'quv rejada mustaqil ta'limni bajarishga alohida o'rin berilgan.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ta'lim olishdan maqsad – talabalarda mustaqil ta'lim olishda ma'lum bir bilim, ko'nikma va malaka shakllanishidir. Shuningdek, ko'plab mustaqil ta'lim olishi natijasida, ularning ilm saviyasi teranlashadi, mustaqil fikrlay oladi, boshqa ilmiy ishlar yozishda katta ahamiyat kasb etadi hamda kelgusida amaliyotda bo'layotgan holatlarni to'g'ri baholay olishda ham kerak bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni. Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talabalar mavzuga oid darsliklardan

foydalanish tavsiya etiladi. Mavzuni yoritish jarayonida investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bunda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga yetkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko'chirmalar tarqatma material sifatida o'rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarini o'rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Internet saytlari ma'lumotlaridan samarali foydalanish, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda ularning rasmiy saytlaridan yangi ma'lumotlarni olib foydalanish lozim. Mustaqil ta'limni amalga oshirishda yo'nalishlar bo'yicha har bir mavzuni bajarish muddati va ularga berilgan soat alohida belgilanadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: konspekt qilish, doklad yozish, referat yozish, test tuzish, tayanch iboralarni o'rganish, amaliy materiallar (jadval, grafik, chizma, sxemalar) tayyorlash.

Bundan tashqari, fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fanning mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanga tatbiq etish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirish maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritishlar ham kiradi.

Mustaqil ta'lim talabani bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'nalishlarini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabani o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv rejada ma'lum soatlar ajratilgan.

Ushbu soatlar talabaning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ullanishini o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash hamda boshqalar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli

bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Maslahat soatlari paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron

bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabanning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtayi-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabanning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Nazorat savollari

1. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fani qanday modullardan tarkib topgan?
2. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanini o'qitish metodlarini o'rganing va tahlil qiling.
3. Fanni o'qitish usullaridan birini qo'llagan holda mavzuning bir qismini yoriting.
4. Muammoli ta'limning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Muammoli ta'limning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
6. Muammoli ta'limning qanday tamoyillari mavjud?
7. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi nimadan iborat?
8. Mustaqil ta'lim qanday tashkil etiladi?
9. Mustaqil ta'limni tashkil etishning qanday shakllarini bilasiz?

II BOB. “INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH VA KASBIY FAOLIYAT ASOSLARI” MODULNING PREDMETI VA VAZIFALARI

2.1. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulining predmeti, o’qitish maqsadi va vazifalari

O‘zbekistonda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining uzluksizligini ta’minlab berish davlatning olib borayotgan siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’limning davlat standartlariga asosan “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo’nalishiga “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani modulli tizim asosida o‘tiladi. Mazkur fanning birinchi moduli “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” deb nomlanib, ushbu modulni o‘qitish jarayonida modulning predmeti va vazifalari, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo’nalishiga umumiy tavsif, investitsiya faoliyatini tashkil etilishi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o‘rni va ahamiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va nobank moliya-kredit muassasalarining o‘rni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni, O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish kabi mavzular chuqur o‘rgatiladi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanining predmeti – bu talabanning o‘z tanlagan yo’nalishini asosiy mazmuni va jihatlarini bilishning umumfalsafiy, umumilmiy va maxsus ishlab chiqilgan metodlari negizida yangi bilim

olish usullari hamda bu bilimning tuzilishi tamoyillari haqidagi hozirgi zamon ta'limotidir.

Bunda ilmiy tadqiqotning umumfalsafiy, umummilliy metodlari: tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiyalashtirish, abstraktlikdan konkretlikka tomon yuqorilab borish va boshqalar.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanini o'qitishdan asosiy maqsad iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalar va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini o'rganish masalasini samarali tashkil etish vazifalari, uning funksiyalari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim va ko'nikma hamda malakani talabalarda shakllantirishga qaratilganidir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni turli masalalarni tahlil etishga, mustaqil fikrlashga, ixtisoslik fanlarini o'rganish uchun tayyorlash vazifalarini bajaradi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- fanni o'qitish maqsadi va vazifalari va usullari;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari va turlari;
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar;
- investitsiyalash sohasi va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi elementlari;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida investitsiyalashga oid munosabatlar va me'yorlar;
- investitsiyalarni tartibga solish tashkilotlari va tuzilmasi;
- investitsiya faoliyatining subyektlari;

- investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha davlat tashkilotlarining asosiy vazifalari va funksiyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- fanning boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi, o'rni va ahamiyati;
- fan dasturlari mazmuniga, malaka amaliyotlariga hamda bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan talablar;
- investitsiyalarni tashkil etishdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning mazmuni;
- investitsiya sohasida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriyati va o'rni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- investitsiya atamalari va investitsiya turlari;
- investitsiyalashning asosiy tamoyillari;
- investitsiyalash masalalariga dahldor me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- investitsiya to'g'risidagi qonun hujjatlarining tamoyillari;
- investitsiya faoliyati subyektlarining huquq va majburiyatlari;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ularni tahlil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- investitsiya faoliyatining subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- investitsiya yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, guruhlash va tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori asosida qabul qilingan. Bundan oldingi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan edi va o'z kuchini 1997-yil 29-avgustdan yo'qotgan. Qonun 5 ta bo'lim 34 ta moddadan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga

muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnik va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

-shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

- davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

-uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

-fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

-ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida ma'ruza o'qish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Fanining boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fani ixtisoslik fani hisoblanib, u o'quv rejasida rejalashtirilgan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Investitsiyalash asoslari”, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish”, “Iqtisodiy tahlil”, “Moliya”, “Investitsiya risklarini boshqarish” fanlari bilan bog'liqdir.

Iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bog'liqligini ko'radigan bo'lsak, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fani iqtisodiyot nazariyasi fanining tarkibiy qismi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, bu fanlarning umumiy maqsadi ham bir hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiyot yaxlit bir tizim sifatida qaraladi, undagi tarkibiy o'zgarishlarning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishning samarali yo'llari tadqiq qilinadi. Shu o'rinda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fani muhim instrument sifatida ko'zga tashlanadi. Hozirgi globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, samarali investitsiya loyihalarini tanlash va ularni monitoring qilish jarayonini esa bizga "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fani o'rgatadi.

"Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori" fani bilan bog'liqlikni ko'radigan bo'lsak, bunda asosan korxonalar va tashkilotlarni xususiy lashtirish jarayonida investorning aktiv ishtiroki ko'zga tashlanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida xususiy korxonalar va tashkilotlar, kompaniya va korporatsiyalar faoliyatiga investitsion yondashuv investitsiyaning bu korxonalar rivojidadagi o'rnini belgilab beradi. Korxonalar, tashkilotlarni tashkil etishda milliy va chet el investitsiyalarining roli, samarali investitsiya faoliyatining korxonalar yalpi daromadini oshirishdagi o'rnini bu fanlarning uzviy bog'liqlikda ekanligini ko'rsatib beradi. Xususiy lashtirilayotgan korxonalar ustaviga investorlarning ishtiroki, kapital qo'yimlardan samarali foydalanish bu ikki fanning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradi.

"Sug'urta ishi" fani va "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fani bir-birini to'ldiruvchi fanlar sifatida ko'rinadi. Bunda loyihalarni sug'urtalash, ularni xedjirlash kabi jarayonlar ko'zga tashlanadi. Masalan, hozir bizning mamlakatimiz sharoitida "O'ZBEKINVEST" EIMSK kompaniyasi asosan xorijiy investitsiyalar riskini sug'urtalash faoliyati bilan shug'ullanmoqda. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fani bizga loyihalar riski, ularni boshqarish usullari va kamaytirish metodlarini o'rgatadi. Bunda asosan ish faoliyati bilan bog'liq risklar, texnologik risk, investitsiyaning joriy etish riski, innovatsion risklar, xodimlar bilan bog'liq va boshqa risk turlari o'rganiladi. "Sug'urta ishi" fani esa bevosita bu risklarni samarali boshqarish va minimallashtirish usullarini o'rgatadi.

“Bank ishi” fani va “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” fanlari ham boshqa fanlar singari uzviy bog‘liqlikda o‘z obyektini o‘rganadi. Bunda asosiy e‘tibor investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalariga qaratiladi. Ya‘ni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib bank krediti hisoblanadi. Bank krediti orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, olingan kreditdan samarali foydalanish, mablag‘larni o‘z vaqtida qaytarish, investorning doimiy moliyaviy faoliyatidan xabardor bo‘lish, zarur bo‘lganda olingan kreditni shartlarini qayta ko‘rib chiqish va boshqa shu kabi jarayonlar bu fanlarning o‘zaro bog‘liqlikda kechishini ta‘minlaydi. O‘z navbatida investor moliyalashtirish manbalarini izlash jarayonida bevosita banklarning foiz stavkasi, barqarorlik darajasi, bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarishda so‘ralayotgan garov qiymati, bank tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar kabi jihatlarga alohida e‘tibor beradi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” va “Statistika umumiy nazariyasi” hamda “Makroiqtisodiy statistika” fanlari ham bir tizim doirasidagi fanlar hisoblanadi. Bu o‘rinda loyihalarda hisoblanadigan dispersiya, korrelyatsiya va boshqa variatsiya ko‘rsatkichlariga e‘tibor berish lozim. “Statistika umumiy nazariyasi” fani bizga bu ko‘rsatkichlarni hisoblashning umumiy metodikasini o‘rgatsa, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha “Kasbiy faoliyat asoslari” fani esa bu ko‘rsatkichlardan foydalanib, muqobil variantlardan eng optimalini tanlash, loyiha va boshqa omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajalari, shu ko‘rsatkichlar asosida tashqi va ichki omillarni boshqarish strategiyalarini tanlashni o‘rgatadi.

“Makroiqtisodiy statistika” fani esa iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni makro darajada o‘rganib, makroiqtisodiy uchburchak hisoblanmish YaIM, ishsizlik, inflyatsiya ko‘rsatkichlarining dinamikasini, pirovardida aholi turmush darajasining o‘zgarishini tadqiq etadi. Shu o‘rinda, bu fanning o‘rganish sohalaridan biri sifatida investitsiya loyihalari sanaladi. Ya‘ni, iqtisodiy o‘shishning hamda aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omili investitsiya hisoblanadi.

2.3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" modulining o'rni va ahamiyati

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor, investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, investitsiyalarning turlari va ularni jalb qilish mexanizmini soddalashtirish, investorlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Shu boisdan ham ta'lim tizimida investitsiya sohasidagi bilimlarni o'rgatishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan investitsiya sohasidagi islohotlarni talaba-o'quvchilarga to'laroq yetkazish, ushbu yo'nalish bo'yicha istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish, investitsiya sohasida amaliy tadqiqotlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida tatbiq etishni amalga oshirish hukumatimiz diqqat-e'tiborida bo'lgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Talabalarning "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keys-texnologiyalaridan foydalaniladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun tayyorlangan amaliy masalalar, nazorat va test savollari asosida amalga oshiriladi hamda investitsiya organlarida ishlatilayotgan dasturiy mahsulotlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o'yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (Microsoft Excel, Microsoft Power Point) internet tizimlaridan foydalanish mumkin.

"Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" fanini o'rganish talabalarda investitsiya faoliyati,

investitsiya siyosati, investitsiya loyihalari haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, shuningdek, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq mustahkam bilimlarni shakllantirish hamda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish vazifalarini o'zida namoyon etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va xalqaro integratsiyasini ta'minlashda investitsiya loyihalari alohida o'rin egalaydi. Ushbu jarayonda investitsiya loyihalari iqtisodiyotni qayta va zamonaviy qurollantirish orqali modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni jadal amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ularni, nafaqat, amalga oshirish, shuning bilan birga, samaradorligini ta'minlashga ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Ushbu masalaning yechimini aynan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosida ta'minlash mumkin. Shu sababdan ushbu fan bo'lajak bakalavrlarning o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida alohida o'rin egallaydi.

Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq talaba o'quv dasturda keltirilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malaka asoslariga ega bo'lishlikni talab etiladi. Zero, bularga ega bo'lish talabalarning kelajakda amaliy faoliyatini malakali bank mutaxassisi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni, ularning samaradorligini ta'minlovchi iqtisodchi-mutaxassis sifatida samarali amalga oshirishida muhim rol o'ynaydi.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanining amaliy mashg'ulotlari talabalarning mustaqil fikrlashi, ishlashi, ijod qilishi, izlanishi asosida o'z qarashlari, xulosalari, yo'nalishlariga ega bo'lishini ta'minlash, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining bir shakli hisoblanadi va pirovardida, talabalarda tushunchalar, bilimlar, yangi ko'nikmalar hosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mashg'ulotlar, shuningdek, talabalarda ma'ruza darsida olingan bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish, mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlari dars jarayonida pedagog rahbarligida va topshirig'i

bo'yicha talabalar tomonidan bir yoki bir qancha amaliy mashg'ulotlarni bajarishni nazarda tutadi.

Amaliy mashg'ulotlarning maqsadi talabalarning bilish, mustaqil fikrlash, ijodiy faolligi qobiliyatlarini rivojlantirish; ma'ruza darslarida olingan umumiy shakldagi bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlash; ushbu hosil bo'lgan bilimlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fani bo'yicha amaliy (seminar) mashg'ulotlarini bajarish talabalarda:

- fanning aniq mavzulari bo'yicha olingan amaliy bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga;

- olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini shakllantirish, intellektual va amaliy faoliyatlari uyg'unlikda amalga oshirishga;

- o'zini shakllantirishga intilishga qaratilgan xususiy sifatlarni rivojlantirish: o'zini anglash, o'zini nazorat qilish, o'zini baholash, o'zini rivojlantirish va o'zini boshqarishga;

- bo'lajak mutaxassislarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga;

- mustaqillik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, ijodiy tashabbuskorlik kabi kasbiy ahamiyat kasb etuvchi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Amaliy mashg'ulotlar uchun asosiy vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanining nazariy holati va konsepsiyasini, ushbu fanning ahamiyati, boshqa fanlar bilan bog'liqligini asoslashni tahlil qilish usullari va ularni amaliy qo'llashni talabalarga o'rgatish;

- talabalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasidagi aniq amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish jarayonida zamonaviy nazariy va ilmiy-texnikaviy usullardan foydalanish qobiliyati va ko'nikmalarini hosil qilish;

• talabalarda ijodiy kasbiy fikrlash, kasbiy va ijodiy motivatsiyani rivojlantirish;

• ta'lim jarayonida kasbiy bilimlardan foydalanish – tegishli fanga oid terminologiyalarni egallash, muammo va vazifalar yechimini topishda zaruriy tushuncha, bilim, aqliy qobiliyat, ijodiy yondashuvga ega bo'lishni shakllantirish;

• bilimlarni takrorlash va mustahkamlash;

• ilmiy fikrlash, nutq, auditoriya bilan muloqotni rivojlantirish;

• o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi tezkor qayta aloqani tashkil etish va shu kabilar.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fani oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun an'anaviy hamda zamonaviy pedagogik, axborot va ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Nazorat savollari:

1. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” modulining amaliy mashg'ulotlari oldiga qanday talablar qo'yilgan?

3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi qonuni haqida nimalarni bilasiz?

4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni haqida nimalarni bilasiz?

5. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini sanab bering va izohlang.

6. Muammoli ta'limning o'ziga xos jihatlarini sanab bering.

7. Muammoli o'qitish afzalliklarini sanab bering.

8. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” moduli qanday fanlar bilan bog'liq?

III BOB. “INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH” BAKALAVRIAT TA’LIM YO’NALISHIGA UMUMIY TAVSIF

3.1. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi va “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli, 2017-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5120-sonli Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3150-sonli va “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli hamda 2017-yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-3437-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, xususan kadrlar buyurtmachilarining oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorligini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda “Investitsion

loyihalarni moliyalashtirish” ta’lim yo’nalishini ochish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli o‘zgarishlar jarayonida respublikani rivojlantirish davlat dasturlari, hududiy dasturlar, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiya loyihalarini, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish jarayonida loyihalarni baholash, tanlovini tashkil etish, investitsion qarorlar qabul qilish va moliyalashtirishni tashkil etish chuqur nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan moliyalashtirish institutlari mutaxassislariga yuklatiladi. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash, investitsion qarorlar qabul qilish va moliyalashtirish jarayonlarini tashkil etish mazkur sohada alohida ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo’nalishi bo‘yicha kadrlarni tayyorlash milliy iqtisodiyotni muntazam modernizatsiyalashni ta’minlash va yangi innovatsion loyihalarni hayotga tadbqiq etish imkoniyatlarini kengaytirib beradi. Iqtisodiy sohada boshqa yo’nalishlarda tayyorlanadigan bakalavrlar bunday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega emaslar.

O‘zbekiston ko‘p ukkladli iqtisodiyotning tobora rivojlanib borishi, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayib borishi yangi hayotiy investitsion va innovatsion loyihalarni asoslash, tahlil qilish, ekspertizadan o‘tkazish, tanlovini tashkil etish asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan alohida bu borada nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qilgan mutaxassislarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish bugungi kunda kadrlar buyurtmachilarining oliy ta’lim muassaslari bilan hamkorligi borasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga “bakalavr” malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O'quv reja va fan dasturining me'yoriy muddati va mos malaka(daraja)si quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

O'quv reja va fan dasturining muddati va bitiruvchilarning malaka (daraja)si

O'quv reja va fan dasturining nomi	Malaka	O'quv reja va fan dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriatning o'quv reja va fan dasturi	Bakalavr	4 yil

Qo'llanish sohasi. Oliy ta'limning ushbu malaka talabi 5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy-iqtisodiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

-ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

-o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

-bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi iqtisod sohasidagi yo'nalish bo'lib, turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarining investitsiya faoliyatini tashkil etish, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va investitsiya risklarini boshqarishga oid kompleks masalalarni yechish usul va vositalar majmuini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda hududiy bo'linmalari;

- O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va hududiy bo'linmalari;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy boshqarmalari;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, tegishli vazirlik, qo'mita va idoralarning investitsiya bo'limlari;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi;

- turli mulk shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar hisoblanadi.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- investitsiya faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;

- investitsiya loyihalarini ishlab chiqish;

- investitsiya loyihalari bo'yicha biznes-reja ishlab chiqish;

- investitsiya loyihalari samaradorligini baholash;
- hududiy va rivojlanish davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni aniqlash va ularni boshqarish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi monitoringini olib borish;
- investitsiya loyihalari amalga oshirilishi bo'yicha hisobot tayyorlash.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot;
- pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida).

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

Ta'limni davom ettirish imkoniyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarligidan keyin:

- iqtisodiyot sohasini qamrab oluvchi tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan muddatda o'qishni davom ettirishi mumkin. Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;

-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

-tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

-axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

-tegishli bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

-sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Bakalavr:

-ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

-tegishli bakalvriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

-kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari:

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda:

-investitsiya faoliyatiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

-investitsiya loyihalari bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlari asosida loyiha samaradorligini hisob-kitob qilish;

-moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini (matematik modellashtirish, ekonometrik prognozlash, ekspert baholari, turli xil ssenariylarni qo'llash, stoxastik usullar) qo'llash;

-investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari qiymatini aniqlash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- investitsiya faoliyatiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

- investitsiya loyihalari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

- investitsiya faoliyatiga oid ko'rsatkichlar dinamikasi va ularning o'zgarish an'alarini tahlil qilish;

- investitsiya faoliyatida yuzaga kelgan xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq qilish;

- investitsiya faoliyatiga doir moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni tahlil qilish;

- investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda dasturiy komplekslar va internet texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- korporativ boshqaruvning tartib va tamoyillarini bilish;

- investitsiya faoliyatini tashkil qilish va samarali boshqarish;

- investitsiya risklarini tahlil qilish va boshqarish;

- investitsiya faoliyati ishtirokchilarini boshqarish;

- investitsiya faoliyatida sifatni boshqarish;

- investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va amalga oshirilishini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda investitsiya faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlariga baho berish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari mohiyatini tushunish hamda aniqlangan muammolar yechimini ishlab chiqish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda soha xususiyatlaridan kelib chiqib, noan'anaviy uslublarni qo'llay olish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy-amaliy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ularni tizimlashtirish;

- ilmiy-tadqiqot natijalari va yangiliklarni amaliyotga tadbiq etish yuzasidan asoslangan takliflar loyahasini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyatda (umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida):

- umumiy oʻrta, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim tizimining taʼlim muassasalarida tayyorgarlik yoʻnalishida nazarda tutilgan oʻquv fanlari boʻyicha iqtisodiy fanlardan nazariy- amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish;

- oʻquv jarayonini tashkil etishga koʻmaklashish, tadqiqotlarda ishtirok qilish, maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va tahlil etish;

- oʻqitilayotgan fanlar boʻyicha dars mashgʻulotlarini oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-metodik taʼminotni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiiq etish;

- mustaqil taʼlim va ijodiy yondashuv asosida oʻqitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasida oʻz salohiyatini uzluksiz ravishda oshirib borish qobiliyatlariga ega boʻlishi lozim.

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasidagi yuklama hajmi.

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari oʻquv ishlarini oʻz ichiga olgan oʻquv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) oʻqish shakli uchun auditoriya mashgʻulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

Oʻqishning normativ muddati toʻrt yil boʻlgani holda oʻquv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

Oʻquv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy taʼlim - 61,8 %;

- attestatsiya - 8,8 %;

- taʼtil - 15,7 %;

- malaka amaliyoti - 10,8%;

- bitiruv malakaviy ishi - 2,9%.

Nazariy taʼlim hajmi fanlar bloklari boʻyicha quyidagicha taqsimlanadi:

- Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki - 26,90 %;

- Umumkasbiy fanlar bloki - 36,13 %;

- Ixtisoslik fanlar bloki - 31,86 %;

- Qoʻshimcha fanlar - 5,11 %.

Oʻquv yilida taʼtil davrining umumiy hajmi 6-10 hafta qilib belgilanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotining chuqur isloh qilinishi va tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ham malakali va kuchli raqobatga bardoshli mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgartirilishiga olib keldi.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Davlat ta'lim standartlarida Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" fanini o'qitish ham nazarda tutilgan.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanining "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" moduli iqtisod sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida muhim o'rinlardan birini egallaydi va bu fanni o'rganishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu holatni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiyalarning iqtisodiyotda tutgan o'rnini va ahamiyatini orqali ifodalash mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning investitsiyalarga oid quyidagi fikrlarini keltirish kifoya qiladi, deb hisoblaymiz: "Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi"¹. Yoki "Mamlakatimiz sanoati va infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, ilg'or zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini faol jalb etish zarur"². Bunday fikr va asoslarni ko'plab keltirish mumkin.

"Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari iqtisodiyotning real sektorida ham, moliyaviy sektorida ham faoliyat yuritishlari mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mutaxassis kadrlar asosan tijorat banklarida faoliyat yuritadilar. Banklarda yangi ishlab chiqarishlarni qurish va mavjudlarini kengaytirish, zamonaviylashtirish, texnik qayta jihozlash (shu jumladan, jihozlar,

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010. B. 57.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 12-yanvardagi Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalarini faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi // Xalq so'zi, 2018-yil 13-yanvar. B. 1.

matereallar, yangi buyum namunalarini, boshqa moddiy boylik va texnologiyalarni) olishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishini amalga oshiradi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiy jihatdan istiqbolli, foyda keltiradigan, rantabellik darajasi yuqori loyihalar moliyalashtiriladi.

Kreditdan foydalanish muddati, loyiha o'zini-o'zi qoplash vaqtiga, lekin 10 yildan oshmagan muddatga belgilanadi. 10 yildan oshgan muddatga kredit istisno tariqasida va alohida vaziyatlarda Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan yoki jalb qilingan xorijiy banklar va boshqa xorijiy moliya institutlarining kredit liniyalari hisobidan (Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va kredit bitimlari bilan belgilangan shartlarda) berilishi mumkin.

Kreditni ta'minoti sifatida banklar tomonidan ko'char va ko'chmas mulkni garovga olish, uchinchi shaxslar kafilliklari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, sug'urta tashkilotlari va banklar kafolatlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ta'qiqlanmagan boshqa ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan quyidagi maqsadlarga kreditlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi:

- siyosiy maqsadlar uchun kreditlar;
- qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar hamda giyohvandlik va psixotrop moddalarni moliyalashtirish (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan holatlar bundan mustasno);
- nolikvid va past daromadli qimmatli qog'ozlar bilan kafolatlangan kreditlar;
- bankrot deb e'lon qilingan qarz oluvchilarga kreditlar;
- yashirin, noqonuniy bo'lishi ehtimol bo'lgan maqsadlarga kreditlar;
- boshqa davlatlarning yuridik shaxslariga kreditlar;
- xaridorgir bo'lmagan, uzoq vaqt ishlatilmay yotgan, nokomplekt, nostandart, sifati past boyliklarni garovi evaziga.

Tijorat banklari kredit siyosatida quyidagi holatlarda kreditlar ajratish rad etilishi ko'zda tutilgan:

- mahalliy hukumat idoralari va byudjet tashkilotlariga (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno);

• zarar ko‘rib ishlayotgan yoki muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud korxonalariga;

• tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan jamoat tashkilotlariga.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari sifatida xorijiy davlatlarning eksport-kredit agentliklari kafolati ostida mazkur davlatlarning banklari va boshqa moliya muassasalarining mablag‘lari bo‘lishi mumkin.

Darhaqiqat, milliy iqtisodiyotimizning ravnaqi, fan-texnika taraqqiyoti, aholi bandligi investitsiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, uni intensiv (resurs tejam) rivojlantirish ham, ko‘p jihatdan, investitsiyalarga borib taqaladi. Hatto, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilishni, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishni ta‘minlashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Makroiqtisodiy muvozanatga investitsiyalardan ayri holda erishib ham bo‘lmaydi. Eng muhimi, iqtisodiyotni modernizatsiyalashni investitsiyalarsiz ta‘minlashning iloji ham yo‘q. Umuman olganda, investitsiyalar islohotlarni samarali amalga oshirish, taraqqiyot asosi, mamlakatning xalqaro integratsiyasi va jahon xo‘jaligidagi o‘rnini mustahkamlash omili hamda unga erishishga xizmat qiluvchi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bosh quroli hisoblanadi.

3.2. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga va kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan talablar. O‘quv reja va fan dasturlari mazmuniga, malaka amaliyotlariga hamda bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan talablar

5232700 – “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta‘minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisoslik;

– qo‘shimcha.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi shart.

O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fanlar dasturlarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta‘limning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki tarkibiga kiritilgan birinchi oltita fanga qo‘yiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

Mazkur blokning boshqa fanlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar:

- axborot komplekslari, axborot tizimlari, iqtisodiyotda qo‘llaniladigan dasturiy ta‘minotlar orqali sohaning samaradorligini oshirishni tizimli o‘rganish;

- matematikaning chiziqli algebra, matematik analiz, differensial va integral hisob hamda differensial va chekli ayirmali tenglamalar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo‘llanilayotgan modellarni tizimli o‘rganish;

- iqtisodiy jarayon va hodisalar haqida ma‘lumotlarni olish, qayta ishlash, tahlil qilish va baholashni bilishi;

- iqtisodiy obyektlar va jarayonlarning miqdoriy o‘zaro bog‘liqligini matematik va statistik metodlar va modellar yordamida o‘rganishi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- ta‘lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishi;

- iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy jarayon va hodisalar

mohiyatini tushunish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilishi;

- korporativ boshqaruv tizimida qarorlarni qabul qilish hamda mikroiqtisodiyotning asosiy kategoriyalari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, byudjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko'nikmalarini shakllantirishi;

- menejment va marketing asoslarini bilishi, funktsiya, usul va tamoyillarini chuqur o'rganishi, qarorlarni qabul qilish va ular ijrosining nazoratini olib borishi;

- buxgalteriya hisobi usullari yuzasidan tasavvurga ega bo'lishi, hisob siyosatini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlashi;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish usullarini bilishi hamda auditorlik xulosasi va hisobotini tuzishi;

- korporativ moliyani boshqarish mexanizmini bilishi, moliyaviy ta'minotni va investitsiya faoliyatni tashkil etishi, moliyaviy risklarni boshqarishi;

- sug'urtaning mazmun-mohiyati, shakllari, sug'urta faoliyati klassifikatori va sug'urtaning normativ asoslari hamda sug'urta bozori subyektlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini bilishi;

- budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, hisob xujjatlari va registrlari hamda moliyaviy hisobot tuzishni bilishi lozim.

Ixtisoslik fanlar bloki:

- soha bo'yicha maxsus bilimlarni, kasbiy faoliyat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishi;

- investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati, tasniflanishi, iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash, loyihalarni moliyalashtirish manbalari qiymatini aniqlash va loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan qarorlar qabul qilish;

- investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning an'anaviy va diskontlashga asoslangan usullarini qo'llash, muqobil investitsiya loyihalaridan eng samarali investitsiya loyahasini tanlab olish,

investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida inflyasiyaning ta'sirini baholash, loyiha samaradorligiga ta'sir qiluvchi risklarni aniqlash, ularning loyihaga ta'sir doirasini baholash hamda loyihaga ta'sir qiluvchi risklarni boshqarish;

- UNIDO tavsiyasi asosida ishlab chiqilgan investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning Project-expert, TEO-invest, Alt-Invest va boshqa dasturiy komplekslari asosida investitsiya loyihalari samaradorligini baholash va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish;

- kapital qurilish sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini, kapital qurilishda loyihalashtirish, qurilishning smeta qiymatini aniqlash, kapital qurilishda tender savdolarini tashkil etish, kapital qurilishni olib borish usullari hamda kapital qurilishni moliyalashtirish;

- moliyaning mazmun-mohiyati, moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlari, moliyaviy nazorat va moliyaviy risklarni boshqarish usullarini bilishi;

- pul va bank nazariyasi, amaliyoti va tadrijiy rivojlanish bosqichlari hamda istiqbolini markaziy bank va tijorat banklarining funksional maqsadi va tashkiliy tuzilishini bilishi, aktiv va passiv bank operatsiyalarini qo'llay olishi;

- korporativ tuzilmalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish va boshqarish mexanizmi, loyihalarni moliyalashtirish manbalari va investitsiya faoliyatini tashkil etish, moliyaviy risklarni boshqarishni bilishi;

- ta'lim yo'nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki:

- ta'lim yo'nalishi talabalarining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va iqtisodiy jarayonlar jadal o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fan dasturlarining moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim.

Tanlov fanlari:

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan

holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar Oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan belgilanadi.

5232700 – *“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.*

5232700 – *“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” bakalavriat ta'lim yo'nalishida malakaviy amaliyot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:*

- o'quv-tanishuv;
- ishlab chiqarish;
- bitiruv oldi.

O'quv-tanishuv amaliyoti – talabalarni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari faoliyati bilan umumiy tarzda tanishtirish maqsadida amalga oshiriladi. Xususan, mazkur Vazirlikning bo'linmalarida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi.

Bu jarayon:

-O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar;

-“O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo Vazirligi to'g'risida”gi qaror;

-O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari;

-hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlari;

- investitsiya loyihalarini shakllantirish, kelishish va monitoringini olib borish;

-mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

-ustuvor va istiqbolli investitsiya loyihalari va texnik ko'mak vositalarini (grantlarni) jalb etish dasturlari;

-O'zbekiston Respublikasi hududida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish dasturlari;

-mamlakat investitsiyaviy salohiyati yuzasidan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan dasturlar.

Ishlab chiqarish amaliyoti – ixtisoslik fanlari bloki tarkibidagi fanlardan o'tkaziladi. Ta'lim yo'nalishi talabalarida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini qaror toptirish

maqsadida o'zlashtirgan bilimlarini amaliyot bilan uzviy bog'liqlikda mustahkamlashini ta'minlashga qaratilgan.

Ishlab chiqarish amaliyoti:

- iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash;
- investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning dasturiy komplekslaridan foydalanish;
- investitsiya loyihalari bo'yicha tanlovlarni o'tkazish;
- loyiha samaradorligiga ta'sir qiluvchi risklarni aniqlash va ularning loyihaga ta'sirini baholash hamda ularni boshqarish;
- loyihalarni moliyalashtirish manbalari qiymatini aniqlash va ularni moliyalashtirish yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- investitsiya loyihalari monitoringi bo'yicha ko'nikmalarni egalashiga qaratilgan.

Bitiruv oldi amaliyotida talaba bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy ishlanmalarni o'rganish jarayonida orttirgan tadqiq manbalarini amaliy, statistik ma'lumotlar bilan asoslashi, innovatsion iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida soha muammolarini aniqlashi hamda ularning aniq yechimini ishlab chiqish ko'nikmasini orttirishi, bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir ma'lumotlar, materiallar va boshqa manbalar bazasini shakllantirishi nazarda tutilgan.

Bunda:

-bitiruvchini bevosita malaka talablariga muvofiq mustaqil ishlashga tayyorlash;

-o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash;

-jamoada tashkilotchilik va rahbarlik tajribasini orttirish;

-iqtisodiyot subyektlarida investitsiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy faoliyat orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish, tahlil qilish, ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish yuzasidan zarur ko'nikmalar shakllantiriladi.

Malakaviy amaliyotni o'tash muddatlari o'quv rejasi grafigida muvofiqlashtirilgan. Uning yakunida talaba dastur doirasida bajargan ishlari bo'yicha hisobot tayyorlaydi hamda kafedra tarkibidan shakllantirilgan komissiya oldida uni himoya qiladi.

Talabaning ilmiy-tadqiqot ishi unda kasbiy kompetensiyani shakllantirish va mustahkamlashga ko'maklashadi. Bitiruvchi kafedraning ilmiy faoliyatida faol ishtirok etishi, kurs ishlari, malakaviy amaliyot maqsadli bajarilishi va uzviy ravishda bitiruv malakaviy ishining asosiy manbasi bo'lishini nazarda tutadi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish yuzasidan quyidagi shart-sharoit ta'minlanishi kerak:

-ilmiy ishlarning mavzulari ro'yxati bilan talabalarni o'z vaqtida xabardor qilish;

-kadr tayyorlovchi fakultet (kafedra)ning ilmiy mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi uchun talabalarni belgilangan me'yor darajasida ta'minlash;

-Oliy ta'lim muassasasining axborot resurs markazida mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

-talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalarini tashkil qilish.

Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan talablar:

Talabalarning bitiruv malakaviy ishi mavzusi Oliy ta'lim muassasasi buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari sohaning rivojlanish strategiyasi, shuningdek, fan-texnologiyalar va iqtisodiyotdagi o'zgarishlar hamda kadrlar buyurtmachilarining talablarini inobatga olgan holda Oliy ta'lim muassasasining bakalavrlar tayyorlovchi kafedrasini tomonidan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish mavzulari ilmiy-nazariy yoki nazariy-amaliy yo'nalishida bo'lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ish topshirig'i uchinchi kursning ikkinchi yarim yilligi davomida talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda mavzularning tanlovi amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishi malaka talabida belgilangan vaqt davomida bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni, hajmi va tuzilmasiga bo'lgan talablar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazish haqidagi Nizom asosida kafedra tomonidan belgilanadi.

Ilmiy ish boshqa har qanday ishdan o'zining maqsadi – yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonida voqelik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi.

Biroq fanda qandaydir bir yangi ilmiy faktni aniqlash kamlik qiladi, unga fan pozitsiyasidan turib izoh berish, uning umumiy bilishga

oid, nazariy yoki amaliy ahamiyatini ko'rsatish, shuningdek ilgari ma'lum bo'lmagan yangi jarayonlar va hodisalarni oldindan ko'ra bilish talab etiladi.

Ilmiy ish bu avvalo qat'iy rejali faoliyatdir. Garchi fanda tasodifiy kashfiyotlar qilinish tursa-da, lekin faqat rejali, zamonaviy vositalar bilan puxta qurollangan ilmiy tadqiqot tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon beradi. Shundan keyin avval-boshdagi fikrning aniq maqsadni ko'zlab ishlanishini davom ettirish, oldindan mo'ljallangan tadqiqot sxemasini aniqlashtirish, o'zgartirish, unga qo'shimchalar qilish jarayoni kechadi.

Ilmiy tadqiqotlar bilishning ilmiy tamoyillari yordamida konkret obyektни o'rganish maqsadida olib boriladi. Ushbu sohada ilmiy yo'nalish, ilmiy muammo va ilmiy mavzu kabi tushunchalar mavjud.

Ilmiy tadqiqot ishlariga kirishishdan oldin uning metodlarini, shakllarini, vositalarini to'g'ri tanlab olish va metodikani ilmiy asoslash lozim. Ilmiy tadqiqotlar muammoni yuzaga chiqarish, mavzuni tanlash va ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni obyektiv tahlili uchun axborotni izlashdan boshlanadi. Axborotni izlashdan so'ng ilmiy izlanishlarga o'tiladi, ya'ni ilmiy ijodga kirishiladi. Bunda shaxsning evristik faolligi yangi nazariyani yaratishga olib keladi.

Ilmiy tadqiqot – fanning mavjudlik shaklidir. Fanning rivojlanishi dalillarni yig'ish, o'rganish va tizimlashtirish, mantiqan tekis ilmiy qonunni yaratish maqsadida ayrim va alohida qonuniyatlarni umumlashtirish va ochib berishdan boshlanadi. Bilishning alohida pog'onalarining dialektikasi tadqiqot faoliyatining turli shakllarini taxmin qiladi. Ular esa shartli ravishda axborotli va ilmiy izlanishlarga bo'linadi. Ushbu shakllarga ilmiy bilishning ikki darajasi ya'ni empirik va nazariy darajasi mos keladi. Empirik daraja bosqichida ma'lumotlar to'planadi, nazariy daraja bosqichida ular ilmiy nazariyaga sintez qilinadi.

Ilmiy tadqiqot. Uning umumiy maqsadi quyidagi ehtiyojlarga javob beradigan nazariyani qurishdan iborat:

1) faktlarni tahlil etish, tasniflash va bir tizimga solish (sintez qilish);

- 2) real olamning aniq faktlarini talqin qilish va anglab olish;
- 3) yangi natijalarni oldindan aytib berish va hodisalar rivojini bashorat qilish.

Nazariya va amaliyot.

Nazariya bilan amaliyot o'rtasida metodologiya va uslubiyot orqali amal qiladigan murakkab munosabatlar qaror topgan bo'lib, ularni quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin.

Metodologiya – bu ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ilmiy tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta'limot.

Bilish jarayonida metodologiya tadqiqot obyektiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi va bilish natijalarini oldindan belgilab beradi.

Tadqiqot uslubiyoti (texnologiyasi) – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarini qo'llanish va ular yordamida olingan natijalarni talqin qilish qoidalari tizimi.

Uslubiyot o'rganiladigan obyekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga, ishlab chiqilgan uslublar, tadqiqotchi malakasining umumiy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot uslubi bu muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimidir.

Yo'nalish olish – tadqiqotni amalga oshirishning predmetli sohasini ajratish.

Muammolarni belgilash – muammoni – hozirgi vaqtda javobi bo'lmagan aniq masalani aniqlash va idrok etish, tadqiqot maqsadini qo'yish.

Uslublarni belgilash – tadqiqot uslublari, uslubiyotlarini tanlash va asoslash.

Tadqiqot chegaralarini aniqlash va tadqiqot materiallarini tanlash tamoyilini belgilash.

Rejalashtirish – tadqiqotning izchil vazifalarini ifodalash; tadqiqotni o'tkazish uchun amallar izchilligini taqsimlash.

Material yig'ish yoki eksperiment o'tkazish – empirik materialni yig'ish; eksperimentni qo'yish va o'tkazish; olingan ma'lumotlarni dastlabki tizimga keltirish.

Tahlil – ma'lumotlarning umumlashtirilishi, qiyoslanishi, tahlil etilishi, talqin qilinishi.

Refleksiya – o'zining xulosalarini olingan xulosalarga, tadqiqotni o'tkazish jarayoni, ilgari mavjud bo'lgan bilimlar va ma'lumotlarga muqoyasa qilish.

Bakavrlar to'rt yillik o'qishi davomida yozgi ta'til davrida birinchi va ikkinchi kursni yakunlagandan keyin tanishuv amaliyotiga, uchinchi kursni yakunlagach ishlab chiqarish amaliyotiga, to'rtinchi kursni yakunlagach malakaviy amaliyotga korxonalar va tashkilotlarga boradilar. Amaliyotning maqsadi "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" ta'lim yo'nalishi talabalarining mutaxassislik fanlardan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliyot bilan mustahkamlash, tegishli ishlab chiqarish jarayonlaridagi texnologiyalarni (ishlarni) bajarish, hamda sohada faoliyat yuritishga oid ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

Amaliyotlari maqsadini amalga oshirish asosida talabalar tomonidan quyidagi vazifalarni hal etish belgilanadi:

- nazariy bilimlarni amaliy bilim va ko'nikmalar orqali boyitish va kasbiy faoliyat bo'yicha orttirilgan bilimlarni chuqurlashtirish;

- sohada faoliyat yuritishga oid ko'nikmalarni shakllantirish;

- amaliyot o'tashda zaruriy materiallarni to'play olish, ulardan unumli foydalanish hamda tizimlashtirish;

- amaliyot o'tash natijasida olingan moliyaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va omilli bog'liqlikda xulosalar yasash;

- amaliyot o'tash natijalari asosida hisobotni sifatli tayyorlash va unda aks etgan materiallarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish.

"Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" ta'lim yo'nalishi talabalarining tanishuv amaliyotini tashkil etish jarayoni, hisoboti himoyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomi hamda "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida"gi Nizom talablari asosida tashkil etiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'limning amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarida, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning ta'lim yo'nalishlari kesimida ro'yxati tizimlashtirilgan holda keltirilgan, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti – muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi ishlab chiqilgan va takomillashtirilib borilmoqda³.

Xususan, ta'lim yo'nalishlarida ta'lim jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001-yil 16-avgustdagi 343-son qaroriga muvofiq kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar doirasida oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan ta'lim yo'nalishlari malaka talablari⁴, o'quv rejaları va dasturlariga asosan tashkil etilmoqda.

Bakalavr 4 yillik ta'lim jarayoni davomida bitiruv malakaviy ishini tayyorlaydi, rasmiylashtiradi va himoya qiladi. Shu bois ham, bitiruv malakaviy ishini sifatli tayyorlash va ilmiy saviyasini yanada oshirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi talabning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishini yakunlovchi va o'qish davrida egallagan nazariy-amaliy bilimlari asosida bajarilgan mustaqil ish hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish institut bakalavriatida talabani o'qitishning yakuniy bosqichidir.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad:

- nazariy-amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimni muayyan ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi (2001 yil 16 avgustdagi) 343-son qarorining 1-ilovasi, 3-bandning o'n birinchi xatboshisi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi 3-sonli qarori tahrirda - O'R QHT, 2015 y., 2-son, 21-modda). //manba: <http://www.lex.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori. 6. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari (6.2-bandi) nazarda tutilmoqda. manba: <http://www.lex.uz>

- ijodiy ishlash, hal etilayotgan masala (muammo)ning qo'yilish jarayonidan boshlab, uni hal etish yuzasidan qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

- zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismlari quyidagilardan tashkil topadi:

- titul varaq;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar (agar mavjud bo'lsa).

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida quyidagilar bayon etiladi:

- mavzuning dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari;
- mavzuning nazariy – amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi 3 bobdan iborat bo'lib, ularda mavzuning mohiyati nazariy-amaliy jihatdan yoritilishi, istiqboldagi takomillashuv yo'nalishlari bayon etilishi talab qilinadi. Xususan, bitiruv malakaviy ishining I bobida mavzuning nazariy asoslari, xorijiy tajriba hamda huquqiy jihatlari bayon etilishi, II bobida amaliyot tahlili, muammolari yoritilishi, III bobida mavzu yuzasidan belgilangan vazifalarni samarali hal etish, takomillashtirish yo'llari keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Bitiruv malakaviy ishining boblari o'zaro mutanosib bo'lishi va ularda mavzuga doir manbalarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili, talaba tomonidan olib borilgan o'rganish natijalari bayon etilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzu yuzasidan chiqarilgan yakuniy fikr-mulohazalar asosli ravishda berilishi talab etiladi.

Kadr tayyorlovchi kafedra bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan talablarni talabalar e'tiboriga yetkazadi.

Bitiruv malakaviy ishining har bir bob va bo‘limi muvofiq asoslar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishida ilgari bajarilgan mustaqil ilmiy ishlanmalarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ilmiy maqola va hisob-kitoblari ma’lumotlar bazasi sifatida nomlari ko‘rsatilgan holda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi 12-14 ming so‘z darajasida belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan chizma, rasmlarning shakli, shartli belgilar, shrift va masshtablar amaldagi standart talablariga qat’iy muvofiq kelishi zarur.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar bitiruv malakaviy ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirganidan so‘ng, ishni o‘z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi.

Nazorat savollari

1. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishining soha va obyektlari haqida nimalarni bilasiz?

2. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati nimalarni qamrab oladi?

3. “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qanday malaka talablari qo‘yiladi?

4. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qanday umumiy talablar qo‘yiladi?

5. Bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan talablarni sanab bering.

6. Ilmiy tadqiqot deganda nimani tushunasiz?

7. Bitiruv malakaviy ishining qanday tarkibiy qismlari bor?

IV BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

4.1. “Investitsiya” va “investitsiyalash” tushunchalari

Bugungi kunda investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Investitsiyaning iqtisodiyot rivoji uchun ahamiyati beqiyosligini inobatga olgan holda, investitsiya va u bilan bog‘liq iqtisodiy atamalarning mohiyatini yoritishni joiz, deb topdik.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun – mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Xorijiy hamda mahalliy mualliflarning iqtisodiy adabiyotlarida, shuningdek qonunchilik hujjatlarida “investitsiya” atamasi turlicha talqin etiladi.

Eng avvalo, “investitsiya” atamasiga berilgan qonuniy ta‘rif bilan tanishib o‘tsak. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrda “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qayta tahrirdagi qonunida investitsiyaga quyidagicha ta‘rif berilgan: **“investitsiyalar** – qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”⁵ sifatida ta‘riflanadi. Shunday qilib, “investitsiya” – deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmog‘lari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo‘yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

Boshqacha aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko‘rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy – ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-y 9-dekabr. 3 – modda.

Investitsiyalarga olimlar tomonidan aniq bir ta'rif berilmagan. Jumladan, prof. D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun – mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi".⁶

Prof. N.H.Haydarov investitsiyalar mazmun – mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: "Investitsiya – bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyluklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir".⁷

Iqtisodchi olimlar B.S.Mamatov, D.Yu.Xo'jamqulov, O.Sh.Nurbekovlar investitsiyani quyidagicha tavsiflashgan: "Foyda yoki ijobiy natijaga erishish maqsadida subyektlar tomonidan xarajatlar tarzida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriluvchi turli ko'rinishlarga ega boyluklarga investitsiyalar deyiladi".⁸

Rossiyalik iqtisodchi olimlar N.D.Shimshirt, V.V.Kopilyevich, E.I.Xolodova tomonidan: "investitsiyalar – daromadni ijobiy (yoki qiymatini saqlagan) miqdorini ta'minlaydigan kapitalni joylashtirish yo'li"⁹ sifatida ta'riflanadi. "Инвестиции" darsligining mualliflari, professorlar L.I.Yuzvovich, S.A.Degtyarev, Ye.G.Knyazeva, investitsiyalarni ham iqtisodiy, ham moliyaviy nuqtayi nazardan baholaydi: "Iqtisodiy nuqtayi nazardan investitsiyalar – bu sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kapitalni uzoq muddatga kiritish shaklida amalga oshiriladigan xarajatlarning yig'indisidir. Moliyaviy nuqtayi nazardan investitsiyalar kelajakda

⁶ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: Moliya. 2003. 26 b.

⁷ Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2003. 29 b.

⁸ Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod – Moliya, 2014. B. 10.

⁹ Шимширт Н.Д., Копилевич В.В., Холодова Е.И. Современная инвестиционная и инновационная политика государства : учебно-методическое пособие. Томск: ТГУ, 2016. С.5.

daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga pul mablag‘larini yo‘naltirishdir”.¹⁰

Investitsiya faoliyati investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlari majmuasi tushuniladi.

Investitsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har bir mulk egasi birinchi navbatda o‘z manfaatini ko‘zlab yagona bir maqsadga, ya‘ni foyda olishga yoki ijtimoiy samara olishga intiladi.

Investitsiya faoliyatida investitsiya subyekti, investitsiya obyekt, investor, emitent, investitsiya resurslari kabi tushunchalar mavjud.

Investitsiyaning obyekt bo‘lib, mablag‘lar ya‘ni boyliklarni safarbar etayotgan obyektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlari bo‘lishi mumkin.

Investitsiya subyekti bo‘lib, investitsiyani amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Ular: xorijiy davlatlar, halqaro tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, mulk egasi bo‘lgan fuqarolar bo‘lishi mumkin.

Investorlar – o‘z kapitalini investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyektidir.

Emitent – qimmatli qog‘ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to‘lovga qobiyatli jismoniy shaxslar.

Reinvestitsiyalar – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

Investitsiya resurslari – bu investitsion faoliyati amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko‘rinishdagi mablag‘lardir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Respublikada investitsiya faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish uchun ham hukumatimiz tomonidan bir qancha qonun va qoidalar qabul

¹⁰ Юзвович Л.И., Дегтярев С.А., Князева Е.Г. Инвестиции. Учебник. Екатеринбург: Издательство Уральского университета. 2016. С. 59.

qilingan. Ushbu qonunlar investitsion faoliyatning tartibga solinishi va muvofiqlashtirilishi bo'yicha huquqiy tizimning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari davlatning investitsion faoliyatga qanday vositalar va richaglar orqali ta'sir ko'rsatishi ham muhim masaladir. Har qanday jamiyatdagi investitsion faoliyat o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, unga albatta, muayyan ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning aralashuvi talab qiladi. Bunday aralashuvning samarali natijasini faqat davlat qo'li bilangina ta'minlash mumkin bo'ladi. Biroq bunday vaziyatda davlat investitsion faoliyatining rivojlanishini bo'g'ib qo'ymasligi kerakki, aks holda uning amal qilishi subyektivlik ta'sir kuchiga bo'ysundirilib qoladi.

Odatda, investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish uning muhim yo'nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, avvalom bor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tadbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi.

Har bir davlat investitsion faoliyatni quyidagi maqsadlarda muvofiqlashtirib turadi: bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshirilishi; davlatning fan-texnika siyosatini o'tkazish va buning asosida xo'jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqish.

Mamlakat ijtimoiy siyosatini yuritish.

Davlat tomonidan investitsion faoliyatini boshqarish bir qator chora-tadbirlarni qo'llash, ularni hayotga tadbiq etish asosida amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Soliq tizimini qulaylashtirish, ya'ni soliq subyektlarini, obyektlari va stavkalarini tabaqalashtirish va soliq imtiyozlarini berish.

2. Amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash hamda amortizatsiya imtiyozlarini berish.

3. Ayrim hududlarni, tarmoqlarni rivojlantirish maqsadga dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar orqali yordam ko'rsatish.

4. Kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish, davlat mulkini xususiyashtirish va narx-navo siyosatini o'tkazish.

5. Yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash.

6. Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish davlat dasturlariga kiritish.

7. Investitsiya loyihalarining monitoringini o'tkazish va mexanizmini ishlab chiqish.

8. Zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Shuni ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatining amalga oshirilishi zaruriy barcha shart-sharoitlarning, qulayliklarning yaratilishiga bog'liqdir. Bu investitsion iqlim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog'liq bo'lgan muhit sifatida qaraladi. Bunda investitsion muhitning ahvoli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoitlarning mavjud holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun iqtisodiy siyosatni olib borish, davlat boshqarish organlarining investitsion jarayonlarni tartibga solish, iqtisodiyotda davlatning aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etishi va chet el investitsiyalarini jalb qilishi investitsion muhitga katta ta'sir ko'rsatadi.

4.2. Investitsiya faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun-mohiyati

O'zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati natijasining qanday samara berishi mamlakatdagi investitsion faoliyatning rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli, odatda, har qanday investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad o'zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solish vazifasini ham mujassam etadi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish, odatda, quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- investorlarni rag'batlantirish;
- milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- mamlakat hududida investorlarning huquq va manfaatlarini

himoya qilish;

- lozim bo'lsa, ichki investorlar manfaatlarini, birinchi navbatda, yuzaga chiqarish va ularni himoyalash.

Davlat investitsiya faoliyatini tartibga solish bilan birga bevosita o'zi ham unda ishtirok etadi. Bunda u:

- davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish va ularni respublika byudjetidan moliyalashtirish;

- yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun to'lovlilik, muddatlilik va qaytarib berish asosida respublika byudjetining markazlashgan investitsiya resurslarini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb etilgan kreditlar uchun davlat kafolatini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarining davlat kompleks ekspertizasini olib borish;


- mahalliy va xorijiy investorlar uchun konsessiyalar taqdim etish kabilar bilan investitsiya faoliyatida qatnashadi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtayi nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarni nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha subyektlari – chet ellik investitsiyalardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquqiy nuqtayi nazardan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakat shakllari foyda olish maqsadida ko'pdan ko'p qo'shimcha risklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga solishning zaruriy asosi bo'lib, davlat qonunchiligi, huquqiy asosni shakllantirish hisoblanadi va uni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.

Odatda, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish uning muhim yo'nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, avvalom bor,

ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi.



4.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari**

Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o‘z ifodasini topadi. Investitsiya faoliyati rivojlanishining obyektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida investitsiya munosabatlarining mavjudligini tartibga solishning mustaqil predmeti bo‘lishini taqozo qiladi. Huquqiy nuqtayi nazaridan investitsiya faoliyatini tartibga solish umumiy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish me‘yorlarini qamrab oladi. Bu me‘yorlarning birligi ijtimoiy va alohida investitsiya munosabatlarini xarakteri va mohiyatini ifoda etadi hamda ularni tartibga solish usuliga aylanadi. Tartibga solish usullari huquq me‘yorlarini ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlari xarakteriga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatish yo‘llaridan iborat.

Investitsiya faoliyati predmetining ko'p ukladli iqtisodiyotini barpo etish davridagi ahamiyati bu faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunlar qabul qilinishini talab qiladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, u faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Respublikada ko'p qamrovli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: ijtimoiy va xususiy manfaatlarni; ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yakka investorlar manfaatlarini to'g'ri aniqlash; ularning o'zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish; ularni hayotda ro'yobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilash.

Ma'lumki, investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog'liq bo'lib, odatda, soliqlarning fiskal (xazinani to'ldirish) va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- investorlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslarni yaratish, mustahkamlash, takomillashtirib borish;
- pul-kredit siyosati orqali;
- valyuta siyosati orqali;
- amortizatsiya siyosati orqali;
- narx siyosati orqali;
- dotatsiyalar, subsidiyalar tizimi orqali;
- byudjet-soliq siyosati, jumladan, fiksalsiyosat, turli soliqlardan imtiyozlar berish, soliq kreditlari orqali;
- davlat kafolatlari tizimi orqali;

- chet ellik va mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish orqali;

- ayrim tarmoq, soha, hududlar va ulardagi obyektlarni davlat o'z nazoratida saqlab qolish, investitsiyalash orqali va shu kabilar.

Har bir davlat investitsiya faoliyatini quyidagi maqsadlarda muvofiqlashtirib turadi:

- bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib berish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishi;

- davlatning fan-texnika siyosatini o'tkazish va buning asosida xo'jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqish;

- mamlakat ijtimoiy siyosatini yuritish.

Davlat tomonidan investitsion faoliyatini boshqarish bir qator chora-tadbirlarni qo'llash, ularni hayotga tatbiq etish asosida amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- soliq tizimini qulaylashtirish, ya'ni soliq subyektlarini, obyektlari va stavkalarini tabaqalashtirish va soliq imtiyozlarini berish;

- amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan tezlash-tirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash hamda amortizatsiya imtiyozlarini berish;

- ayrim hududlarni, tarmoqlarni rivojlantirish maqsadga dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar orqali yordam ko'rsatish;

- kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish va narx-navo siyosatini o'tkazish;

- yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;

- investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va davlat dasturlariga kiritish.

- investitsiya loyihalarining monitoringini o'tkazish va mexanizmini ishlab chiqish.

- zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Umuman, investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun

kafolatlar berish, u faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi, shuningdek, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.¹¹

4.3. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonunining qabul qilinishi

Mamlakatda investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizmini tashkil etuvchi muayyan huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi, “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi yangi tahrirda, “Chet ellik investorlar huquqlarning kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Bu qonunlarda investitsion munosabatlarga taalluqli barcha jarayonlarga va tushunchalarga aniqliklar kiritilgan. Investitsiya faoliyatining subyektlari va obyektlari, investitsion faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinish masalalari, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari kabilar aniq belgilab berilgan.

Biroq, bu kabi mamlakatda investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonuniy-huquqiy bazaning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanganligini belgilamaydi. Bugungi kunda mamalakatda investitsion muhitni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www. president.uz. 28.12.2018

amalga oshirmoq zarur. Davlat mazkur qonunlar doirasida investitsion faoliyatning turli subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tartibning qanday o'rnatilganligiga qarab u yoki bu mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligini aniqlab olish mumkin.

O'zbekistonda investitsion munosabatlarni tartibga solishning yaratilgan qonuniy asoslari mos ravishda tadbirkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan to'ldirilib borilmoqda.

"Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun O'zbekistonda tadbirkorlikni faoliyat ko'rsatishning va rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy erkinliklarini kafolatlashni aniqlab berdi. Shuningdek, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Bu qonun tadbirkorlarning boshqa korxonalar, tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi va mulkchilik shakllarini erkin tanlashni, xo'jalik yuritishni, faoliyatni teng huquqli asosda amalga oshirishni, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatni ta'minlashni o'z ichiga oladigan shartlarning shakllanishiga yordam beradi.

"Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonun Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartiblarini belgilab beradi hamda tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining mulklarini, mulkchilikning qanday shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, manfaatlarini va huquqlarini xalqaro huquqning qabul qilingan umumiy me'yorlariga muvofiq ravishda himoya qilishni ta'minlaydi. Bu qonun O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga uyg'unlashishi uchun huquqiy asosni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlari investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilikning yadrosini tashkil qiladi.

Ular O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalarni

amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaratish, chet el sarmoyalari soliq tartiblarini belgilab beradi, xorijiy investorlarning samarali faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi va Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish, uni jahon xo'jalik aloqalariga kiritish maqsadida chet el moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarni jalb etishga va ulardan foydalanishga qaratilgan.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonunning asosiy vazifalari – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga va uning xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish yo'li bilan jahon xo'jalik tizimiga uyg'unlashuviga ko'maklashishdan, shuningdek, xorijiy moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa zaxiralarni, zamonaviy texnologiyalarni va boshqaruv tajribalarini jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlarning ma'lum kategoriyalarini himoya qilish chora-tadbirlari va ularni kafolatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qonunning asosi hisoblanadi.

Mazkur qonunning 3-moddasida, davlat boshqaruv idoralari va davlat hukumat organlari joylarda chet el investitsiyalarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan xo'jalik faoliyatlariga aralashish huquqiga ega emaslar, deb aytilgan.

Qulay investitsion muhitni yaratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari tarkibida eng muhimi O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, investitsiya faoliyatining subyekti yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini

talab qilish huquqiga egadir. Investitsiyalar bilan bog'liq nizolar (investitsiyaga oid nizolar) sud tomonidan hal etiladi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar amalga oshirilishining huquqiy asoslari va tartibini belgilab berishdan iborat. Ushbu qonunning asosiy vazifalari bo'lib:

- xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga ko'maklashish;

- xorijning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy xorijiy texnologiyalarni va boshqaruv tajribasini jalb etish hamda ulardan oqilona foydalanishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunining maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralari belgilab berishdan iborat bo'lib, uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish bo'yicha kompleks choralarni shakllantirish;

- xorijlik investorlar va xorijiy investitsiyalarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha kafolatlar berish shart-sharoitlarini va ularni himoya qilish choralari belgilash.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi "Chet el investitsiyalari to'g'risida"ga qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida xorijlik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin: chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;

davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar; chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar; chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Xorijlik investorlar va xorijiy investitsiyalar uchun adolatli va teng huquqli rejimda ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Xorijiy investitsiyalarning huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlarini himoya etish maqsadida iqtisodiyot va faoliyatning muayyan sohalarida xorijiy investitsiyalar uchun cheklashlar yoki taqiq nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Xorijlik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar va xorijlik investorlarning tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

4.4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining tashkil etilishi, tarkibiy tuzilmasi, uning asosiy vazifalari va funksiyalari

Investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda yagona davlat investitsiya siyosatini

shakllantirish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblangan Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tashkil etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 31-mart kuni shu haqidagi farmoni imzoladi.

Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksi" tarkibiga kiradi.

Ushbu davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish maqsadida tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi yagona davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilangan:

- mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalar kiritish hajmini kengaytirishni rag'batlantirish, respublikada investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yagona davlat investitsiya, jumladan, xorijiy investitsiyalar jalb qilish siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini kengaytirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada

takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining yillik Investitsiya dasturlari va hududiy investitsiya dasturlarini, jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va monitoring qilishda ishtirok etish, xorijiy investitsiyalar, kreditlar va moliyaviy-texnik ko'maklashishga qaratilgan mablag'larni jalb etish uchun investitsiya takliflari bo'yicha yagona bazasini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, chet el banklari, jamg'armalari, agentliklari, kompaniyalari va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan investitsiya sohasidagi hamkorligini o'zaro manfaatli asosda rivojlantirish va hamkorlik yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash va amalga oshirish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va chet el investorlari bilan investitsiya sohasidagi hamkorlikni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari, xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakillarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi xorijiy kompaniya va bank tuzilmalari bilan investitsiya sohasidagi hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalarini o'rnatilgan tartibda tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirok etish;

- tarmoq investitsiya dasturlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi kompleks dasturlar, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy sohalaridagi infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlari bilan bog'liq investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar, avvalambor to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, kreditlar va moliyaviy-texnik ko'maklashishga qaratilgan mablag'larni jalb etish;

- investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini tizimli nazorat qilish, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatini, shuningdek, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari qanday bajarilayotganini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- xalqaro tashkilotlar va xorijiy hukumatlar moliya institutlarining jalb etiladigan kredit resurslari va texnik ko'maklashishga qaratilgan mablag'lar (grantlar), O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- mamlakatimizning iqtisodiy va investitsiya salohiyati to'g'risida xorijiy investorlarni keng xabardor qilish uchun O'zbekiston Respublikasida va chet ellarda xalqaro konferensiyalar, seminarlar, investitsiya forumlari o'tkazilishini tashkil etish;

- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida texnologik uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallarni xarid qilish uchun tender (tanlov) savdolari o'tkazish va ularning yakunlari bo'yicha g'oliblarni aniqlashda ishtirok etish, ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati va raqobatdoshligi, energiya va resurs tejamkorligi bo'yicha zamonaviy talablarga, ekologik standartlarga javob beradigan ilg'or texnologiya hamda uskunalar bo'yicha jahon bozoridagi vaziyatning chuqur tahlilidan, taklif etilgan narxlarning dunyo bozoridagi o'rtacha baho va yuzaga kelgan bozor konyunkturasiga mos kelishi, shuningdek, tayyor holda topshiriladigan loyihalar qiymati taklif etiladigan texnologiyaga qanchalik muvofiq ekanidan kelib chiqqan holda, tender hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tender takliflarini baholashda qatnashish, zarurat tug'ilganda, o'tkazilgan tender (tanlov) savdolari

natijalarini rad etish, tender natijalariga ko'ra tuzilgan import shartnomalarini bekor qilish bo'yicha takliflar kiritish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida sotib olinadigan uskunalar, texnika va texnologiyalar, butlovchi buyumlarning narx ko'rsatkichlari, shuningdek, tayyor holda topshiriladigan loyihalarning qiymat ko'rsatkichlariga doir import shartnomalarini tizimli asosda puxta ekspertizadan o'tkazish;

- mamlakatimiz loyiha institutlari va tashkilotlarining investitsiya loyihalari, avvalo xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalari bo'yicha loyihadan oldingi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan va me'yoriy-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, xo'jalik subyektlari tomonidan bajarilishi shart.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari va xalqaro hamda xorijiy moliya institutlaridagi doimiy vakili lavozimi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi nomenklaturasiga kiradi;

- savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilar o'z faoliyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasiga hisobot beradi;

- O'zbekiston Respublikasining savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari, xalqaro va xorijiy moliya institutlaridagi doimiy vakillari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi raisining buyrug'iga asosan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarini O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasiga iqtisodiyotning tayanch tarmoqlari va infratuzilmani

rivojlantirishga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda ilg'or texnologiyalarni, ustuvor dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun texnik ko'maklashish mablag'lari (grantlar) va imtiyozli kreditlarni jalb etish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida tahliliy materiallar, hisobotlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan investitsiya sohasidagi hamkorligini yanada mustahkamlash va kengaytirishga doir takliflarni har chorakda muntazam taqdim etib borishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining chet el kompaniya va tashkilotlari vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tkazish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasiga o'tkazildi.

2018-yilning 1-iyunidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi zimmasiga investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida texnologik uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar yetkazib berish, shuningdek, bitta shartnoma bo'yicha qiymati 100 ming AQSh dollaridan ortiq hajmdagi ishlar (xizmatlar)ning bajarilishi yuzasidan tender (tanlov) savdolari natijalarini muvofiqlashtirish, ekspertizadan o'tkazish, kelishish hamda ularga rioya etilishini nazorat qilish vazifalari quyidagilarni nazarda tutgan holda yuklatildi:

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb etilgan kreditlar (qarz mablag'lari) hisobidan moliyalashtiriladigan;

- O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan;

- ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ziyod bo'lgan xo'jalik subyektlari tomonidan xorijiy investitsiyalar (kreditlar) hisobidan tayyor holda topshiriladigan loyihalar bo'yicha xarid qilinadigan loyihalar.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, "O'zbekekspertiza" aksiyadorlik jamiyatining quyidagi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasiga o'tkazildi:

- bitta shartnoma bo'yicha qiymati 100 ming AQSh dollaridan ziyod bo'lgan investitsiya loyihalari, jumladan, tayyor holda topshiriladigan loyihalarni amalga oshirish doirasida xarid qilinadigan uskunalar, texnika va texnologiyalar, butlovchi buyumlarning narx ko'rsatkichlariga doir import shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida tender natijalari bo'yicha tuzilgan import shartnomalarini buyurtmachi bank kafolatini olganini tasdiqlaganidan keyin amaldagi qonunchilikka muvofiq ro'yxatdan o'tkazish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi birlashib, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi deb nomlangan.

Prezidentning 2019-yil 28-yanvardagi "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligini tashkil etilishi belgilangan.

Mazkur hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligining vakolatli vakillari va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining tegishli hududiy bo'linmalari negizida Vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar)dagi hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

Vazirlik yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirib, davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlari, shu jumladan, tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama o'zaro samarali hamkorlikni amalga oshiradi. Davlat organlari va tashkilotlarining, O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamda xorijiy moliya va iqtisodiy institutlardagi doimiy vakillarining, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston

Respublikasining xorijiy muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Belgilab qo'yilishicha, Vazirlik:

-yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, xorijiy, birinchi navbatda, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni muvofiqlashtirish, xalqaro moliya institutlari (boshqaruv ofislari) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va muvofiqlashtirish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblanadi;

-O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan o'rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi va O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi asosida hududlar va tarmoqlarning rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi;

-mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish doirasida vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda eksportni qo'llab-quvvatlash strategiyasini, shu jumladan, uni rag'batlantiruvchi instrumentlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

-xalqaro va xorijiy hukumat moliya institutlarining jalb qilinadigan kredit resurslari va texnik ko'maklashish vositalari (grantlari)dan, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat

maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan markazlashgan investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

-idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi, Davlat veterinariya qo'mitasi, "O'zstandart" agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati respublika markazining ichki va tashqi bozorlardagi savdo faoliyatiga ta'sir qiluvchi choralarni qo'llash qismi bo'yicha harakatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda davlat organlari vakolatlarining investitsiyaviy, shuningdek, savdo faoliyatiga ta'sir etish nuqtayi nazaridan xatlovdan o'tkazilishini ta'minlaydi va qo'llaniladigan choralarni Vazirlik bilan kelishish tartibini tasdiqlaydi.

Vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlari, shu jumladan, tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

-xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatda o'zaro samarali hamkorlikni amalga oshirish;

-davlat organlari va tashkilotlarining, O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamda xorijiy moliya va iqtisodiy institutlardagi doimiy vakillarining, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining xorijiy muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

-O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy hamkorlik masalalari borasidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirok etish;

-investorlar bilan doimiy qayta aloqani yo'lga qo'yish, investitsiyalarni jalb qilishda hududlar va mahalliy kompaniyalarga ko'maklashish, investitsiya takliflarini ishlab chiqishni tashkillashtirish;

-tashqi savdo sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, Eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimining samarali ishlashiga ko'maklashish va ta'minlash, tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

-savdoni tarif va notarif tartibga solish choralarini qo'llash hamda elektron tijorat tartib-taomillarini takomillashtirish bilan bog'liq tadbirlarni muvofiqlashtirish;

-O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash;

-O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va boshqa ko'p tomonlama iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish;

-ulgurji va birja savdolarini tartibga solish masalalarini muvofiqlashtirish, bozor holatini monitoring va tahlil qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish va tovarlar narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

-tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, tranzit salohiyati darajasini oshirish, logistika va transport yo'laklarini takomillashtirish, shuningdek, eksport marshrutlarini diversifikatsiya qilish masalalarini ilgari surish.

Farmonga ko'ra, Vazirlik investitsiya va savdo faoliyatiga, shu jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolarni o'rganishni ta'minlaydi. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, ustav kapitalida davlat ulushi ustun bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tashabbusi bilan qiymati 10 million AQSH dollaridan ortiq ekvivalentdagi investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi kelishuvlar Vazirlik bilan oldindan kelishilishi shart.

Nazorat savollari

1. “Investitsiya” va “investitsiyalash” tushunchalarini izohlab bering.
2. “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunining mazmun mohiyatini izohlab bering.
3. Investitsiya faoliyatiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni sanab bering. Investitsiya faoliyati nima?
4. Investitsiya faoliyati obyektlari va subyektlari qanday?
5. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini boshqarishda qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni sanab bering.
6. O‘zbekiston Respublikasining Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligini tashkil etilishi bo‘yicha nimalarni bilasiz?
7. O‘zbekiston Respublikasining Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

V BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

5.1. Investitsiya loyihasi tushunchasi. Investitsiya loyihalarining tasniflanishi

“Investitsiya loyihasi” tushunchasi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo‘llaniladi va u ikki xil ma‘noda talqin etiladi:

- muayyan maqsadlarga erishishni (ko‘zlangan natijalarni hosil qilishni) ta‘minlovchi qandaydir faoliyatlar yig‘indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda “xo‘jalik tadbiri”, “ish (ishlar yig‘indisi)”, “loyiha” terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi. Umumiy jihatdan, loyiha (ingl. projekt) – bu “biron nima, nima o‘ylanayapti yoki rejalashtirilayapti”, degan ma‘nolarni anglatadi¹²;

- qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “investitsiya loyiha”si ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo‘llaniladi. “Loyiha” termini birinchi mazmun bo‘yicha tushuniladi. Umuman olganda, “investitsiya loyiha”si tushunchasi uning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, investitsiya loyihasi qator umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi turli xil faoliyat ko‘rinishlarini birlashtiradi va ulardan umumiyarlari quyidagilar hisoblanadi: aniq natijalarga, aniq maqsadlarga

¹² Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пос. для вузов /Под общ. ред. И.И. Мазура. М.: Экономика, 2001. С. 18.

erishishga yo'naltirilgan; turli xil bir-biri bilan aloqador faoliyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish; vaqt davomida cheklanganligi va h.k.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo'sindagi foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda: "investitsiya loyihasi (loyiha) – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksi"¹³, sifatida tavsiflangan.

To'liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:


- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA);
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- obyektning ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va "loyiha"lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi "Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida"gi 110-sonli Qaroriga ilova.

tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi.



5.1-rasm. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari

Investitsiya loyihalarining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash (mahsulot turini kengaytirish);
- yangi mahsulot turini ishlab chiqarish;
- bozorda o'z mavqegini saqlab qolish (mahsulotini saqlab qolish);
- ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar.

Investitsion loyihalarning turlicha tasniflashlari mavjud bo'lib, belgilariga qarab investitsion loyihalarning quyidagi ko'rinishlarini ajratish mumkin.

Amalga oshirish muddati bo'yicha:

- qisqa muddatli – 1 yilgacha;
- o'rta muddatli – 3-5 yil;
- uzoq muddatli – 5 yildan ortiq.


Ko'lami bo'yicha (ko'p hollarda loyiha masshtabi investitsiya hajmi bilan aniqlanadi):

- kichik loyihalar;
- o'rtacha loyihalar;
- yirik loyihalar;
- megaloyihalar.

Asosiy yo'nalishi bo'yicha:

- tijorat loyihalar;

- ijtimoiy loyihalar;
- ekologik loyihalar;
- boshqalar.



5.2-rasm. Investitsiya loyibasining tasniflanishi

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiylik xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan holda yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagidan iborat:

- loyihani uning butun hayot sikli davomida ko'rib chiqish;
- pul oqimlarini modellashtirish, bunda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq barcha pul tushumlari va hisobot davridagi turli valyutalarni ishlatish ehtimolligini hisobga olgan holdagi xarajatlar kiritiladi;
- ishonchlilik va maksimum samara.

Investitsion loyiha investor nuqtayi nazaridan samarali deb baholanishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish ijobiy bo'lishi,

ikkinchidan, alternativ loyihalarni solishtirish chog'ida yuqoriroq samaraga ega bo'lgan loyihani ma'qul ko'rish lozim.

- vaqt omili hisobi;
- loyihani amalga oshirishdagi kutilayotgan xarajatlar va tushumlar hisobi;
- baholashning ko'p bosqichligi;
- inflyatsiya ta'siri va loyihani amalga oshirishdagi bir nechta valyutalarni qo'llash ehtimolini hisobga olish;
- noaniqlik va risklar ta'sirining hisobi;
- loyihaning turli ishtirokchilari borligini inobatga olish.

Investitsiya loyihalarini har tomonlama (xususan moliyaviy, texnologik, tashkiliy, muddati va boshqalar) xarakterlash mumkin. Bularning har biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhimdir, lekin ko'p hollarda investitsiya faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy mezonlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonini samarali olib borish, kelgusida yuqori daromad keltirib, iqtisodiyotdagi ishsizlik masalasini hal etishda ham muhim omil bo'lib hisoblanadi.

5.2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri

Investitsiya resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotlariga jalb qilish imkoniyati bo'lmagan, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechirayotgan davlatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyo mamlakatlari darajasidan ancha orqaga qolib ketishiga olib keladi. Mazkur holatning yechimi, moliyaviy mablag'lar ortiqcha bo'lgan rivojlangan mamlakatlardagi kapital resurslarni, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilish hisoblanadi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) jahon xo'jalik aloqalari globalizatsiyasi va milliylashuvida;
- 2) milliy iqtisodiyotni bir maromga keltirish va o'stirishda;

3) xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllarini tashkil qilish, strategik hamkorlikni yaratish, firmalarning o'zaro qo'shilishlarida;

4) iqtisodiyot va biznesning yangi sohalariga kapital qo'yilmalarni diversifikatsiyalashni amalga oshirishda.

Investitsiya loyihalari yordamida quyidagi vazifalar o'z yechimini topadi:

- birinchidan, ichki bozorda talabgor bo'lgan import tovarlari o'rni bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni qurish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish imkonini beradi;

- ikkinchidan, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirish va istiqbolli rivojlanishni ta'min etuvchi omil - milliy korxonalarning xususiy kapital hajmini to'ldiradi;

- uchinchidan, milliy iqtisodiyotda texnologik yangilanish amalga oshadi va milliy sanoat ishlab chiqarishiga yangi texnika va zamonaviy uskunalarni o'rnatiladi va natijada jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlaydi;

- to'rtinchidan, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kredit mablag'lari hisobidan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoni yaratiladi;

- beshinchidan, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi amalga oshadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya loyihalari quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarurdir:

- takror ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish;
- asosiy fondlarni haddan tashqari jismonan va ma'nan eskirishiga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- aniq bir korxonada mahsulotning sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash;
- tabiatni himoyalash tadbirlarini amalga oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga egalik qilish va boshqa korxonalar aktivlariga mablag'larni yo'naltirish.¹⁴

¹⁴ Хайман Д. Н. Современная микроэкономика: анализ и применение [пер. с англ.] : в 2 т. М. : Финансы и статистика, 1992. Т. 1. С. 63.

Makrodarajada investitsiyalar:

- kengaytirilgan ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda;
- mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini muvozanatli rivojlantirishda;
- sogʻliqni saqlash, madaniyat, taʼlim sohalarini rivojlantirishda;
- ishsizlik muammosini hal qilishda;
- atrof-muhitni himoyalashda;
- mamlakatning mudofaa qobiliyatini taʼminlash va boshqalarda asos hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta boʻlib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga moʻljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import oʻrnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yoʻnaltirish va pirovardida aholining meʼyordagi turmush darajasini taʼminlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali oʻsib borayotgan aholini ish joylari bilan taʼminlaydi;

- toʻrtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga koʻmaklashadi va h.k.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, yaʼni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yerosti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Oʻzbekistonda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish niyatida boʻlgan investorlar uchun mamlakatimizni jozibali qilish

maqsadida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur¹⁵.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko'rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar kapitalarining saqlanishi va himoya qilinishi qonun tomonidan ta'minlanadi. Investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi, rekvizitsiya qilinmaydi va musodara etilmaydi. Agarda investitsiya davlat mulkiga aylantirilsa yoki rekvizitsiya qilingudek bo'lsa, u holda xorijiy investorga tegishli kompensatsiya to'lanadi. Bunday tovon investitsiya qilingan valyutada yoki investorning roziligi bilan boshqa valyutada to'lanadi. Tovu to'langan vaqtga qadar investorning foydasiga foizlar hisoblanadi. Davlat va mahalliy valyuta jamg'armalari va zaxiralari bu tovon pulining manbasi hisoblanadi. Investitsiya faoliyati subyekting investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadi (foydasi) soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langach, uning xohishiga ko'ra reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin. Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www. president.uz. 28.12.2018

himoya qilish choralari hukumat tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimini yaratilishini, loyihalar amalga oshirilishida davlat monitoringi yuritilishini o'z ichiga olishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobiy samarasini bermoqda.

5.3. Milliy iqtisodiyotni ustuvor tarmoqlarida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar

Investitsiya loyihagini amalga oshirish (realizatsiya qilish) nuqtayi nazaridan moliyalashtirish muddatini va obyektни qurish (yaratish) vaqtini kelishib olish muhimdir. Obyektни ishlab chiqarish quvvatlariga yetkazish va ishlash muddatining amalga oshirilishi investitsiya loyihagini moliyalashtirish vaqti (muddati)ni shakllantiradi.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, Yevropa banklari tomonidan qo'llaniladigan kreditlashtirishning maksimal muddati 10-15 yilni tashkil qiladi. AQShda esa bu muddat kamroq 7-12 yil. Agar loyihani moliyalashtirish muddati yetarlicha bo'lmasa, u holda moliyalash tarkibini kreditlashning real imkoniyatlariga o'zgartiriladi. Shuningdek, alohida banklar ham kafil bo'lib chiqishlari mumkin. Bunday holat xalqaro kredit tashkilotlari yoki eksport-import kreditlarini sug'urtalovchi milliy agentliklar tomonidan loyiha moliyalashtirilganda ko'proq yuz beradi. Bunda sindikat-ishtirokchi banklar kreditor foydasiga akkredetiv ochishlari yoki kafolat berishlari mumkin. Bunday moliyashtirishdan foyda nima? Unda qarz oluvchi moliyalashni kamroq risk (xatar)lar bilan oladi, ya'ni kreditlar riski tijorat bankiga o'tadi.

90-yillar I yarmi jahon xo'jaligi uchun yuqori iqtisodiy o'sish darajasi bilan xarakterlanib, loyihani moliyalashtirish shakllariga katta talab uyg'otdi. 1997–1998-yillardagi moliyaviy inqirozlargacha loyihani

moliyalashtirishning jahon bozorida Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilib keldi. 1996-yilda Gonkongda 36 ta, qiymati 19,3 mlrd dollarlik, Indoneziyada 72 ta, qiymati 14,1 mlrd dollarlik, Taylandda 31 ta, qiymati 9,4 mlrd dollarlik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Umumiy 1996-yilda Osiyo mamlakatlarida 400 ta, qiymati esa 86,2 mlrd dollarlik investitsion loyihalar moliyalashtirildi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarning samarali o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi; uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi; beshinchidan korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.


2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1080 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.¹⁶

Statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak¹⁷, 2019-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 189924,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,9 %ni tashkil etdi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www. president.uz. 28.12.2018

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri keldi — 58786,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35%i, keyingi yirik manba korxonaning o'z mablag'lari bo'lib, bu manba hisobiga 39292,3 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24 %i to'g'ri keldi.



5.3-rasm. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari tarkibi (2019-yil)

2019-yil davomida quyidagi yirik investitsiya loyihalarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning yuqori o'sish sur'atlariga erishilishiga sabab bo'ldi:

- tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishga mo'ljallangan Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi qurilish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Navoiy issiqlik elektr stansiyasida 450 MVt quvvatli ikkinchi bug'-gaz qurilmasini kengaytirish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida quvvati 450 MVt dan bo'lgan ikki bug'-gaz qurilmasidan tarkib topgan jami quvvati 900 MVt

bo'lgan yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- "Navoyazot" AJ da polivinixlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Pop-Namangan-Andijon temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Pop-Qo'qon-Andijon uchastkasini elektrlashtirish bilan birga Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalarini qurilishi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- "Sharq'unko'mir" AJ ko'mir qazib olish loyihaviy quvvatini yiliga 900 ming tonnaga yetkazish uchun modernizatsiya qilish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Buxoro va Samarqand shaharlarida kanalizatsiya tizimi va tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Sirdaryo viloyati Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Sardoba va Oqoltin tumanlari aholi yashash punktlarida va tuman markazlarida suv ta'minoti tizimini takomillashtirish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm;

- Buxoro viloyati Olot, hamda Qorako'l tumanlarida ichimlik suvi ta'minoti tizimini takomillashtirish loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan hajm.

To'g'ridan to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:


- Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi;

- Xauzak va Shodi konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash, shuningdek, Quvachi Olot konlarini kengaytirish;

- Xisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida mahsulotni taqsimlash bo'yicha bitim asosida konlar bilan ishlash va uglevodorod qazib chiqarishni tashkil etish;

- AJ "Unitel" xorijiy kompaniyasi tomonidan Toshkent shahrida uyali aloqa tizimini kengaytirish;

- AJ “Indorama Agro” xorijiy kompaniyasi tomonidan Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida paxta to‘qimachilik klasterida ishlab chiqarishni tashkil qilish.



5.4-rasm. Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi (2019-yil)

Quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli hajmda o‘zlashtirildi: xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish - jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 15,7 %, ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,2 %, to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarish – 9,7 %, tashish va saqlash faoliyati – 3,4 %, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya faoliyati – 1,4 %, axborot va aloqa faoliyati – 2,0 %, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta‘mirlash faoliyati – 1,9 %.

Hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilayotgan bo‘lsada, Buxoro, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi investitsion faollik natijasida yuqori o‘sish sur‘atlari qayd etilib, mos ravishda ularning Respublikadagi ulushi oshib bormoqda.

Buxoro viloyatida Respublikadagi eng yirik investitsiya loyihasi– Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa, Surhondaryo viloyatida sement zavodi qurilishi, Qarshi-Termiz temir yo'li liniyasini elektrlashtirish, Qashqadaryo viloyatida esa Xisor investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo'lga qo'yish, sintetik suyultirilgan yoqilg'i ishlab chiqarishini taskil etish kabi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyó majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Nazorat savollari

1. Investitsiya loyihasi tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Investitsiya loyihalari qanday tasniflanadi?
3. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'rif bering.
4. Investitsiya loyihasining ijtimoiy samarasi deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirishning qanday bosqichlari bor?
6. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlari qanday?

VI BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK VA NOBANK MOLIYA- KREDIT MUASSASALARINING O'RNI

6.1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'rni

Bugungi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish deganda, investitsiya loyihagini ishlab chiqish, uni amaliyotga maqsadli tadbiq etish, ya'ni loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish, shuningdek, monitoringini olib borish xarajatlarini qoplash uchun optimal investitsiya resurslarini shakllantirish va ularning hisob-kitobini chiqarish hisoblanadi.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosan tijorat banklari, byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilib, yangi zamonaviy asbob-uskuna keltirishga, qurilish va ta'mirlash-montaj ishlariga, import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlar qurishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun chet el investitsiyalari va xorijiy moliya institutlarining kredit liniyalari hisobiga to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirishni tashkil etish lozimdir. Bu esa o'z navbatida kimyo va neft-kimyo sanoatida aktiv investitsiya siyosati olib borishni taqozo etadi.

Umumiy olganda, investitsiya resurslarini shakllantirishni uchta guruhga bo'lish mumkin:

- o'z mablag'lari;
- qarz mablag'lari;
- jalb qilingan mablag'lar.

Korxonalar investitsion loyihalarni qabul qilishi uchun ko'pchilik

hollarda ularning o'z ichki mablag'lari yetishmaydi. Shuning uchun tijorat banklari qarz mablag'lari jalb qilinadi. Investitsiya loyihalariga qanchalik ko'p mablag' sarflansa undan kutilayotgan sof foyda me'yori ham shunchalik kamayib boradi. Shu bilan birga, investitsiya loyihasiga sarflanadigan korxonada ichki mablag'lari hisobiga kutilayotgan sof foyda me'yori ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, xarajatlar va foydalilikni taqqoslash orqali kutilayotgan sof foyda me'yori qarz foizlari miqdori bilan tenglashgunga qadar investitsiya loyihalariga tegishli mablag'lar ajratiladi. Shunga ko'ra, qarzlarning bo'yicha foizlar miqdori o'zgarishi bilan investitsion xarajatlar o'zgaradi va turli hajmdagi investitsiyalarga kapital qo'yishda qarz foizlar miqdori ham belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq boshqa omillar ham borki, ular investitsiya loyihasini moliyashtirishga bo'lgan egri talab o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: investitsiya darajasi o'zgarib turishi; investitsion loyihaga sarflanadigan xarajatlar; texnik xizmat ko'rsatishlar qiymati; texnologik o'zgarishlar; kapital qo'yilmalar va ishlab chiqarish quvvatlari zaxiralari; soliq siyosati omillaridir.

Ular ta'sirida kutilayotgan sof foyda me'yori oshishi yoki kamayishi tufayli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga bo'lgan talab ham o'zgarib turadi.

Hozirgi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yangi, usuli sinditsirlashtirilgan kreditlash (sindikatang uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) paydo bo'ldi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu so'zning aniq atamasi yo'qligi sababli, ko'pchilik hollarda moliyalashtirishning bu turini sindikatlashtirilgan kredit deb ham ataladi.

Sindikatlashmoq, sindikat tuzib birlashmoq ma'nosini bildirib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish usullaridan birini anglatadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditning asosiy xususiyati shunday iboratki, bunda bir necha kreditorlarning mavjudligi, moliyalashtirish uchun berilgan kredit summasi va u bilan bog'liq risklarning ishtiroki kreditorlar (banklar) o'rtasida taqsimlanishidir.

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashtirilishi mumkin bo'lgan kreditlarga loyihaviy moliyalashtirish ham kiradi. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaytarishning manbai bo'lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan foyda hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda yirik investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish, faqatgina maqsadli moliyalashtirilgandagina samarali amalga oshirilishi mumkin. Maqsadli moliyalashtirish kredit resurslaridan foydalanishdagi o'sha javobgarlikni bartaraf etadi.

Maqsadli moliyalashning afzalligi shundaki, bunda kreditor nafaqat qarz resurslarini taklif qiladi, balki ularni qulay shartlarda tovarlar bilan ta'minlaydi.

Moliyaviy globalizatsiya davrida investitsiya loyihalarini xalqaro kreditlash jarayonida loyihaviy moliyalashtirish tobora samarali moliyalashtirish shakli bo'lib kelmoqda. Loyihaviy moliyalashtirish deganda odatda bank tomonidan investitsiya loyihagini moliyalashtirishdagi maxsus kreditlash turi tushunilib, bunda regressiz yoki qarzdorga bo'lgan kreditning chegaralangan regressida yirik investitsiya loyihalarini maqsadli moliyalash (kreditlash) tushunilib, bunda qarz oluvchining to'lov majburiyatlarining ta'minoti bo'lib, mazkur loyiha faoliyatidan olgan daromadlari hamda bu loyihaga taalluqli aktivlar hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihaviy moliyalashtirishning turli sxemalari asosida investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Bularidan biri "Yevro tunel" investitsiya loyihagini moliyalashtirishdir. Bu investitsiya loyihagiga asosan Buyuk Britaniyani Yevropa kontinenti bilan bog'lab, sof xususiy sektorlarning (hukumat va xalqaro tashkilotlar aralashuviz) investitsiyalariga barpo etilgan va loyiha qiymati 7 mlrd funt sterlingni tashkil etgan. Ushbu loyihani amalga oshirishda 198 ta bank o'z mablag'lari bilan ishtirok etgan.

Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirishda ko'pchilik loyihani moliyalashtirishning sindikat kreditlari shakliga zarurat sezmoqda. Bunda kredit bitimi shartlarini tashabbuskor bank o'rnatadi va u boshqa banklarni bu loyihani moliyalashtirishda ishtirok etishni taklif etadi.

Sindiklatlashgan kredit bo'yicha foiz summasi qoidaga ko'ra suzib yuruvchi stavkada hisoblanadi va baza qilib esa LIBOR (London Inter Bank Offered Rate – Londondagi banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavka) stavkasini olishadi va unga bank marjasi qo'shiladi.

Kreditning asosiy sharti – olingan qarz uchun haq to'lash. Bu haq olingan qarz yig'indisiga nisbatan foiz hisobida olinganidan uni qarz foizi yoki kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, kreditning foiz stavkasi berilayotgan kreditga nisbatan foizda belgilanib, kreditning narxini ifoda etadi. Kredit narxi, odatda, bir yil uchun belgilanadi. Foiz stavkasining o'sishi kreditning qimmatlashuvini, pasayishi esa uning arzonlashganini ifodalaydi. "Arzon pullar siyosati" yoki "Qimmat pullar siyosati" kabi iboralarning iste'molga kirib kelishi ham kreditning qimmatlashuvi yoki arzonlashishidan kelib chiqqan. Kredit foizi pul bozorida amal qiladi. Bozorda foiz stavkasining o'zgarishiga qarab foiz stavkasi ikki turga bo'linadi:

- qat'iy belgilangan foiz stavkasi;
- suzib yuruvchi foiz stavkasi.

Qat'iy belgilangan foiz stavkasi – zayom mablag'idan foydalaniladigan barcha davr uchun o'zgarmaydigan bir xil darajada o'rnatilgan stavkadir. Bu stavkalar kredit shartnomasi bajarilgunga qadar o'zgarmasdan qoladi. Bu tijorat banki uchun noqulay stavkadir. Bunda bank o'z aktivlarining ma'lum qismini yo'qotishi mumkin. Masalan, bank 30% stavkada bir yillik kredit berdi, deylik. Uch oydan keyin ssuda kapitali bozorida bir yillik kreditlarning foiz stavkasi 35%ga ko'tarilsa, bu zarardir.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi – bu o'rta va uzoq muddatli kreditlarga o'rnatiladigan stavka bo'lib, uning darajasi pul-kredit bozoridagi konyunkturaga bog'liq ravishda tebranib turadi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki asosiy ajralmas qismdan tashkil topadi. Birinchi qismi pul-kredit bozoridagi konyunkturaga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Uning vazifasini odatda taklifdagi kredit resurslarining banklararo stavkalari, ya'ni Londonda – LIBOR, Parijda – PIBOR, Singapurda – SIBOR, Quwaytda – KIBOR, Lyuksemburgda – LYUKSIBOR va hokazolar qo'llaniladi. LIBOR – Londondagi jahon

ssuda kapitali bozorida yetakchi erkin almashadigan valutarlar, ya'ni AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyanasi, Angliya funt sterlingi kabi valutalardagi depozitlarga to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasidir. U har kuni London vaqti bilan soat 12⁰⁰da butun dunyoga "Faynenshil tayms" London gazetasi orqali e'lon qilinadi. LIBOR eng yirik London banklari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bo'lib, unga asoslanib London banklari yevrovaluta bozorida birinchi toifali banklarga ssuda taqdim etadi. Amaliyotda LIBOR valuta turlari va muddatlari bo'yicha (1, 3, 6 va 12 oyga) tabaqalanadi. LIBORning rasmiy holda qayd etilishi mavjud emas. Yevro-valyuta bozorida operatsiyalar olib boradigan har bir yirik London banklari pul bozorida vujudga kelgan konyunkturaga ko'ra uni belgilaydi va o'zgartiradi. LIBOR odatda o'zgarib turuvchi foiz stavkalari shartlari bilan o'rta muddatli bank kreditlari berilishida bazis sifatida qo'llaniladi. Bunda LIBOR har bir kelishilgan foiz davri davomida kreditning o'zgarib turuvchi quyi chegarasi narxini belgilaydi, odatda u 3-6 oyni tashkil etadi. O'zgaruvchi stavkada bank aktivlari foizlarining o'zgarishi natijasida zararga uchramaydi. Bu stavkalarni yevrodollarli kreditlar misolida ko'rib chiqish mumkin. Aytaylik, LIBORning darajasi 6 %, bank belgilangan spred - 1 %. Demak, yevrodollarli kreditning foiz stavkasi - 7 %. Agar LIBOR 5 %ga tushdi deylik. Bunda kreditning foiz stavkasi 6 % bo'ladi. Bank bundan zarar ko'rmaydi. Chunki spred o'zgarimasdan qoladi. Bu yerda faqat LIBOR o'zgarayapti. Nominal foiz stavkasi deganda kredit shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkalariga aytiladi. U bozor joriy stavkasi deb yuritiladi. Real foiz stavkasi esa – bu inflyatsiya darajasini hisobga olgan holdagi stavkadir. Har ikkala stavka o'rtasidagi bog'lanishni J.Fisher quyidagicha ifodalagan: Real foiz stavkasi = Nominal foiz stavkasi – Inflyatsiya darajasi. Agar inflatsiyaning o'sish sur'ati foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, u holda real foiz stavkasi salbiy ko'rsatkichga aylanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida kredit narxini belgilashning "qiymat plyus" va "narx bo'yicha ustunlik" usullari mavjud. Kredit amaliyotida "qiymat plyus" usulidan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, uning asosida berilayotgan kredit summasiga bankning kredit bilan bog'liq

xarajatlarini qoplash va uning foydasini ta'minlash darajasidagi foiz belgilanadi. Ushbu usulni qo'llashda quyidagilar hisobga olinadi:

- qarz oluvchini kreditlash uchun jalb qilingan mablag'larning bankka qanchaga tushishi;
- bankning kreditni rasmiylashtirish va qaytarilishini nazorat qilish bilan bog'liq operatsion xarajatlari;
- majburiyatlarni bajara olmaslik xatari uchun bankka to'lanadigan marja;
- kreditdan olinishi kutilayotgan foyda.

Qayd qilinganlarning barchasi kredit summasiga yillik foiz asosida aniqlanishi mumkin.

6.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing tashkilotlarining o'rni

Lizing ayrim mamlakatlarda shakllanib, jahon miqiyosida juda keng rivoj topdi. Lekin davrlar o'tishi bilan bu soha bo'yicha xalqaro hamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga solishda muammolar paydo bo'la boshladi. Unga ko'ra lizing tushunchasini aniq tasniflash lozimligi talab qilindi. Inglizcha "Leasing", "Lesson" va "Lessee" atamaları o'zbek tilida to'liq o'z ifodasini topmagan. "Leasing" so'zi "ijara" ma'nosida qo'llanib kelinmoqda. Biroq lizing shartnomasi mazmuniga ko'ra, uskunalarni vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha tomonlarning kelishuvi kelib chiqiladigan va uning kelishuv muddatini tugashi bilan o'z mulkiga o'tishi uni aynan ijara tushunchasi bilan bir xil mazmunda qarashga olib kelmaydi.

Hozirgi vaqtda ham "lizing" va "ijara" tushunchalarini ta'riflashda har xil fikrlar mavjud. Buning mohiyati shundaki, mamlakatimiz amaliyotida bu ikki termin turlicha tushunchalardir. To'g'ri, "ijara", "moliyaviy ijara (lizing)", "moliyaviy lizing" va boshqa tushunchalar alohida me'yoriy hujjatlar bilan amaliyotga kiritilgan. Boshqacha qilib aytganda, ijara jarayonlarining ma'lum bir qismi xorijiy "lizing" so'zi bilan nomlanadi. Lekin albatta ularning farqlanish belgilari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 14-aprel 1999-yil qabul qilingan "Lizing to'g'risida"gi Qonunida lizing tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo'yish maqsadida mol – mulkni (lizing obyektini) oladi".¹⁸

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qo'shma lizing kompaniyasini tashkil etish haqidagi qaroriga muvofiq 1996-yilda "O'zbeklizing interneshnl AJ" tashkil etildi va o'sha yildan boshlab o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bu jamiyat yopiq turdagi aksionerlik jamiyati bo'lib xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlantirishni maqsad qilib olgan.

"O'zbeklizing interneyshtnl AJ" 4 million AQSh dollariga teng dastlabki ustav kapitaliga ega bo'lgan kompaniyadir. Uning muassislari Xalqaro moliya korporatsiyasi Malayziya Meybanki hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bo'lgan. Bundan tashqari, har bir muassis 5 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini ham ko'zda tutilgan.

"O'zbeklizing interneyshtnl AJ" kompaniyasi Respublikamizga yuqori unumdorlikka ega bo'lgan zamonaviy jihozlar va texnologiyalarni jalb qilish maqsadida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq, har biri 68 mingdan 300 ming AQSh dollariga qadar bo'lgan qiymatdagi yettita loyiha bo'yicha faoliyatini boshlagan.

Lizing kompaniyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sotib olishlarni uzoq muddatli moliyalash va texnologik asbob uskunalaridan foydalanish;
- eksport salohiyatini oshirish hamda import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga ilgor texnologiyalarni jalb etish;
- kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yuksaltirish uchun lizing xizmatlarining keng doirasini taqdim etish;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, 1999-yil 14-aprel, 2 – modda.

- lizing operatsiyalarini o'tkazish va tavsiyalar berish uslubiyatini ishlab, chiqishdir.

Zamonaviy xorijiy asbob-uskunalar olishda lizingdan foydalanish korxonaning moliyaviy holatini yetarli darajada barqaror bo'lishni talab etadi. Shuning uchun lizing loyihasini tayyorlashni uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinci bosqich – korxonada lizingga qanday asbob-uskuna olmoqchi, uni qaysi yo'l bilan qaysi transportda olib keladi, qanday o'rnatadi, ishga qanday tushiradi, xodimlarni o'qitishni hisobga olgan holda uning qiymatini aniqlaydi. Eng muhimi ushbu asbob-uskunaning raqobatbardoshligini belgilaydigan raqobat varag'ini tayyorlash ishlarini tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichda – ushbu loyiha bo'yicha hamma masalalarga-texnik, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan kelib chiqadigan masalalarga javob beradigan biznes-reja tuziladi. Bunda asbob-uskuna qancha muddatga lizingga olinish mumkinligi aniqlanadi. Lizingni moliyalashtirish qismi juda puxta tayyorlanishi hamda kompaniyaning barcha mumkin bo'lgan xarajatlarini qamrab olishini talab etadi.

Uchinchi bosqich – lizingga talabnoma va u bilan birga boshqa zarur hujjatlarni (ustav, ta'xis shartnomasi, soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan balans, biznes reja, korxonada mulk borligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar taqdim etishni ko'zda tutadi.

“O'zbeklizing interneyshnl AJ” tajribasidan lizing muddati ikki yildan besh yilgacha bo'lishi rivojlantiriladi, chunki bu yerda moliyaviy lizing o'z ifodasini topadi. Lizing muddati tugagach asbob-uskuna lizing oluvchining mulkiga aylanadi va uni qaramog'iga o'tadi. Alohida shuni ta'kidlash joizki, bunda asbob-uskunani tanlash javobgarligi lizing kompaniyasi zimmasida bo'lmaydi. Ushbu masalada mijozlarga maxsus bozor tuzilmalari “Texnoinvest” qo'shma korxonasi muassislardan biri bo'lmish tashqi savdo faoliyati sifati va ekspertizasini nazorati bo'yicha jahon yetakchisi Shvetsariyaning SGS kompaniyasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va savdo palatasi, injiniring va konsalting firmalari yordam ko'rsatadilar.

“O‘zbeklizing interneysnl AJ” – O‘zbekiston bozorida birinchi yirik xalqaro lizing kompaniyasi, shuning uchun ham ushbu kompaniya misolida lizing operatsiyalarini o‘tkazishning xalqaro tajribasini - dastur mahsulotlarini ishlatishi, lizing loyihalarini tayyorligi va monitoringini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Odatda, xorijiy asbob-uskuna ishlab chiqaruvchining omborida bo‘lmaydi, uni talab asosida tayyorlash ko‘zda tutiladi. Buning uchun esa oldindan to‘lov o‘tkazilishi xorijiy bankda akkreditiv ochilishi lozim bo‘ladi. 1-1.5 oyda ishlab chiqarishga, bir oyga yaqin vaqt ichida transportda tashib keltirishga, yana shuncha vaqt montaj qilishga, ishga tushirish va xodimlarni o‘qitishga ketadi. Umumiy hisobda 4-5 oy kerak bo‘ladi. Jami ushbu muddat davomida narx Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ekspertizasiga mos kelishini ko‘zda tutish zarur bo‘ladi. Bundan tashqari loyihani tanlashga, biznes rejani tayyorlashga, shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishga ketadigan vaqtni ham inobatga olishga to‘g‘ri keladi.

Kompaniyaning ishni tashkil etishdagi asosiy vazifasi – bu eng barqaror, to‘lovga qobiliyatli, boshlang‘ich kapitalga ega korxonalarni tanlashdir. E‘tiborni o‘ziga jalb etadigan narsalardan yana biri bu loyihani mahalliy xomashyo bilan ta‘minlanishidir. Eng asosiysi, bozorda jiddiy marketing tekshiruvining mavjudligi va ishlab chiqarilgan mahsulotning haridorgir bo‘lishidir.

6.3. Xalqaro moliya-kredit muassasalari mablag‘lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1945-yilda tashkil etilgan va unga 186 ta mamlakat a‘zo. XVFning maqsadi a‘zo mamlakatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to‘lov balansini tartibga solish va valyuta kursining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to‘lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o‘z a‘zolarini moliyalashtiradi, ularning xo‘jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko‘rsatadi.

Oxirgi o'n yilda XVFnning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi. Qarzarlar a'zo mamlakatlar badallaridan tashkil topgan umumiy resurslar hisobidan hamda SDR shartli birliklaridagi maxsus hisobdan berilishi mumkin.

Kreditlarni berish va qaytarish to'lov balansi muammosining xususiyatlari hamda holatlariga bog'liq tarzda farqlanib, quyidagilardan iborat:

6.1-jadval

XVF kreditlash shartlari

Kreditlash mexanizmi yoki siyosati	To'lov shartlari	Muddati (yil hisobida)		
		Eng uzoq	Kutilayotgan	Davriylik
"Stend-bay" krediti	Asosiy stavka + marja	3,25-5	2,25-4	Har kvartalda
Kengaytirilgan kreditlash	Asosiy stavka + marja	4,5-0	4,5-7	Har yarim yilda
Qoplovchi moliyalash	Asosiy stavka	3,25-5	2,25-4	Har kvartalda
Favqulodda yordam	Asosiy stavka	3,25-5	—	—
Qo'shimcha zaxiralarni qoplash	Asosiy stavka + marja	2,5-3	2-2,5	Har yarim yilda
Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash	Yillik 0,5%	5,5-10	-	-

"Stend-bay" kreditlar. XVF kreditlash siyosatining asosini tashkil etadi. "Stend-bay" krediti to'g'risidagi shartnomaga asosan a'zo mamlakatlar to'lov balansida qisqa muddatli muammolarni bartaraf etish uchun odatda 12 – 18 oyga belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega.

Kengaytirilgan kreditlash mexanizmi. XVF kengaytirilgan kreditlash mexanizmi bo'yicha a'zo mamlakatlar belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo'lib, odatda, uch-to'rt yilga taqdim etiladi.

Ushbu mexanizm asosida ajratilgan mablag'lar a'zo mamlakatlarda to'lov balansi holatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tuzilmaviy xususiyatga ega muammolarni bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mexanizmi.

- Qo'shimcha zaxiralarni moliyalash mexanizmi.

- Qoplovchi moliyalash 1963-yilda joriy etilgan bo'lib, jahon bozorlarida tovar xomashyo narxining o'zgarishi natijasida eksport tushumi kamomadi hosil bo'lgan yoki oziq-ovqat importi qiymatining o'sishiga duch kelgan mamlakatlarga taqdim etiladi.

Favqulodda yordam. Ushbu tartib favquloddagi holatlar tufayli to'lov balansida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda a'zo mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1962-yilda joriy etilgan. 1995-yilda a'zo mamlakatlarda harbiy mojarolar tufayli ularning institutsional va ma'muriy salohiyatiga putur yetkazilgani sababli mazkur tartibni qo'llash miqyosi yanada kengaytirilmoqda.

6.2-jadval

Jahon bankining O'zbekistonda amalga oshirgan yirik loyihalari (mln. dollar)

Loyiha nomi	Loyiha hajmi
Salomatlik-2	39,48
Drennaj, irrigatsiya va tuproq hosildorligini oshirish	74,55
Buxoro va Samarqand shaharlarida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	40,0
Qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash	36,14
Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish	65,54

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) – Umumjahon banki guruhining asosiy tashkiloti bo'lib, o'rta va kam daromadli, to'lov qobiliyatiga ega mamlakatlar hukumatlariga qarz beradi. XTTB 1944-yilda tashkil etilgan va hozirda a'zo mamlakatlar soni 186 tani tashkil etadi.

XTTBning maqsadi – a'zo-mamlakatlar iqtisodiyotini qayta tiklashga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish, investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berishdan iborat.

XTTB, odatda, 5 yillik imtiyozli davr bilan 20 yilgacha muddatda uzoq muddatli kreditlarni beradi. Bankning resursi ikki manbadan shakllanadi. Shu jumladan, asosiy qismi moliya bozorlarida turli xil qarz majburiyatlarini joylashtirishdan shakllanadi.

XTTB a'zo mamlakatlarga hukumat kafolati asosida qarz beradi. Qarzni odatda 10-15 yil muddatga 5 yil imtiyozli davr bilan ajratiladi. XTTBning foiz stavkasi har 6 oyda o'zgaradi va o'rtacha 7% atrofida belgilanadi. XTTB ustaviga muvofiq aholi jon boshiga 5055 dollargacha YaIM to'g'ri keladigan mamlakatlargina bankdan qarz olish huquqiga ega. Yirik taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, bankning 5 ta eng yirik aksionerlari qarz olishi mumkin emas. Jahon banki qariyb 70 yillik faoliyati mobaynida 140 ta mamlakatda qiymati 300 mlrd dollarga teng 6 mingdan ortiq loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etgan. Ushbu bank tomonidan O'zbekistonga ajratilayotgan kreditlar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jumladan, xususiylashtirish, moliya sektorini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga yo'naltirildi.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) – 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, unga a'zo mamlakatlar soni 169 tani tashkil etadi. XTA uzoq muddatga foizsiz, kredit ko'rinishida qarz va deyarli bozor shartlari bo'yicha qarz olish imkoniga ega bo'lmagan dunyoning eng past daromadli 82 ta mamlakatlariga grantlar beradi. XTA kredit operatsiyalarini donor mamlakatiga badallari, XTTBning sof foydasini o'tkazish, XMKning grantlari va uyushma tomonidan ajratgan kreditlaridan keladigan tushumlar hisobiga moliyalashtiriladi.

XTAning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdan iborat bo'lib, zaxiralashtirilgan kredit mablag'larining jami hajmi 207 mlrd. dollarga yetgan. XTA kreditlari 10 yillik imtiyozli davrni qamrab olgan holda 35 – 40 yilga beriladi. Kreditlar hajmi SDRda aks ettiriladi, lekin moliyalashtirish

loyiha xarajatlari amalga oshiriladigan valyutada beriladi. Olingan qarz bo'yicha foiz hisoblanmaydi, ammo kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishdan kreditning 0,75% miqdorida komissiya haqi olinadi. Jahon hamjamiyati XTAni kam rivojlangan mamlakatlarga yordam beruvchi eng samarali tashkil etilgan moliya instituti sifatida tan oladi.


Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy sektorini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. A'zo mamlakatlar soni 182 tani tashkil etadi. **XMKning asosiy vazifasi bo'lib**, rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investor va moliya institutlariga kapitalni samarali joylashtirishga ko'maklashishda vositachilik qilish hisoblanadi. XMK bozor holatiga yaqin shartlar bo'yicha 12 yil imtiyozli davr bilan 3 yildan 15 yilgacha qarz beradi. Qariyb 80% passivlari moliya bozorlaridan jalb etiladi, qolgan 20%i esa XTTBdan qarzga olinadi. Odatda, XMK boshqa investorlar ishtirokidagi loyihalarni moliyalashtiradi, uning ulushi 25-35%ni tashkil qiladi. Birgalikdagi moliyalashtirish XMK faoliyatining o'ziga xos jihati bo'lib, qarz berishdan tashqari, xususiy korxonalar kapitaliga ham pul qo'yishni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA) – 1988 yilda a'zo mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishda ko'mak berish maqsadida tashkil etilgan. Hozirda agentlikka 174ta mamlakat a'zo bo'lib, jami ajratilgan kafolatlari hajmi 20,9 mlrd dollarga teng. Agentlik tomonidan 2009-moliya yilida 26 ta loyiha bo'yicha 1.4 mlrd dollar miqdorida kafolatlar berilgan.

Ushbu agentlik rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan TTXIni rag'batlantirish maqsadida siyosiy risklardan sug'urtalash yoki kafolatlash xizmatlarini taklif etadi.

Investitsion nizolarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID) – 1966-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi xorijiy investorlar va investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelgan xalqaro investitsion nizolarni arbitraj ko'rib chiqish va tartibga solish mexanizmini ta'minlab berishdan iboratdir. Bundan tashqari ushbu

markaz xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilik aktlari va xalqaro nizolarni arbitraj tartibga solish sohasida tadqiqot ishlarini olib boradi.



6.1-rasm. Mintaqaviy rivojlanish banklari

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki YeTTB – 1991-yilda tashkil topgan va unga 56 ta mamlakat a'zo. YeTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha islohotlarni o'tkazishda ko'maklashadi.

Bank uchun xususiy sektor rivojlanishi, xususiylashtirish jarayoni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliya muassasalari hamda sanoat sektorini tashkil etish va mustahkamlash, kichik biznesni rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor loyiha va dasturlar bo'lib hisoblanadi. Bank xususiy va xususiylashtirilgan korxonalar taklifi homiylik salohiyati yuqori bo'lishi va biznes rejalarining ishonchli bo'lishini talab qiladi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – 1966-yilda tashkil topgan va unga 57 ta mamlakat (41 ta hududiy va 16 ta hududdan tashqari mamlakatlar) a’zo. OTBga a’zolik BMTning Osiyo va Tinch okeani bo’yicha iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo’yicha komissiyasidagi barcha mamlakatlar va Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlari (agar ular BMT yoki uning ixtisoslashgan agentliklariga a’zo bo’lsalar) uchun ochiq. A’zolikda mavjud bunday keng imkoniyatlar OTBda Osiyo mintaqasidan tashqari mamlakatlar ulushining ortishiga olib keldi, ularga bank aksiyalarining qariyb 37%i va ovozlarning 35%i to’g’ri keladi.

OTBning maqsadi Osiyo qit’asidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishda ko’maklashishi, hududiy hamkorlikni rag’batlantirish, a’zo-mamlakatlarga texnik yordam ko’rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalarni xalqaro miqyosda tartibga solishda mintaqaviy moliya institutlari ham muhim rol o’ynaydi.

Bundan tashqari OTB va O’zbekiston o’rtasidagi istiqbolli hamkorlik temir va avtomobil yo’llari tarmog’ini rivojlantirish, qishloqlarda suv ta’minoti tizimini takomillashtirish ishlarini faollashtirishni nazarda tutadi.

Yurtboshimiz 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasida Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo’ljallab tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2 milliard 200 million AQSh dollari miqdorida mablag’ yo’naltirilishi ko’zda tutilayotganini alohida qayd etdi.

Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston bilan hamkorlikdagi aloqalari

Loyihaning nomi	Hajmi mln. doll	Loyihaning qisqacha tavsifi
Qishloq xo'jalik korxonalarini rivojlantirish	50	Qishloq joylaridagi kichik biznes korxonalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash. Moliyalashtirish 28 ta investitsion loyiha bo'yicha amalga oshirilmoqda.
Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani infratuzilmasini rivojlantirish va xo'jaliklarini qayta tarkiblash	36	Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish hamda fermerlarning paxta va bug'doy yetishtirishdan oladigan daromadlarini barqarorlashtirish. Ushbu loyiha sinov loyihasi bo'lib, keyinchalik uni mamlakat miqyosida joriy etish ko'zda tutilgan.
Don ekinlarining hosildorligini oshirish	26	Bug'doyni yetishtirish, qayta ishlash, sotishning tejamli va barqaror tizimlarini rag'batlantirish. Loyiha 217 ming qishloqdagi uy xo'jaligiga foyda keltiradi, shularning 35%i kam ta'minlangan oilalardir.
Amu-Zang kanali mashina tizimlarini tiklash	73,2	Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini, fermerlar daromadlarining barqarorligini saqlash va oshirish
Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	60,2	Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining 9 ta tumanida yerlarning degradatsiya muammosini hal qilish
Umumta'lim tizimida darsliklar va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish	260	Darsliklarning sifati, foydalanish muddatini oshirish yo'li bilan umumta'limning sifati va ahamiyatini oshirish.

Islom taraqqiyot banki (ITB) – 1974-yilda tashkil topgan. Unga islom diniga e'tiqod qiluvchi 35 ta mamlakat, ya'ni Islom anjumanining deyarli barcha a'zolari kiradi. Nizom kapitalining miqdori OTB dan 5 marta kam. ITBning maqsadi a'zo mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo, sanoat kompaniyalari kapitalarini investitsiyalashdan iborat.

ITBning O'zbekistondagi loyihalari

Loyiha nomi	Loyiha-ning qiymati mln.doll	Loyihaning huquqiy asosi
“Sug‘diyona” 500 kv elektr uzatish liniyasi qurilishi Sirdaryo IES	25,1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiniig 2005-yil 22-iyundagi PQ-105 sonli qarori
“G‘uzor Surxon” 500 kv elektr uzatish liniyasi va “Surxon” avtotransformatorini qurish	42,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 - yil 22- iyundagi PQ-901-sonli qarori
5 ta kasb-hunar kollejarini qurish va jihozlar bilan ta‘minlash	10,5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 - yil 22- noyabrdagi PQ-713-sonli qarori
Umumta‘lim maktablarini qurish va jihozlar bilan ta‘minlash	10,3	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 31- maydagi 104- sonli qarori
Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi va uning hududiy filiallarini tibbiy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash	23,8	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 2005-yil 11- maydagi 120-sonli qarori
Asfalt zavodini modernizatsiyalash, Toshkent shahrida yo‘llar qurish va ta‘mirlash uchun asbob-uskunalar va mexanizmlar sotib olish	12,6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 17- oktyabrdagi PQ-201-sonli qarori

O‘zbekiston ITBga 2003-yil 3-sentyabrda a‘zo bo‘lgan bo‘lib, ushbu bank tomonidan 2003–2009-yillar mobaynida umumiy qiymati 150 mln dollarga teng moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilgan.

2018-yilda 18 ta davlatlararo tashriflar amalga oshirildi va 50 milliard AQSH dollariga teng investitsiyaviy kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda yurtimizda chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard AQSH dollari miqdoridagi 456 ta loyiha amalga oshirilmogda.¹⁹

6.4. Investitsiya va pay fondlari mablag‘lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015-yil 25-avgustda Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 29-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma‘qullangan “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida” qonun imzolandi.

Mazkur Qonun 2010-yil 12-dekabrda o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat qo‘shma yig‘ilishida davlat Rahbari taqdim etgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda 2011-yil 14-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining P-3557-sonli farmoyishiga muvofiq islab chiqilgan. Uning maqsadi investitsiya va pay fondlarining faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonun qabul qilinishidan oldin respublikadagi investitsiya fondlar va ishonchli boshqaruvchilar faoliyati Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentyabrdagi 410-sonli “Investitsiya va xususiyalashtirish investitsiya fondlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2003-yil 18-apreldagi 189-sonli Hukumat qarori bilan tasdiqlangan Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinar edi. Pay fondlarni tuzish va faoliyatlarini olib borish bo‘yicha qonunchilik mavjud emas edi.

Qonunning 3-moddasiga asosan, investorlarning pul mablag‘larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo‘yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs - aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir (IF).

IF quyidagi turda bo‘lishi mumkin:

- o‘zi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo‘lgan investitsiya fondi;

¹⁹ 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

- o'zi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lmagan investitsiya fondi.

IFning turi fondning ta'ris hujjatlarida ko'rsatiladi.

Qonunning 4-moddasiga muvofiq, investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida ikki va undan ortiq shaxslarning – investorlarning o'zi ishonchli boshqaruvga bergan pul mablag'lari yig'indisi pay fondidir (PF). PF yuridik shaxs bo'lmaydi.

PF quyidagi turda bo'lishi mumkin:

- chiqarilgan investitsiya paylarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan fondning mablag'lari hisobidan qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lgan pay fondi;

- chiqarilgan investitsiya paylarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan fondning mablag'lari hisobidan qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lmagan pay fondi.

PF turi fondning ishonchli boshqarish shartnomasida ko'rsatiladi. PFdagi ulush hujjatsiz qiymat qog'oz hisoblanadigan investitsiya payi bilan tasdiqlanadi (5-modda).

IFning yoki PFning investitsiya portfelini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlar, ulushlar, pul mablag'lari (shu jumladan chet el valyutasi), omonatlar va ko'chmas mulk investitsiya aktivlaridir (6-modda).

Ishonchli boshqaruvchi deganda ushbu Qonunda IFlarini va (yoki) PFlarini ishonchli boshqarish shartnomasi asosida ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi yuridik shahs tushuniladi. Ishonchli boshqaruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisidir (8-modda).

Shuningdek, Qonunning 11-moddasiga muvofiq IFni tashkil etishda uning aksiyalari qiymatini to'lash pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar, shuningdek ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar bilan amalga oshiriladi. Bunda uning ustav kapitalining kamida 75 foizi pul shaklida to'lanishi kerak.

IFning aksiyalarini joylashtirish fond birjasida amalga oshiriladi, bundan ushbu fond muassislari o'rtasida yopiq obuna bo'yicha joylashtiriladigan aksiyalarning dastlabki chiqarilishi mustasno.

Qonunning 14-moddasiga ko'ra, ishonchli boshqaruvchi bo'lmagan taqdirda, IFning kuzatuv kengashi uch oy ichida ishonchli boshqaruvchi yollashi yohud IFni tugatish tashabbusi bilan chiqishi shart.

Bundan tashqari, IFdan farqli ravishda, Qonunning 16-moddasiga muvofiq, PFni tashkil etish to'g'risidagi qaror ishonchli boshqaruvchi tomonidan qabul qilinadi. Investor ishonchli boshqaruvchi bilan tuziladigan, investorlarning pul mablag'larini umumiy ulushli mulk huquqi asosida PFga birlashtirish nazarda tutiladigan shartnoma asosida PFga pul mablag'larini kiritadi.

PF u Pay fondlarining yagona reestriga kiritilgan va tegishli axborot qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining hamda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi (16-modda).

“Investitsiya va pay fondlari to'g'risida” Qonun 2015-yil 26-avgustdan e'tiboran kuchga kirdi. Ushbu Qonunning PF faoliyati bo'yicha 3-bobi qoidalari 2017-yil 1-iyuldan e'tiboran amalga kiritildi.

6.5. O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni, shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006-yilda tashkil etilgan, nizom fondi bugungi kunda qariyb 7 milliard AQSh dollaridan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi muhim o'rin egallamoqda. Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Hozirgi paytda Jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard AQSh dollaridan ortiq 55 ta investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,3 milliard AQSh dollari Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi. Jamg'arma faoliyat yuritayotgan davr mobaynida umumiy qiymati 1,7 milliard AQSh dollarini tashkil etadigan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o'zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali “Ohangaron-Pungan” magistral gaz

tarmog'ining qurilishi, "Farg'onaazot" va "Maksam-Chirchiq" ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kVli "G'uzor" kichik stansiyasi va "Surxon" kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko'l konlarida siqish-kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo'ng'iro't kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalari, 400 ta "Mercedes-Bens" rusumli yo'lovchi tashish avtobuslarini xarid qilish loyihalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, umumiy qiymati 5,7 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ularning sirasiga Sho'rtan gaz-kimyó majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, yangi "Angren" ko'mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5 sonli energiya bloklarini yil bo'yi ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug'-gaz moslamalarini qurish, Toshkent-Samarqand temir yo'l yo'nalishida foydalanish uchun "Talgo-250" yuqori tezyurar elektropoezdlarini xarid qilish, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi loyihalar kiradi.

O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi OTB, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, ITB, Xitoy eksport-import banki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan 3,2 milliard AQSh dollaridan ziyod xorijiy investitsiya va kreditlari jalb etish imkonini berdi.

6.6. Maqsadli davlat jamg'armalari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

Investitsiya dasturini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

- *markazlashtirilgan investitsiyalar* (davlat budjeti mablag'lari; davlat budjetidan tashqari jamg'armalar mablag'lari; hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar; hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar);

- *markazlashtirilmagan investitsiyalar* (mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari; tijorat banklarining, shu jumladan, xorijiy tijorat banklarining kreditlari; jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari; qonun hujjatlarga zid bo'lmagan boshqa manbalar).

Markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni amalga oshirish, moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga, aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga, suv xo'jaligi qurilishiga, aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga, davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari obyektlari qurilishiga, umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qilsak, 2017-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 975,1 mlrd so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25%ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 45 744, 2 mlrd so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 75%i o'zlashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi – 35%ini Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 26%ni, Respublika byudjeti 22%ni, Davlat maqsadli jamg'armalari 16%ni va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi 1%ni tashkil etdi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning tog'-kon sanoatida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga Sho'rtan gaz kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg'i ishlab chiqarishini tashkil etish, gazni desulfurizatsiyalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Yoshlik 1 metal konini o'zlashtirish, qurilish sohasi uchun eng asosiy qurilish materiali hisoblangan sement zavodining qurilishi, ammiak va karbamid ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqa investitsiya loyihalarini sanab o'tish mumkin.

Qarshi-Termiz, Pop-Qo'qon-Andijon temir yo'l liniyalarini elektrlashtirish, 450 MVt quvvatga ega ikkita bug' gaz qurilmasidan iborat umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostansiyasi qurilishi, Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi, A-373 "Toshkent-O'sh" magistralining "Qamchiq" dovoni orqali o'tadigan 116 – 190 km da joylashgan tog'lik hududlarida 58 km uzunlikdagi avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish, yerusti raqamli uzatish tarmog'ini rivojlantirish kabi yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 39%ini korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari tashkil etadi. Bu korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog'liq.

Nazorat savollari

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'rnini izohlab bering.
2. Xalqaro moliya institutlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit tashkilotlarining o'rnini izohlang.
4. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing tashkilotlarining o'rnini qanday?
5. Investitsiya loyihalarini sindikatli moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. "Stend-bay" kreditlari deganda nimani tushunasiz?

VII BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

7.1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot- kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriyati

Informatikada "tizim" tushunchasi ko'proq texnik vositalar, asosan, kompyuterlar va murakkab obyektlarni boshqarishga nisbatan ishlatiladi. "Tizim" tushunchasiga "axborot" so'zining qo'shilishi uning belgilangan funksiyasini va yaratilish maqsadini aniq aks ettiradi.

Axborot tizimi – belgilangan maqsadga erishish yo'lida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Qo'llanish sohasiga qarab axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- Ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;
- Loyihalashtirishni avtomatlashtirish;
- Tashkiliy jarayonlarni boshqarish;
- Texnologik jarayonlarni boshqarish.

Texnik obyektlarni loyihalash nazariyasining holati va rivojlanish darajasi birinchi navbatda loyihalash natijalariga qo'yiladigan talablarga bog'liq bo'ladi. Bu talab o'z navbatida mavjud loyihalarni texnologik amalga oshirish va ruxsat etilgan loyihalash vositalari bilan aniqlanadi.

Ko'rsatib o'tilgan omillar vaqt o'tishi bilan ilmiy texnik taraqqiyotga mos ravishda o'zgaradi, takomillashadi va texnik obyektlarni loyihalash hamda tadqiq etish nazariyasi ham shunga mos holatda rivojlanadi.

Yakka tartibda qo'lda loyihalash davrida ancha sodda konstruksiyaga ega bo'lgan texnik buyumlarning cheklangan turlari ishlab chiqilar edi. Ilk bor ko'pgina buyumlar prototipsiz yaratilgani uchun qarorlar asl loyiha asosida qabul qilinishni talab yetardi. O'sha davrda loyihachilarning ishi ijodiy bo'lib, unda mexanik xarakterdagi ijodiy bo'lmagan ishlar 30 % ni tashkil etar, loyihalash vositalari hamda usullari ancha sodda edi. Hisob-kitob ishlari usuli ma'lum darajada

empirik koeffitsiyentlar va taxminiy bog'liqlikka tayanardi. Loyihachilarning texnik vositalari ancha ibtidoiy bo'lib, logorifmik lineyka, chizma qurollari jamlamasi (gotovalniy) va hokazolar bilan cheklangan edi. Ko'plab yirik korxonalarda loyiha hujjatlari o'zlarining xususiy rasmiylashtirish tizimiga ega bo'lib, bu hujjatlarni boshqa korxonalariga uzatishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi.

50 yillarga kelib konstruktorlik hujjatlarini rasmiylashtirish hamda unga murojaat etishni muvofiqlashtiruvchi konstruktorlik hujjatlarini yagona tizimi (единой системы конструкторской документации – ЕСКД)ga o'tildi. Loyihalash usullari bilan bir qatorda, loyihalashning texnik vositalari ham rivojlandi. Arifmometrlar "Optima" rusumli tez chop etish qurilmalari, har xil ko'rinishdagi loyiha hujjatlarini tez ko'paytirish vositalari paydo bo'ldi. Loyihalash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish davri boshlandi. Shunday qilib, loyihalash jarayonlarining imkoniyatlari, mos ravishda loyihachilar soni keskin oshib, ma'lum davrda yangi ishlanmalarga sanoat ehtiyojini qondirish uchun yetarli shart-sharoit yaratildi.

Ikkinchi jahon urushi elektrotexnik tizimni integratsiyalashuvi yo'nalishiga nochiziqli elementlarning katta sinfini qo'shish uchun katta turtki bo'ldi. Murakkab energetik va axborot tizimlarini endi qo'lda loyihalash usulida talab darajasida loyihalash uchun imkoniyat bo'lmay qoldi. Loyihalash nazariyasi darajasi va xalq xo'jaligi talablari orasidagi bu ziddiyatni hisoblash texnikasini rivojlantirish hisobiga bartaraf etilib, shu davrdan boshlab loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishga poydevor qo'yildi. Avval elektron hisoblash mashinalarida loyihalashning hisob-kitoblarining sodda algoritmini yaratish odat tusiga kirdi. Keyinchalik differensial tenglamalar va nochiziqli bog'lanishlarni EHMda hisoblashning sonli usullari jadal rivojlantirildi.

Natijada hatto EHMLarning birinchi avlodi bilan loyihalash hisoblarini bajarish hisobiga mehnat samaradorligi keskin oshdi. Lekin EHMLarning loyiha variantlarini katta miqdorini ko'ra olish imkoniyatiga ega loyihachilar loyiha variantlarini yetkazib berish uchun jismonan ulgura olmadilar. Bu ziddiyat esa ikkinchi avlod EHMLarini yaratish, loyiha qarorlarini qabul qilishda kibernetik usullarni rivojlantirish hisobiga bartaraf etildi. EHMLarning xotira hajmini va

tezkorligini oshishi loyihalashda optimallashtirish masalalarini yechish imkonini yaratdi. Loyihalash davri qisqarib uning sifati yaxshilandi.

Elektron hisoblash mashinalarining mashina grafikasi va boshqa uskunalarning vositalariga ega bo'lgan uchinchi avlodni yaratilishi loyihalash jarayonlarida nafaqat hisob-kitob ishlarini, balki loyihalashning konstruktorli texnologik bosqichini ham avtomatlashtirish uchun imkoniyat yaratdi. Har xil sohalaridagi loyihachilar (hisobchilar, konstruktorlar, texnologlar) mehnatini bir jamoaga birlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy texnik vositalarini yaratish keskin rivojlandi. Hisoblash texnikasi uchun dasturlashtirish umumlashtirilib, undan foydalanishda maxsus bilimni talab etmaydigan holga keltirildi.

Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini yaratish usuli bilan loyihalashning hamma jarayonlarini konveyr holda avtomatlashtirish muammosi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xalqaro raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar qisqa muddatda, arzon narxda o'ta sifatli yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymasa, yashab qolishi xatar ostida qoladi. Shuning uchun ham ular kompyuterlarning juda keng xotira va tezkor hisoblash, qulay grafik interfeys imkoniyatlarini o'ta mashaqqatli va umuman bir-biri bilan bog'lanmagan ishlab chiqarish hamda loyihalash masalalarini uzviy bog'lashga, ularni avtomatlashtirishga keng joriy etmoqdalar. Shunday qilib yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish qiymati arzonlashib uni ishlab chiqarish vaqti qisqarmoqda.

7.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tashkilotlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'рни

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyat va davlat boshqaruvi faoliyatining barcha sohalariga keng joriy etish hamda ulardan samarali foydalanish, fuqarolarning axborot olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, "elektron hukumat" tizimini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasi, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish borasida mamlakatimizning barcha hududlarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2015-yil 4-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Binobarin, mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini har tomonlama ravnaq toptirish, uning huquqiy-tashkiliy hamda moddiy-texnik bazasini izchil takomillashtirishga alohida e’tibor qaratib kelinayapti. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonamiz uchun dolzarbligiga monand sur’atda boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlanayotganini alohida ta’kidlash joiz. Ushbu xizmatlar hajmi so‘nggi besh yilda 3,3 barobar, o‘tgan yili esa 24,5 foiz o‘sgani buning amaliy tasdig‘idir. Ayniqsa, “elektron hukumat” tizimining izchil rivojlanayotgani axborot tizimlari va axborot munosabatlari sub’yektlari xavfsizligining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish davlat boshqaruvini aholi va tadbirkorlik subyektlarining tilak va ehtiyojlariga mosligini ta’minlash yo‘nalishida zarur shartlaridan biridir. Bugungi kunda O‘zbekiston “Elektron hukumat” tizimi doirasida davlat organlari faoliyatini samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha keng qamrovli ishlar qilinmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida axborot-texnologiyalari infrastrukturasi zamonaviy bazasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari muvaffaqiyatli va jadallik bilan o‘z yechimini topmoqda. Barcha davlat organlarida Internet tarmog‘iga ulangan avtomatlashtirilgan ishchi o‘rinlari yaratilmoqda.

7.3. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda dasturiy ta’minotlardan foydalanish

Globalashuv, axborot-kommunikatsiya taraqqiyoti axborot almashish jarayoni yanada tezlashtirishga xizmat qilayotir. Bugungi kunda maktab o‘quvchisi, hatto bog‘cha bolasi qo‘lida ham mobil telefon borligi hech kimni ajablantirmay qo‘ydi. Uyali aloqa vositalari, planshet, kompyuter texnologiyalari, internetning imkoniyatlari had-

hududsiz ekanligi hammaga ayon. Kundalik turmushimizda oddiy voqelikka aylangan ana shunday zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan jamiyatimizning barcha a'zolari, jumladan, jismoniy va yuridik shaxslar unumli foydalanishga intilmoqda.

“Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari” fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (COMFAR – Computer Model for Feasibility Analysis and Reporting, PROPSPIN – Project Profile Screening and Preappraisal Information system, “Project Expert”, “Alt-Invest”, “FOCCAL”, “Investor 4.1”, “TEO-INVEST”, Micrasoft Excel, Micrasoft PowerPoint), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Teo-invest – moliyaviy rejalashtirish va pul oqimlarining immitatsion modeliga asoslangan investitsiya loyihalarining samaradorligini tahlil qilish uchun mo'ljallangan dasturiy kompleks hisoblanadi.

Teo-invest quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- investitsiya loyihalarini tahlil qilish va asoslash, shu jumladan ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va modernizatsiya qilish, sanoat korxonalarini qurish va texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash;

- biznes-rejalarning moliyaviy bo'limlarini ishlab chiqish, rus va ingliz tillarida shakllar to'plami va grafik tasvirlarni tayyorlash;

- investitsiyalarni ekspertizadan o'tkazish, loyihani moliyalashtirish sxemalarini tanlash va optimallashtirish, xavflarni baholash va tahlil qilish.

Teo-invest moliyaviy institutning (bank, investitsiya kompaniyasi) biznes-rejasini ishlab chiquvchi va tahlil qiluvchi vositachisi bo'lib, birinchidan loyihani amalga oshirish variantlarini tahlil qilish va eng yaxshisini tanlash imkonini beradi, ikkinchidan esa investitsion taklifni ekspertizadan o'tkazish, hisob-kitoblarning haqiqiylikini tekshirish va qaror qabul qilishni osonlashtiradi.

Teo-invest dasturiy kompleksi Rossiya Fanlar Akademiyasining boshqaruv muammolari instituti mualliflari jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan. Teo-invest dasturiy kompleksining birinchi versiyasi 1993-yilda paydo bo'ldi va foydalanuvchilar va mutaxassislar tomonidan qiziqish bilan qabul qilindi. Bu yillar mobaynida Teo-invest

doimiy ravishda takomillashtirildi va kuchli reklama qilinmasada, dasturiy ta'minotning doimiy foydalanuvchilari soni keskin ko'paydi.

Teo-invest quyidagilarga imkon beradi:

- * korxonaning moliyaviy modelini va investitsiya loyihagini yaratish va uni amalga oshirish variantlarini turli ssenariylarga muvofiq tahlil qilish;

- * kredit, byudjet mablag'larini jalb qilish maqsadga muvofiqligini, investitsiya loyihalarini davlat, tarmoq va mintaqaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va usullarini asoslash;

- * tenderga taqdim etiladigan investitsiya loyihasing byudjet samaradorligini hisoblash;

- * tanlov asosida davlat kafolatlarini olish uchun loyihani hisoblash va tahlil qilish natijalarini taqdim etish.

Teo-investning investitsiya ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishlatiladigan usullari "investitsiya loyihalari samaradorligini baholash va moliyalashtirish, ularni tanlash uchun uslubiy tavsiyalar", shuningdek, xalqaro biznes amaliyotida qabul qilingan moliyaviy tahlil usullariga mos keladi.

Paket "sezgirlik tahlili" maxsus blokini o'z ichiga oladi, unda foydalanuvchi avtomatik ravishda tadqiqot o'tkazish va kirish parametrlarini loyihaning asosiy chiqish ko'rsatkichlariga (NPV, IRR va boshqalar) ta'sirini tavsiflovchi grafikalar yaratish imkoniyatini beradi, bu esa loyihaga sarmoya kiritish xavfi darajasini oqilona baholash imkonini beradi.

Teo-invest keng imkoniyatlar va tahlil vositalarini taqdim etadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- tashqi muhitni samarali tavsifi va modellashtirish, shu jumladan ma'lumotlarni kiritish va hisoblash uchun ikki valyutadan foydalanish, hisob-kitoblar jarayonida ma'lumotlarni avtomatik ravishda tuzatish bilan umumiy va tizimli inflyatsiyani hisobga olish, qonunchilikka to'liq muvofiq soliq va to'lovlarni hisobga olish va hisoblash;

- mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini alohida modellashtirish. Tayyor mahsulot omborini hisobga olish va har bir holat uchun omborda mahsulot narxini hisoblash. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning mavsumiy xususiyatini hisobga olish;

- ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash va modellashtirish, shu jumladan ishlab chiqarish birligining ishlab chiqarish xarajatlarini

hisoblash. Sotish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning (yarim tayyor mahsulotlarning) ichki iste'molini hisobga olish, bu murakkab, texnologik va o'zaro bog'liq ishlab chiqarishni modellashtirish imkonini beradi;

-ishchi kapitalning turli tarkibiy qismlarini hisoblash va batafsil modellashtirish, shu jumladan: ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasining har bir pozitsiyasi (debitorlik, jo'natilgan mahsulotlar uchun hisob-kitoblar, bajarilayotgan ishlar va tayyor mahsulotlar), xomashyo, butlovchi qismlar va energiyaning har bir pozitsiyasi (omborda zaxiralar, to'lovlar uchun hisob-kitoblar pul oqimlarining real vaqtdagi o'zgarishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

-pul mablag'lari va asosiy vositalar (binolar, inshootlar, mashinalar va uskunalar, shuningdek nomoddiy aktivlar) shaklida aksiyadorlik kapitalini shakllantirish imkoniyatini o'z ichiga olgan kapitalni shakllantirish va boshqarish strategiyasini baholash va modellashtirish;

-aksiyadorlik va qarz kapitalini jalb qilish variantlarini tahlil qilish, kreditlar va kreditlarni to'lash strategiyasini tanlash, turli lizing sxemalaridan foydalanish va h.k. qimmatli qog'ozlar bozorida bo'sh mablag'larni joylashtirishni modellashtirish va loyihalarni qayta investitsiyalash, dividendlar to'lovlarini variantli tahlil qilish;

-loyiha samaradorligi parametrlarini (NPV, IRR va boshqa muhim ko'rsatkichlar) ma'lumotlar (mahsulot narxlari, savdo hajmi, ishlab chiqarish quvvati, inflyatsiya, soliqlar va boshqalar) o'zgarishiga nisbatan barqarorligini baholashga imkon beradigan sezgirlik tahlilini, risk tahlilini va ssenariylar tahlilini o'tkazish, investitsiya loyihasiga mablag'larni kiritish risklarini tahlil qilish;

Teo-invest paketi foydalanuvchiga loyihani amalga oshirishning turli xil variantlari va sharoitlarini modellashtirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi, biznes-rejani ishlab chiqish va xalqaro talablarga to'liq javob beradigan hujjatlarni tayyorlash jarayonini imkon qadar osonlashtiradi. Chiqish hujjatlarini shakllantirishda: daromad hisoboti, balans, pul oqimi to'g'risidagi hisobot, samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash, soliqqa tortish sohasidagi qonunchilikni tartibga solishning xususiyatlari va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi hisobga olinadi.

Teo-Invest buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish to'g'risidagi Nizomga muvofiq so'nggi o'zgarishlarni, shu jumladan moliyaviy hisobot shakllarining o'zgarishini hisobga oladi.

Shu jumladan, kredit turini (qurilish uchun investitsiya yoki uskunalar uchun investitsiya) tanlashning qo'shimcha imkoniyati mavjud bo'lib, bu qurilish davrida (aktiv ishga tushirilgunga qadar) ushbu turdagi kredit bo'yicha to'langan foizlarni aktivning qiymatiga kiritish imkoniyatini hisobga olish imkonini beradi.

Yangi versiyada aktivlar amortizatsiyasini hisoblash va mol-mulk solig'ini hisoblash hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil) tanlovidan qat'iy nazar, har oy batafsil ma'lumot bilan amalga oshiriladi. Bu hisobot davrini bir oydan ortiq vaqt davomida tanlashda hisob-kitoblarning mumkin bo'lmagan noto'g'riligini oldini oladi.

Dasturning yangi versiyasi har bir aktiv uchun loyihaning investitsiya fazalarining bosqichlarini modellashtirish imkonini beradi, shu jumladan: yetkazib beruvchining aktivlari va xizmatlarini to'lash, aktivni korxonaga kiritish, uni o'rnatish va o'rnatishni tugatish, aktivni ishga tushirish.

Tegishli sozlama bilan, Teo-Invest korxonalar balansining strukturasi tahlil qilish va loyihaning boshlanishi uchun emas, balki bir qator retrospektiv davrlar uchun zarur moliyaviy stavkalarni hisoblash imkonini beradi.

Bundan tashqari, qo'shimcha ravishda, Teo-Invest tarkibida maxsus dasturiy modul – "loyihalarni taqqoslash" taqdim etiladi. Ushbu Teo-Invest dasturi, loyihalar va ularning variantlarini hisoblash va eng yaxshisini tanlash imkonini beradi. Taqqoslash uchun jadval va grafik shakllar, shuningdek, "investitsion loyihalarni kompleks baholash"ning o'ziga xos usuli va investorning afzalliklari yordamida ko'rsatkichlar majmui bo'yicha ishlatilishi mumkin.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'rni qanday izohlaysiz?

VIII BOB. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

8.1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishda Harakatlar strategiyasining o‘rni va ahamiyati

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shirishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi 2017-yil 7-fevralda Prezident Farmoni bilan tasdiqlandi:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

Onun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

8.2. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati

2019-yil mamlakatimizda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb belgilandi. Shunga muvofiq ushbu yilda iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jalb etish sohasida – makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sog'lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, "xufyona" iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valyuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirish belgilandi.²⁰

Barchamizga ma'lum, islohotlar va yangalanishlar o'z-o'zicha amaliyotga tadbiq qilinganda oxirgi, ya'ni, yakuniy samara kutilganidek bo'lmasligi yoki kutilgan natijaga keyinroq erishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun, yangi iqtisodiy tizim va munosabatlarning qaror topishida barcha tarmoqlar kerakli darajada hukumat tomonidan qo'llab-

²⁰ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

quvvatlab boriladi, bu olib borilayotgan islohotlarining samarali bo'lishini kafolatlaydi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'ziga xos turtki bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishni tartibga solish borasida ko'plab yangi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Lekin, iqtisodiyotimiz tarmoqlaridagi investitsiya faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmasdan, investitsiyalarni to'g'ri boshqarmay turib iqtisodiyotni barqaror o'stirish, asosiy kapitalni yangilanishiga va ko'payishiga, butun investitsion sohada tarkibiy o'zgarishlarga erishib bo'lmashligi aniq ko'rinib turibdi.

Shu sababli xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish kerak, deb hisoblaymiz. Bu tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajakda samarali natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va yechimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi yetuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtasida muloqot tashkil qilib, mahalliy aholi va chet el mamlakatlari vakillarining mablag'larini jalb qilish mumkin. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilib, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarning amaldagi mexanizmini takomillashtirish mumkin.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko'p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini yanada jadal ravishda olib borish orqali, jahon bozori uchun zarur ko'plab mahsulotlar va xizmatlarni olib chiqish

orqali investitsiya oqimini oshirish mumkin. Bu holatni faqat investitsiyalarning o'ziga bog'liq qaratilib, yechim izlamasdan, aholi va korxonalarining iste'mol qobiliyatini ko'tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan sog'lom talab darajasini oshirish nuqtayi nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida aniq, shaffof va ishonchli axborot ta'minotini yanada takomillashtirish zarur.

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kerak.²¹

O'zbekiston investitsion muhitini takomillashtirish xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni yaratish bo'yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyasiya darajasini holatda ushlab turish, inflyasiyani loyihalarning qiymati o'sishiga ta'sirini kamaytirib borish talab etiladi. Xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko'paytirishga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Investitsiyalarni real ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga birinchi navbatda xomashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim deb o'ylaymiz. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, yakka hokimlikkaga qarshi erkin raqobatga ega muhit yaratish, raqobatni rag'batlantirish va rivojlantirish, kichik va o'rta biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlab turish, samarali va hamma uchun manfaatli bo'ladigan soliq siyosatini yuritishning yo'nalishlarini belgilab olish lozim.

Moliya tizimini boshqarishning funksiyasini asosan davlatlar tartib bo'yicha bajaradi. Lekin, oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarda korxonalarining bu funksiyasini boshqasiga o'tuvchi tendensiyasi ya'ni nodavlat korxonalarini birlashtiruvchilarga o'tmoqda. Ba'zi hollarda xususiy sektor korxonalari maxsus ixtisoslashtirilgan xalqaro korxonalariga aylanib qolmoqda. Masalan: AQShda moliyaviy hisob kitoblar standarti bo'yicha FASB – Financial Accounting Standard

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018-yil. <http://www.president.uz>

Board, fond birjalari, xuddi Xalqaro svoplar saydosi assotsiatsiyasiga o‘xshagan ISDA – International Swap Dealers Association. Shuni qayd etish lozimki, Qonunlar bilan birga kelishilgan va kelishilmagan tartiblar amalda qo‘llanilib, bu mazkur davlat Qonunini tartibga solish maqsadida bajarish zarur va barcha uchun majburiydir. Bunga misol uchun fond birjasidagi broker va maklerlarning savdosi tartibga solinadi. Investitsiya faoliyatida narx belgilash, Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqa kafolatlar belgilangan.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni joylashtirish, O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi, Investitsiya loyihalari ekspertizasi, Investitsiyalarni himoya qilish, Mablag‘lardan foydalanish kafolatlari, Investitsiyalarning qo‘shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari, Ochiq axborotdan erkin foydalana olish, Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi Qonun hujjatarini buzganlik uchun javobgarliklar belgilangan.

8.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar

Ta’kidlash lozimki, mamlakatda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta’minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq siyosati va bojxona-tarif jihatdan tartibga solish islohotlari jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, investorlar bilan ishlashda, ayniqsa, joylarda, investorlarning tashabbuslari barcha darajadagi hokimliklar tomonidan

lozim darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog‘liq byurokratik to‘siq va g‘ovlar hali ham mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas‘uliyatini oshirish maqsadida:

- 2018-yil 1-avgustdan shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq: insofli faoliyat yuritgan investor va tadbirkorlik subyektiga davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan ularga nisbatan qabul qilingan ma‘muriy hujjatning qonuniy kuchiga ishonishi sababli kelib chiqqan mulkiy zararining o‘rni qoplanadi, agarda ushbu hujjatning qonuniy kuchiga ishonib mol-mulkdan foydalangan, bitim tuzgan yoki taqdim etilgan afzallik va ustunliklardan boshqacha tarzda foydalangan hamda mazkur hujjat keyinchalik haqiqiy emas deb topilgan yoki bekor qilingan bo‘lsa;

- davlat organi (mansabdor shaxs)ning ma‘muriy hujjatini bekor qilish yoki o‘zgartirish masalasi, agar u insofli investor va tadbirkorlik subyektining qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lsa, sud tartibida ko‘rib chiqiladi, uning saqlab qolinishi jamoat manfaatlariga tahdid solayotgan hollar bundan mustasno.

2. Belgilansinki, 2018-yil 1-sentyabrdan:

- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilishga faqat yer uchastkasi olib qo‘yilishi rejalashtirilayotgan manfaatdor shaxslar bilan ochiq muhokama o‘tkazilganidan, shuningdek, foyda va xarajatlar baholanganidan keyin yo‘l qo‘yiladi;

- yer uchastkalarini olib qo‘yishda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan turar joy va ishlab chiqarish binolari, boshqa imoratlar va inshootlarning buzilishiga ko‘chmas mulkning bozor qiymati va olib qo‘yish sababli mulkdorga yetkazilgan zararining o‘rni to‘liq qoplanganidan keyin ruxsat beriladi;

• jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organi (mansabdor shaxs)ning noqonuniy ma'muriy hujjati qabul qilinishi oqibatida yetkazilgan zarar davlat tomonidan, birinchi navbatda, tegishli organlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi, keyinchalik aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olinadi.

3. Belgilab qo'yilsinki, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yishga faqat quyidagi maqsadlarda yo'l qo'yiladi:

• mudofaa va davlat xavfsizligi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ehtiyojlari, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ularning faoliyat yuritishi uchun yerlarni taqdim etish;

• xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish;

• foydali qazilmalar konlarini aniqlash va qazib chiqarish;

• avtomobil va temir yo'llari, aeroportlar, aerodromlar, aeronavigatsiya obyektlari va aviatsion markazlari, temir yo'l transporti obyektlari, ko'priklar, metropolitenlar, tonnellar, energetika tizimi obyektlari va elektr uzatish tarmoqlari, aloqa tarmoqlari, kosmik faoliyat obyektlari, magistral quvurlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish (rekonstruksiya qilish);

• aholi punktlari bosh rejalarini O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan obyektlar qurish qismida ijro etish, shuningdek, qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4. 2018-yil 1-oktyabrdan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berishning quyidagi yangi mexanizmlari joriy etilsin:

• qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

• ko'chmas mulk obyektlarini (mehmonxonalar, savdo obyektlari, madaniy-ko'ngilochar majmualar, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, ta'lim va tibbiyot tashkilotlari, yo'l infratuzilmasi va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auksion orqali sotish.

5. Quyidagilarga:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuman (shahar) hokimlariga chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko‘rsatilganidan kam bo‘lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda 10 million AQSH dollaridan ko‘p bo‘lmagan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga umumiy maydoni 2000 kvadrat metrdan ortiq, lekin 5000 kvadrat metrdan ko‘p bo‘lmagan, foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi “Davlat mulki obyektlarini sotish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3067-son qarorining 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan obyektlar bundan mustasno) investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sotish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqi berildi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Xususiylashtirilgan korxonalar qo‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining:

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talabni bekor qilish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so‘mdan 400 million so‘mgacha kamaytirish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji miqdorini uch baravarga kamaytirish;

- aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdorini 400 million so'm miqdorida belgilash;

- meva-sabzavot mahsulotlariga eksport kontraktlarini "O'zagroeksport" AJ tomonidan e'lon qilingan narxlardan past bo'lmagan narxlar bo'yicha tuzish, shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport kontraktini tuzmasdan, "O'zagroeksport" AJ rasmiy veb-saytida qayd etilgan narxlardan past bo'lmagan narxlar bo'yicha invoys asosida bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibini bekor qilish haqidagi takliflari ma'qullandi.

7. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi raisiga:

- vakolatli organlardan har birining huquqlaridan kelib chiqqan holda ularning chet el investitsiyalarini jalb etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlash;

- vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilarning ushbu sohadagi asosiy vazifalarning bajarilishini baholagan holda davlat investitsiya siyosatining amalga oshirilishi to'g'risidagi oylik hisobotlarini eshitishlarni, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini qo'llagan holda o'tkazish;

- xorijiy investorlarni mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar to'g'risida keng xabardor qilish maqsadida xalqaro konferensiyalar, seminarlar, yirik investitsiya forumlarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb etishni kengaytirish vazifalari topshirildi.

8. Quyidagilarga:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari rahbarlari zimmasiga – investitsiya muhitini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning samarali amalga oshirilishi, xorijiy investorlarga zarur ko‘mak ko‘rsatilishi, investitsiya buyurtmanomalari sifatli va tezkor ko‘rib chiqilishi, investitsiya buyurtmanomalari bo‘yicha kelishish tartib-taomillari o‘tkazilishi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va investitsiya faoliyati sohasidagi muammoli masalalarning hal qilinishi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga – xorijiy investorlarga barcha zarur ko‘mak ko‘rsatilishi, investorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni o‘rnatish orqali investitsiya buyurtmanomalarining tezkor ko‘rib chiqilishi, investorlarning tizimli ravishda shaxsan qabul qilinishi, tegishli infratuzilmaning ta‘minlanishi, yer uchastkalari ajratilishi, ruxsat beruvchi hujjatlar berilishi, investitsiya buyurtmanomalari bo‘yicha kelishish tartib-taomillarining o‘z vaqtida amalga oshirilishi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning tizimli monitoring qilinishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi rahbari zimmasiga – faoliyat yuritmayotgan yoki qurilishi tugallanmagan obyektlar, samarasiz foydalanilayotgan ishlab chiqarish binolari hamda yer maydonlarining ularda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun puxta xatlovdan o‘tkazilishi;

- “O‘zbekenergo” AJ raisi, “O‘ztransgaz” AJ raisi, O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga – investorlarning ishlab chiqarish obyektlari qurilishi va ularning tashqi infratuzilmaga ulanishi, investorlarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv bilan uzluksiz hamda tashqi kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlanishi;

• O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi zimmasiga – investorlarga respublika hududlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda maslahat ko‘magining ko‘rsatilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklandi.

9. Investitsiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan eng kam oylik ish haqining 8500 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxonalar tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohalariga katta miqdorda investitsiya kiritgan chet el fuqarolariga “Faxriy fuqaro” maqomini berish tartibini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritishi belgilab qo‘yildi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?
3. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining asosiy mohiyatini izohlang.
5. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qanday choralar qo‘llanilmoqda?

IX BOB. O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH

9.1. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishga doir me‘yoriy huquqiy asoslar

2016-yil 26-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta‘minlash uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalarni izchil rivojlantirish borasida yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi, “Angren” va “Jizzax” maxsus industrial zonalari nomini birxillashtirish maqsadida ularni “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalar deb atala boshlandi.

Farmonda “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalari faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-sentyabrdagi R-4351-sonli farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ishlab chiqish komissiyasining erkin iqtisodiy zonalar hududida amalda qo‘llanilayotgan soliq va bojxona rejimlarini birxillashtirish hamda ushbu zonalar ishtirokchilarining quyidagilardan:

- yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i,

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalaridan;

- o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, xomashyo, material va butlovchi buyumlar, shuningdek, mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlaridan ozod etish (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-may kuni mamlakatda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yettita erkin iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etish to'g'risidagi farmoni tasdiqladi.

Tuproq va iqlim sharoitlari noyobligini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish to'g'risida kiritilgan taklifga binoan "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishga qaror qilindi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 146 ta mahalliy farmatsevtika korxonasi tomonidan 2000 xildan ortiq dori-darmon vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 2016-yil yakunlari bo'yicha mamlakat farmatsevtika bozorida mahalliy dori-darmon vositalarining ulushi 55 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, tarmoqda bugungi kunda olib borilgan tahlillar ichki bozorni mahalliy dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun respublikamizning farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha yanada samarali chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, dunyo farmatsevtika sanoatida 8500 turdagi dori-darmon vositalari ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, ularning 6300 tasi xalqimiz ehtiyojlari uchun import qilinadi.

O'zbekistondagi dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan farmatsevtika korxonalarining xorijiy xomashyo hamda materiallar importiga yuqori darajada bog'liqligi soha rivojiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Mahalliy xomashyo va dorivor o'simliklar asosida dori-darmon vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga farmatsevtika mahsulotlarining mahalliyashtirilishini chuqurlashtirish hamda kengaytirish, shuningdek, ularni tibbiyot amaliyotiga keng joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi paytda xalqaro tibbiyot amaliyotida foydalanilayotgan 350 turdagi dorivor o'simliklardan 71 tasi respublikada tashkil etilgan sanoat plantatsiyalarida yetishtiriladi. Bu esa talab va ehtiyoj katta bo'lgan dori-darmon vositalarini mahalliy sharoitda uzluksiz ishlab chiqarish uchun yetarli emas, albatta. Shuni inobatga olgan holda, ishlab chiqarish quvvatlariga yaqin bo'lgan ekologiyasi toza va sof bo'lgan tumanlarda yangi plantatsiyalarni tashkil etish rivojlanayotgan farmatsevtika sohasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Farmonda, jumladan, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirishda birinchi darajali vazifa sifatida belgilab berilgan.

Farmonda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari hamda xo'jalik birlashmalariga quyidagi topshiriqlar yuklatildi:

-yer uchastkalari chegaralarini belgilash va ularni erkin iqtisodiy zonalar tarkibiga kiritish uchun ajratish;

-kelgusida dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil qilish uchun yer uchastkalarini aniqlash va ularni ajratish;

-erkin iqtisodiy zonalar hududlarida sanoat plantatsiyalarini tashkil etish, o'stirish uchun tavsiya etiladigan dorivor o'simliklarning ro'yxatini tuzish hamda keyinchalik ushbu dorivor o'simliklarni chuqur

qayta ishlash, dori-darmon vositalari va biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqarish bo'yicha maqsadli Dastur ishlab chiqish.

Farmonda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi dorivor o'simliklar xomashyosini qayta ishlash va dori-darmon vositalari, tibbiyot buyumlari, yordamchi va qadoqlash materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zamonaviy ishlab chiqarish va quvvatlarni tashkil etishga, mahalliy dorivor o'simliklar xomashyosi va materiallar negizida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga imkon beradi.

Tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalarning faoliyat muddati keyinchalik uzaytirish imkoni bilan 30 yil etib belgilangan, ushbu hududlarda alohida soliq, bojxona va valyuta tartiblari amal qiladi.

Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan tegishli investitsiyalar kiritilganda, ular:

✓ yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalardan;

✓ O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar, xomashyo hamda butlovchi buyumlarni olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod etiladi.

Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari eksport va import qilinadigan tovarlar uchun o'zlariga qulay bo'lgan to'lash hamda hisob-kitob qilish shartlari va shakllaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ushbu berilayotgan imtiyoz hamda qulayliklar mahalliy hamda xorijiy investorlar tomonidan iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar kiritilishiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining barchasi va har biri uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar hududlari, shuningdek, ularning ishtirokchilarining ishlab chiqarish

maydonlari tegishli tashqi muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasi bilan kafolatli ta'minlanadi.

Shuningdek, Farmonning ahamiyatli tomonlaridan yana biri tijorat banklariga o'z mablag'lari va jalb etilgan xorijiy kredit liniyalari hisobiga erkin iqtisodiy zonalar hududlarida amalga oshirish taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, shuningdek, dorivor o'simliklar xomashyosi yetishtirish bo'yicha plantatsiyalar tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar va fermer xo'jaliklariga kreditlar ajratish tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga, garov ta'minoti yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan hollarda tijorat banklari investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga texnologik uskunalarni lizing asosida belgilangan tartibda yetkazib berilishini ta'minlaydi.

Farmonning qabul qilinishi ichki bozorni keng turdagi hammabop, sifatli dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan yanada to'liq to'ldirish va alohida hududlarning sanoat salohiyatini rivojlantirish masalalarini hal etishga qaratilgan.

9.2. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yigirmadan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan. Xususan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amaliyotga tatbiq etilgan, qolaversa, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilayapti.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalar xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 miln dollar miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan.

Bundan tashqari, kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddao bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subyektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan.

Shuningdek, bo'sh turgan yoki samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish binolaridan unumli foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida mazkur binolar negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytgacha mamlakatimizda ularning soni 96 taga yetdi.

Hozirgacha ushbu zonalarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, kelgusida 248 loyihani amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 11 ming yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Lekin shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: mazkur yo'nalishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanilayaptimi? Agar kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rinni tahlil qiladigan bo'lsak, ularda hamon tashabbuskorlik yetishmasligi, faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligi ko'zga tashlanadi.

Masalan, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ko'rib chiqish hamda muvofiqlashtirish jarayoni hamon murakkabligicha qolib, rasmiy xarakter kasb etmoqda. Afsuski, erkin iqtisodiy zona qatnashchilariga yer uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari saqlanib qolmoqda.

Ayniqsa, "Urgut", "Qo'qon", "G'ijduvon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalari, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda ham muammolar kuzatilmoqda.

Vaholanki, mazkur hududlarda investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishni davr taqozo qilmoqda. Avvalo, ushbu zonalar faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, zarur bo'lsa davr talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarur.

Qolaversa, yer uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini ham soddalashtirish lozim. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 vazirlik va idoradan iborat edi. Prezident ko'rsatmasiga muvofiq, ularning soni 4 ta etib belgilandi. Shu bilan birga, yangi tizim — hududiy komissiyalar tashkil etilib, ularning loyihalarni ko'rib chiqish va ruxsat berish huquqlari kengaytirildi.

Bundan tashqari, hukumat tomonidan imtiyozlar yaratiladi. Iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezonini qayta ko'rib chiqilib, ishtirokchilarga kredit ajratishni yaxshilash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Boshqa qator muammolar ham mavjudki, ular ishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Masalan, ayrim erkin iqtisodiy zonalarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini qurish bilan bog'liq masalalar haligacha oxiriga

yetkazilmagan. Bu investorlarni jalb qilishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari tomonidan tijorat banklariga yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan taklif kiritish bo'yicha yetarlicha tashabbus ko'rsatilmayapti.

Ba'zi viloyatlar hokimliklari tomonidan erkin iqtisodiy zonalarda loyihalar aniq hisob-kitoblarsiz joylashtirilishi oqibatida ayrim faoliyat turlari uchun sun'iy imtiyoz berilishiga va bu, o'z navbatida, bozordagi raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda.

Shu bois, mavjud erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat, shuningdek, farmatsevtika zonalarida faoliyat yuritayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil qilgan biznes subyektlari va tadbirkorlarga berilayotgan qo'shimcha imkoniyatlar, imtiyoz va preferensiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ham muammolardan biridir.

Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini jahon biznes hamjamiyatiga to'la namoyon etishga qaratilgan, sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini shakllantirishda kompleks yondashuvlarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi zarur. Shu bilan birga, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunni bugungi kun talablari asosida qayta ko'rib chiqish, uni davr ruhiga uyg'un holda yanada takomillashtirish lozim.

9.3. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan tadbirlar

Keyingi yillarda mamlakatimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini vujudga keltirish, jumladan ularning faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam normativ-huquqiy bazani shakllantirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkonini beradigan soliq, bojxona imtiyozlari va yengilliklarining keng tizimini yaratish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjud bo'lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalar hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi hisobga olinmayapti;

- ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma'qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilishni ko'p oylarga cho'zib yubormoqda;

- uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalar uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o'z vaqtida barpo etish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmayapti;

- to'rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta'minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalariga birlashtirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etmoqdalar;

- beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotiladigan xomashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelmoqda;

- oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda, buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalar parametrlariga muvofiq kelmaydi;

- yettinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o'rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari rahbarligida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkil qilingan hududiy

komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas.

Mana shularning hammasi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, yer maydonlari ajratib berish tartibi, xomashyo va materiallardan foydalanishni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga kredit resurslari ajratishning prinsipial yangi tizimi yaratilishini taqozo etadi.

Tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan yuqori qiymatli raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun g'oyat qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, shuningdek, respublika mintaqalarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, buning asosida yangi ish joylarini tashkillashtirish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida 2017-yilning 1 dekabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini boshqarish hamda ular faoliyatini tashkil etishning yangi tizimi joriy etildi, unda quyidagilar nazarda tutildi:

a) erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari etib qayta tashkil qilindi, quyidagilar ularning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:

-tegishli hududda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish, shuningdek, alohida huquqiy va iqtisodiy rejimga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

-erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining samarali faoliyat yuritishini tashkillashtirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini direksiyalarini shakllantirish hamda ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

-investitsiya loyihalarini tanlash va ularni amalga oshirish uchun

erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish bo'yicha qaror qabul qilish;

-tadbirkorlik subyektlarini tanlab olish va ularni kichik sanoat zonalarida joylashtirish bo'yicha tanlov komissiyasi funksiyalarini amalga oshirish;

-investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilariga er maydonlari taqdim etish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

-davlat mulki bo'lgan ishlamayotgan korxonalar va bo'sh yotgan mol-mulklarni erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilariga investitsiya majburiyatlarini qabul qilgan holda "nol" xarid qiymati bo'yicha sotish to'g'risida qaror qabul qilish;

-erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning bosh rejalarini, shuningdek, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish rejalarini ko'rib chiqish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasini qurish bo'yicha loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

-investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, shuningdek investitsiyalash to'g'risida bitimga kiritilgan majburiyatlarning, shu jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ishtirokchilari korxonalarining biznes-rejalari parametrlari bajarilishi ustidan monitoring olib borish;

-erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilari – tadbirkorlik subyektlariga investitsiya loyihalarini amalga oshirishda va korxonalarining faoliyat yuritishida yuzaga keladigan masalalar kompleksini hal etishda yordam ko'rsatish;

-erkin iqtisodiy zonalar hududlarining chegaralarini aniqlashtirish va yangi kichik sanoat zonalarini barpo etish bo'yicha takliflar kiritish;

-erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini samaradorligini oshirish, shuningdek, ular faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etish;

b) erkin iqtisodiy zonalarining Ma'muriy kengashi tugatilgan holda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashlarining faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi (keyingi o'rinlarda – Respublika kengashi) tashkil qilindi,

ularning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-o'rtta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish strategiyasini belgilash;

-erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashlari hamda direksiyalari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

-erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining faoliyat yuritishi va ularni rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy-texnik masalalarni hal etishda vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishi borasidagi faoliyatini aniq-puxta muvofiqlashtirishni, ular tomonidan byurokratizm va sansalorlik faktlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tezkor choralar ko'rish, aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy javobgarlik choralari ko'rish yuzasidan takliflar kiritish;

-erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyatining barcha tashkiliy masalalari, xorijiy investorlardan tushayotgan istiqbolli takliflar, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini hududida amalga oshirish tavsiya etilayotgan, Respublika kengashiga taqdim etilgan aniq loyiha takliflarini tezkorlik bilan ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha kelishilgan qarorlar qabul qilish;

-erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini hududida loyihalarni amalga oshiruvchi investorlar uchun, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ishtirokchilari – xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat yuritishi, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotni eksportga yetkazib berishni ko'paytirish uchun yana ham ko'proq qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan tartibda takliflar kiritish;

-loyihalarni amalga oshirish, jumladan, loyiha ishlanmasi va loyihalarni amalga oshirish, obyektlarni ishga tushirish va pirovard maqsadlarga erishishning butun sikli davomida uni sifatli tashkil etish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

-belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarni aniqlagan holda, erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalari amalga oshirilishini, shuningdek, yuzaga kelayotgan masalalar va muammolarni hal etishda ularga amaliy yordam

ko'rsatish chora-tadbirlarini qabul qilgan holda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ishtirokchilari – xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini doimiy monitoring qilib borish;

-erkin iqtisodiy zonalar direksiyasi faoliyati ustidan amaliy nazorat o'rnatish, ma'qullangan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risida direksiya rahbarlarining muntazam hisobotlarini tinglab borish, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari hamda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini direksiyalarining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini ta'minlamagan rahbarlariga nisbatan javobgarlik choralari ko'rish to'g'risida takliflar kiritish;

-ma'muriy kengashlar yoki vakolatli organlarning asosli takliflari bo'yicha erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini to'xtatish yoki undan mahrum qilish;

-yangi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini barpo etish hamda ishlab turganlarining chegaralarini o'zgartirish masalalarini kelishib olish;

-erkin iqtisodiy zonalar hududida qiymati 5 million AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan ma'muriy kengashlarning qarorlarini kelishib olish.

Quyidagilar belgilandi: ma'muriy kengashlar o'zlarining vakolatiga kiritilgan qarorlarni qabul qilishda mustaqildirlar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahrining iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmalari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashlarining ishchi organlari hisoblanadi; erkin iqtisodiy zonalar hududida birinchi navbatda O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi tomonidan taqdim etiladigan ro'yxatlarga binoan eng avvalo bandlikka muhtojlarni ish bilan ta'minlagan holda yangi ish joylarini vujudga keltirib, mahalliyashtirish loyihalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan talablar va mezonlarga mos keladigan, import o'rini bosadigan, eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologiyali va innovatsion ishlab chiqarishlarni barpo etish bo'yicha loyihalar joylashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari to'g'risidagi Nizom; erkin iqtisodiy va kichik sanoat

zonalar ma'muriy kengashlarining faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

Respublika kengashi 2017-yilning 1-dekabriga qadar mintaqalarning mavjud mineral-xomashyo, yer, suv, qishloq xo'jaligi resurslarini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini, ekologik shart-sharoitini hisobga olgan holda har bir erkin iqtisodiy zonaning tarmoq ixtisoslashuvini belgiladi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar hududlarida loyihalarni moliyalashtirayotgan barcha tijorat banklariga, tasdiqlangan kvotalar doirasida, kredit liniyalari ochilishini ta'minlaydi.

Ma'muriy kengashlarga erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar tashkil etilgan barcha hududlardagi yer uchastkalarini, shu jumladan, davlat mulki bo'lgan faoliyat yuritmayotgan bo'sh obyektlar va bo'sh yer maydonlarini tasarruf etish huquqi berildi.

Erkin iqtisodiy zona va kichik sanoat zonasidagi ishlab chiqarish quvvatlari, birinchi navbatda, tortib kelingan muhandislik infrastrukturasi ega bo'lgan hududlarda va faoliyat ko'rsatmayotgan bo'sh binolar, inshootlar hamda qurib bitkazilmagan obyektlar bazasida joylashtirildi.

Erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari o'zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan birja tovarlari (xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida, erkin birja savdolarida tarkib topadigan o'rtacha kotirovkalardan kelib chiqqan holda bozor narxlarida sotib olish huquqiga egadirlar.

Erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati erkin iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan boshlab hisoblanadi.

2018-yilning 1-martidan boshlab investorlar erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi investitsiyalariga axborot tizimlarini qo'llagan holda interfaol shaklda investitsiya buyurtmanmalarini taqdim etishlari mumkin.

Investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimlarda nazarda tutilgan investitsiya loyihasi parametrlarini bajarish bo'yicha belgilangan majburiyatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilmasligi tadbirkorlik subyektini erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi

maqomidan belgilangan tartibda mahrum etish uchun asos hisoblanadi.

Tadbirkorni erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish uning erkin iqtisodiy zona hududidagi faoliyatini, shuningdek erkin iqtisodiy zona ishtirokchisiga mulk egaligi huquqi bilan tegishli bo'lgan boshqa obyektlarga nisbatan huquqlari to'xtatilishiga olib kelmaydi. Bunda ushbu tadbirkorlik subyekti EIZ ishtirokchilari uchun berilgan imtiyozlar va afzalliklardan foydalanmaydi; erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum bo'lgan tadbirkorlik subyektidan, zarur hollarda, yer uchastkasini olib qo'yish qonunchilikka hamda investor bilan tuzilgan investitsiya kiritish to'g'risidagi bitim yoki boshqa shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligi o'zgarganida erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ular ro'yxatdan o'tkazilgan sanada amal qilgan norma va qoidalarni qo'llashga haqidirlar, aksiz solig'i olinadigan tovarlar soliqqa tortilishini tartibga soluvchi hujjatlarning normalari va qoidalari bundan mustasno.

2017-yilning 1-noyabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari – tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuziladigan import shartnomalarini O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasida ekspertizadan o'tkazish talabi bekor qilindi, mazkur subyektlarning ustav kapitallarida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kredit liniyasi hisobiga tijorat banklari tomonidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladigan davlat ulushi mavjud emas.

Tijorat banklariga belgilangan tartibda: amaldagi kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari – korxonalarining pul oqimlarida vaqtinchalik nomutanosiblik ro'y bergan hollarda kreditni qaytarish muddatini keyinga ko'chirish yoki muddatini uzaytirish yo'li bilan asosiy qarz yuzasidan to'lovlar miqdorini kamaytirish bo'yicha kredit shartnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish; kredit buyurtmanomasini ko'rib chiqish uchun erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilaridan vositachilik haqi undirilishini bekor qilish va abonent haqi to'lashdan ozod qilish; erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihasi ishga tushirilgunga qadar, ammo normativ muddatdan ko'p bo'lmagan davrda berilgan kreditlar yuzasidan qo'shib hisoblangan foizlarni kapitallashtirish chora-tadbirlarini ko'rish tavsiya etildi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Aksiya – aksiyadorlik jamiyati chiqargan qimmatli qog‘oz. Aksiya egasining shu jamiyat mablag‘iga qo‘shgan hissasini va shunga muvofiq foydaning bir qismini dividend tariqasida olishini, uni boshqarishda qatnasha olishini tasdiqlaydi.

Aksiyadorlik jamiyati – ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti.

Aksiyalarning nazorat paketi – aksiya egasiga aksiyadorlik jamiyatida amaldagi hukmronligini ta‘minlaydigan aksiyalar miqdori; chiqarilgan aksiyalarning umumiy summasida bir shaxs, kompaniya yoki davlatning yirik hissasi, aksiyadorlik jamiyatining yig‘ilishida hal qiluvchi ovozga ega bo‘lish huquqini beradi.

Aksiz – keng iste‘mol tovarlariga qo‘yiladigan egri soliq turi.

Annuitet – bir xil davr mobaynida bir xil foiz stavka asosida bir xil to‘lovlarning yoki pul oqimlarining kelib tushishi.

Bank – kredit-moliya muassasasi bo‘lib, asosiy vazifasi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini bir joyga to‘plash, pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, pul hisob-kitoblarini amalga oshirish va boshqalar hisoblanadi.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma‘lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘yilgan bo‘sh pul mablag‘lari.

Bankrot – qarzdorlik, nochorlik, tadbirkorning o‘z qarz majburiyatlari bo‘yicha mablag‘i bo‘lmaganligi uchun to‘lashdan bosh tortishi.

Bankrotlik riski – tadbirkor tomonidan xususiy kapitalini butkul yo‘qotish xavfi bilan bog‘liq risklar.

Barqarorlik – narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalaydi.

Biznes – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

Biznes-reja – investitsiya loyihasiga oid hujjat hisoblanib, loyihaning imkoniyatlarini, xarajat va daromadlarini asoslash va baholashga, loyihaning moliyalashtirish manbalari va real pul oqimini hisob-kitob qilishga hamda loyihaning zararsizligini, o‘zini-o‘zi qoplashini va boshqa ko‘rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi. Biznes-reja investorni o‘zi yo‘naltirayotgan investitsiyalarni samarali bo‘lishiga ishonch hosil qilishiga mo‘ljallangan.

Birja – bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli; tovarlar (tovar birjasi), qimmatli qog'ozlar (fond birjasi), valyuta (valyuta birjasi) ulgurji savdosi, ishchi kuchi oldi-sotdisi (mehnat birjasi) bozori.

Birjaviy risklar – birjaviy bitimlardan ko'riladigan zararlar xavfi mavjud bo'lgan risklar.

Boshqaruv riski – bu ishlab chiqarish riskining bir turi bo'lib, boshqaruvchi shaxsning tajriba va malakasini yetarli darajada emasligi natijasida ro'y beradi. Ayrim hollarda, boshqaruv riski deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog'liq risklar tushuniladi.

Boj – bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import tovarlar, mol-mulk va qimmatli buyumlardan undiriladigan pul yig'imlari; uning tovar chiqarish, tovar kiritish va mamlakat hududi orqali tashib o'tkazish (tranzit) uchun undiriladigan turlari mavjud.

Bojxona – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni nazorat qiladigan davlat muassasasi.

Bojxona yig'imi – bojga qo'shimcha tarzda undiriladigan yig'imlar.

Bojxona konvensiyasi – ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama xalqaro kelishuv; ishtirokchi davlatlarning o'zaro savdo-sotiqda bojlar hamda bojxona rasmiyatchiligi masalalarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Bozor – sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabati; tovarlar bilan oldi-sotdi munosabatlari, tovar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va pul muomalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Bozor infratuzilmasi – bozor iqtisodiyoti uchun har xil xizmat ko'rsatuvchi sohalar: unga banklar, birjalar, auksionlar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, bojxonalar, tijorat idoralari, vositachilik firmalari, savdo-sotiq uyushmalari, konsemlar, konsorsiumlar kiradi.

Bozor konyunkturasi – bozorlarda muayyan holatlarning mavjudligi; muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

Broker – fond, tovar, valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachilik qiladi.

Valyuta – mamlakatning pul birligi; chet davlatlarning pul belgilari va chet mamlakat pul birliklarida ifoda etilgan hamda xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan muomala va to'lov, kredit vositalari.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Valyuta riski – bir valyutaning boshqasiga nisbati bo'yicha kursning o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi.

Veksel – muayyan miqdordagi qarzni belgilangan muddatda qat’iy to’lash majburiyati yuklangan, qonun bilan tasdiqlangan holatda to’ldirib rasmiylashtirilgan qarzdorlik tilxati, qimmatli qog’oz.

Venchur korxonalar – kichik biznesning bir turi, ilmiy-muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalari yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara shartnomalari buyurtmalarini bajarish bilan shug’ullanadi.

Venchur investorlari (Venture capitalists, Venture funds) – istiqbolli, asosan yuksak texnologik tez rivojlanadigan kompaniyalarga investitsiyalar kirituvchi tashkilotlar va xususiy shaxslar.

Venchur fondi – yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan yuqori darajadagi xavfga ega bo’lgan innovatsion loyihalar va dasturlarni moliyalashtirish va amalga oshirish uchun yaratilgan innovatsion infratuzilmaning subyekt bo’lgan, shuningdek, moliyaviy, konsalting, muhandislik va huquqiy yordamni taqdim etishi mumkin bo’lgan noaniq (jiddiy) daromad yoki yo’qotishlarni yuzaga keltirishi mumkin bo’lgan maxsus pul jamg’armasi.

Garov – pul qarz olinganda qarz oluvchi uni qaytarib berishi kafolatiga qo’yilgan mulk.

Gudvill – firmaning bahosi, korxonani sotib olish vaqtida yuzaga keladi va o’zida sotib olinayotgan korxonaga uchun to’lanayotgan narx bilan uning sof (majburiyatlar chegirilgan holdagi) aktivlarining baholash (bozor) qiymati o’rtasidagi farqni aks ettiradi.

Davlat qarzi – davlatning o’z fuqarolari, banklar, korxonaga va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

Daromadlilikning pasayishi riski – qo’yilmalar, kreditlar, portfelli investitsiyalar bo’yicha foizlar va dividendlar miqdorining kamayishi natijasida yuzaga keladi, daromadlilikning pasayishi risklari o’z ichiga foiz va kredit risklarini qamrab oladi.

Daromad solig’i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to’lov (soliq).

Devalvatsiya – milliy pul birligi kursining chet el valyutalariga nisbatan rasmiy tartibda davlat tomonidan pasaytirilishi.

Deposit sertifikat – kredit muassasasining omonatchiga depozitni olish huquqini tasdiqlovchi, pul mablag’lari deponent qilinganligi haqidagi yozma guvohnomasi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini

kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Dividend – aksioner jamiyati sof foydasining bir qismi, aksionerlarga daromadlar naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Dotatsiya – davlat yoki mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish.

Jahon banki – 1944-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bozori konyunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Investitsiyalar – qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar.

Investor – investitsiya faoliyati obyektlariga o'z mablag'larini investitsiya qilishni va boshqa investitsiya resurslarini jalb etishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi – investorning buyurtmalari bajarilishini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur. Respublika iqtisodiyotini barqaror va tadbiriy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Innovatsiya – yangi mahsulot va xizmatlarni yoki ularning komponentlarini yaratish, ishlab chiqarish va qo'llash yoki tashkilotning bir yoki bir nechta manfaatdor tomonlarni qiziqishlari uchun yangi tartib yoki jarayonni qo'llash.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo'sindagi foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir.

Investitsion siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo‘lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo‘llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsion soliq krediti – investorga soliq majburiyati bo‘yicha soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish imkoniyati.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsiya faoliyati – bu iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga resurslarning kapitallashuvini ta‘minlash va foyda (daromad) olish maqsadida investorlarning resurslarni jang‘arish va ularni turli shakllarda qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha amaliy harakatlari yig‘indisidir.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug‘urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o‘z mamlakatidagi qonunchilikka ko‘ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

Innovatsiya – o‘z ehtiyojlari uchun yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyani, yangi xizmatni, ishlab chiqarishni, ma‘muriy, savdo yoki boshqa yangi tashkiliy va texnik yechimni fuqarolik muomalasiga kiritilishi.

Innovatsion dastur – innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va samarali rivojlantirishni ta‘minlash, ularni amalga oshirish, resurslar, ijrochilar, moliyalashtirish hajmi va manbalari nuqtayi nazaridan muvofiqlashtirilgan innovatsion loyihalar to‘plami.

Innovatsion loyiha – innovatsion mahsulot yoki mahsulotni yaratish, amalga oshirish va tijoratlashtirish uchun tuzilish va vaqt bo‘yicha buyurtma asosida yo‘naltirilgan ish tartibi (investitsion tadbirlarni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar to‘plami).

Innovatsion mahsulot – yangi yoki sezilarli yaxshilangan mahsulot (mahsulot yoki xizmat)ning fuqarolik muomalasiga kirish shaklida amaliy tatbiq etilgan innovatsiya natijasi.

Innovatsion siyosat – davlat tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy choralar majmuasi bo‘lgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi.

Innovatsion - texnologik monitoring – tashkilotning texnologik rivojlanish darajasini va uning innovatsion potensialini to‘liq baholash.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llaniluvchi usul va vositalar majmui bo‘lib, o‘z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Innovatsion faoliyat – yangiliklarni yaratish va ularning asosida innovatsiyalarni olish imkonini beruvchi faoliyat.

Innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish – ilmiy-tadqiqot, taraqqiyot, texnologik ishlanmalar va innovatsion ishlanmalarning natijalarini fuqarolik muomalasiga kiritish.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) baholar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo‘llar, aloqa, transport, maorif, sog‘liqni saqlash.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta’minlovchi tarmoqlar majmui bo‘lib, o‘z ichiga temir va avtomobil yo‘llari, elektr, gaz va suv ta’minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo‘jaligi va boshqalarni oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalish va vositalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va vositalarni mukammal ta’irlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapital qo‘yilmalar – quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablag‘lari kapital qo‘yilmalarning manbalari bo‘lishi mumkin. Kapital qo‘yilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta ta’irlashga yo‘naltirilishi mumkin.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda ko‘proq investitsiyalar degan sinonim termin qo‘llaniladi, to‘g‘ridan - to‘g‘ri investitsiyalar, real investitsiyalar va asosiy kapital kabi sinonim terminlar ham qo‘llaniladi.

Kapital xarajatlar – asosiy kapitalga kiritiladigan mablag‘lar va zaxiralarni o‘shishi.

Konyunktura – bu bozorda ma‘lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog‘liq bo‘lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larlarini bir joyga jamlab, ularni ma‘lum bir tamoyillar asosida berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Modernizatsiya (grekchadan moderne – yangicha) – obyektning takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me‘yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Novatsiya (yangilik) – iqtisodiy va boshqa turdagi ijobiy samara olib kelishga qodir va iste‘molchilarga kelgusida foydalanish uchun taklif qilinadigan biror bir faoliyat turi bo‘yicha yangi yoki takomillashgan mahsulot.

Obligatsiyalar – ularni chiqargan tashkilotlarning ularning egalariga ma‘lum daromadni to‘lashga doir qarz majburiyatlari; bunda ma‘lum vaqt muddatda obligatsiyalarning qiymati uning egasiga qaytarilishi kerak.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Reinvestitsiyalar – investitsiyalardan olingan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko‘rsatish uchun to‘lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar.

Rekonstruktsiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma‘naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o‘rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Rentabellik – korxonalar faoliyatining foydalilik darajasi. Uning uch xil ko‘rsatkichi mavjud: korxonalar aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko‘rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda

ko'rsatkichini korxonada aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Risk – bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bo'lgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan umidsizlikdir.

Soliqlar – bu majburiy, qaytarilmaydigan to'lovlar. Ular davlat organlari tomonidan ishlab chiqarish birliklaridan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlari uchun olinadi.

Soliq imtiyoz – soliqlar to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliqlar bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliqlar miqdori ifodalaydi.

To'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy shirkatlar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

Chet el investitsiyalari – chet el investorlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shiladigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar.

Emissiya – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Qimmatli qog'oz – uning egasining ma'lum summadagi pul yoki muayyan mulk qiymatliklariga egalik huquqidan dalolat beruvchi pul hujjatidir. Qimmatli qog'ozlar bozorda mustaqil muomalada bo'lishi, oldi - sotdi yoki boshqa bitimlar obyekt bo'lishi, bir martalik va muntazam daromad olish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: Adolat, 2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 1997 yil 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 2014 yil 9 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni, 1998 yil 30 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni, 1998 yil 30 aprel.
7. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni, 1999 yil 14 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonuni, 1996 yil 25 aprel.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi "Lizing faoliyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish

strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilgi “Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2697-sonli qarori

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek Lizing interneshnl AJ” lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 6-sonli qarori, 1996 yil 5 aprel.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 462-sonli qarori, 2003 yil 23 oktyabr.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-son qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi, 2018 yil 14 avgust.

23. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O‘zbekiston, 2010.

24. Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. T.: O‘zbekiston, 2015.

25. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. 488 b.

26. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017. 48 b.

27. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2017. 32 b.

28. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

29. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2018. 88 b.

30. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘ME, 2002.

31. Авдокушин Е.Ф. Свободные экономические зоны: Учеб. пособие. М.: ИВЦ Маркетинг, 2008.

32. Баффер У. Эссе об инвестициях, корпоративных финансах и управление компаниями. Пер. с англ. 2-е изд. М.: Альпина Бизнес Бокс, 2006.
33. A.Sh.Bekmurodov, Ya.K.Karrieva, I.U.Ne'matov, D.H.Nabiev, N.T.Kattaev *Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma*. T.: Iqtisodiyot, 2010.
34. Bodie Z., Kane A., Marcus A.. *Investments.*—10th Edition. McGraw-Hill Education, New York, 2014.
35. Borut Likar. *Innovation Management*. Korona plus d.o.o., Institute for Innovation and Technology, Slovenia, 1st edition, 2013.
36. Vahobov A.V., Hajibakiev Sh.X., Muminov N.G. *Xorijiy investitsiyalar: O'quv qo'llanma*. T.: Moliya, 2010.
37. Валдайцев С.В., Воробьев П.П. и др. *Инвестиции. Учебник*. М.: ТК Велби, 2005.
38. Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. *Основы инвестирования*. Пер. с англ. М.: Дело, 1997.
39. Данько Т.Л. *Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве*. М.: ИНФРА-М.1998.
40. Деева А.И. *Инвестиции: Учебное пособие для вузов*. М.: Экзамен, 2005.
41. DOLZER R., SCHREUER C. *Principles of International Investment Law*. Oxford University Press Inc., New York. 2008.
42. Друзик С.Я. *Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учеб. пособие*. Мн.: ФУА. информ, 2000.
43. Ergasheva Sh., Uzoqov A. *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma*. T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
44. Haydarov N.H. *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari*. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2003
45. Игошин Н.В. *Инвестиции. Организация управления и финансирование. Учебник*. М.: ЮНИТИ, 2007.
46. Imomov N.H. *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma*. T. 2011.
47. *Innovation Policy A Guide for Developing Countries*. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010
48. Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. *Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma*. T.: Sharq, 2003.
49. Зайиров Л., Насиров Э., Ханова Н., Асамходжаева Ш. *Инвестиции. Учебное пособие*. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 448 с.
50. Karimov N.G. va Xojimatov R.X. *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik*. TDIU, 2011.

51. Karlibaeva R. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. T.: Cho'lpon, 2011.
52. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. T.: TDIU, 2010.
53. Кэмпбелл Р. Макконелл, Станли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том. М.: Республика, 1992.
54. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. М.: Гетос АРВ, 1999.
55. Клас Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. – М.: Экономика, 1991.
56. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: Учеб. пособие. М.: ИНФРА-М, 2009.
57. Кольтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник. СПб.: Михайлова В.А, 2000.
58. Краснова Л.П. Финансы, деньги, кредит. Учебник. М.: Юрист, 2000.
59. Laurie Hunter, DCC | Digital Curation Manual. Instalment on "Investment in an Intangible Asset" School of Business and Management University of Glasgow. 2006
60. Лапигин Ю.Н., Балакирев А.А., Бобкова Е.В. Инвестиционная политика: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2005.
61. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. М.: Экономист, 2007.
62. Литвинова В.В. Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона. Монография, Москва. 2013.
63. Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2011.
64. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 608 b.
65. Maxmudov N.M., Madjidov SH.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2010
66. И.И. Мазур, В.Д.Шапиро, Н.Г.Ольдерогге, А.Ю.Забродин
Инвестиционно-строительный инжиниринг. Учеб.пособие
М.:Экономика, 2009.
67. Megan Murray. What Are Special Economic Zones? //The University of Iowa Center for International Finance and Development. February 9, 2010.
68. Мертенс А.В. Инвестиции: курс лекций по современной финансовой теории. Киев: Киевское инвестиционное агенство, 1997.

69. Mustafakulov Sh. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. T. 2017
70. Муфтайдинов К. Зоны экономического предпринимательства // Бозор, пул ва кредит. Т, 2003. № 7.
71. G.G'.Nazarova, X.X.Xalilov va boshqalar. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. T.: TDIU, 2011.
72. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К⁰, 2006.
73. «Nomoddiy aktivlar» nomli 38-Moliyaviy hisobotning xalqaro stardarti 32-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti
74. Norov B.A. Iqtisodiyot rivojida investitsiya va investitsion kreditlashning muhim omillari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017.
75. E. I. Nosirov, B. S. Mamatov, N. K. Shoislomova, K. U.Sharifxodjaeva. Investitsiya risklarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, 2011. 148 b.
76. Oblomurodov N.N. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari. T.: Fan, 2009.
77. Подшиваленко и др. Инвестиции: Учеб. пос. М.: КНОРУС, 2006.
78. Qo'zieva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Avtoreferat. T.: BMA, 2008.
79. Raimjanova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Monografiya. T.: Extremum-press, 2013
80. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2012.
81. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Страдубцева Е.Б. Современный экономической словарь. 4-изд. М.: ИНФРА-М, 2005.
82. Самуэльсон П.А. Экономика: пер. с англ. М.: БИНОМ, 1997.
83. Сабирова Л.Ш., Носиров Э.И. Иностраннные инвестиции: Учебное пособие. T.: Иқтисод-Молия, 2016.- 150 с.
84. Сабирова Л.Ш., Хужамкулов Д.Ю. Инвестиция. Учебное пособие. T.: Иқтисод-Молия, 2019.- 254 с.
85. Ткаченко И.Ю. Инвестиции: Учеб. пособие. М.: Академия, 2009.
86. Toshov O. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Monografiya. – T.: Akadempnashr, 2012. 168 b.
87. Хамидова Ф.А. Приоритетные направления привлечения финансовых инвестиций. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 115 с.
88. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. T.: Sharq, 2014. 247 b.

89. Хазанович Е.С. Иностранные инвестиции: Учебное пособие М.: КНОРУС, 2011.

90. Янковский К.П., Мухарь И.Ф. Организация инвестиционной и инновационной деятельности: Учебник. СПб: Питер, 2012.

91. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Учебное пособие. М.: Юнити 2005.

92. Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции: Учеб. пособие. М.: КНИГОДЕЛ. 2006.

93. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. T.: Moliya, 2003.

94. G'ozibekov D.G'., Sabirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004.

95. G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. T.: Iqtisod-Moliya, 2007.

96. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. М.: Инфра-М, 1997.

97. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. Учеб. пособие. Ростов н/Д.: Феникс, 2006.

98. Шимширт Н.Д., Копилевич В.В., Холодова Е.И. Современная инвестиционная и инновационная политика государства. Учебно-методическое пособие. Томск: Издательский Дом ТГУ, 2016. С.102.

99. Шумпетер А.Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. М.: Эксмо, 2007.

100. Юзвович Л.И., Дегтярев С.А., Князева Е.Г. Инвестиции. Учебник. Екатеринбург: Издательство Уральского университета. 2016. С. 259.

Internet saytlari:

- www.president.uz – (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti);
- www.gov.uz-(O'zbekiston Respublikasi hukumati portali);
- www.ziyonet.uz-(Axborot ta'lim tarmog'i);
- www.soliq.uz-(O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi);
- www.lex.uz-(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi portali);
- www.stat.uz- (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi);
- www.mift.uz – (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi);
- www.mf.uz – (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
- www.tfi.uz –(Toshkent Moliya Instituti portali);
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar fondi);
- www.cer.uz – (Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti).

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB. "INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH" FANINING TARKIBIY TUZILISHI VA O'QITISH METODLARI

1.1. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanining tarkibiy tuzilishi.....	5
1.2. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanini o'qitish metodlari va vositalari.....	8
1.3. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" fanini o'zlashtirishda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish yuzasidan tavsiyalar.....	14

II BOB. "INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH VA KASBIY FAOLIYAT ASOSLARI" MODULINING PREDMETI VA VAZIFALARI

2.1. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" modulining predmeti, o'qitish maqsadi va vazifalari.....	19
2.2. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi.....	23
2.3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kasbiy faoliyat asoslari" modulining o'rni va ahamiyati.....	26

III BOB. "INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH" BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA UMUMIY TAVSIF

3.1. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari.....	30
3.2. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga va kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan talablar. O'quv reja va fan dasturlari mazmuniga, malaka amaliyotlariga hamda bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan talablar.....	40

IV BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

4.1. "Investitsiya" va "investitsiyalash" tushunchalari.....	53
4.2. Investitsiya faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun-mohiyati.....	57

- 4.3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunining qabul qilinishi..... 62
- 4.4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining tashkil etilishi, tarkibiy tuzilmasi, uning asosiy vazifalari va funksiyalari..... 66

**V BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA
INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA
OSHIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI**

- 5.1. Investitsiya loyihasi tushunchasi. Investitsiya loyihalarining tasniflanishi..... 77
- 5.2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri..... 81
- 5.3. Milliy iqtisodiyotni ustuvor tarmoqlarida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar..... 85

**VI BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI
MOLIYALASHTIRISHDA BANK VA NOBANK MOLIYA-
KREDIT MUASSASALARINING O'RNI**

- 6.1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'rni..... 91
- 6.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing tashkilotlarining o'rni..... 96
- 6.3. Xalqaro moliya-kredit muassasalari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish..... 99
- 6.4. Investitsiya va pay fondlari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish..... 108
- 6.5. O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish..... 110
- 6.6. Maqsadli davlat jamg'armalari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish..... 112

**VII BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI
MOLIYALASHTIRISHDA AXBOROT-
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

- 7.1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriyati..... 115
- 7.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tashkilotlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni..... 117
- 7.3. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda dasturiy ta'minotlardan foydalanish..... 118

Nasirov Egamqul Ismoilovich
Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna
Aliqulov Mehmonali Saloxiddin o'g'li

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH

1-Qism

Darslik

Muharrir Z.Bozorova
Badiiy muharrir K.Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi Z.Ulug'bekova

Nashr. lits. AI № 305.
Bosishga ruxsat 16.10.2020-yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog'ozi №2.
"Times New Roman" garniturasini.
Shartli b.t. 9,7. Nashr hisob t. 10,0.
Adadi 50 dona. 13-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«DAVR MATBUOT SAVDO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'yliq, 4-mavze, 46.